

*Maxbuba Ismoilova,
Nuriddin Azizov*

MUSIQANING ELEMENTAR NAZARIYASI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MAXBUBA ISMOILOVA,
NURIDDIN AZIZOV

MUSIQANING ELEMENTAR NAZARIYASI

*60111300-Musiq ta’limi yo’nalishi talabalari uchun
Elektron o’quv darslik*

“Nur-star shines”

Toshkent

2024

85.31ya73

I-81

Ismoilova Maxbuba. Musiqaning elementar nazariyasi: darslik / M.Ismoilova, N.Azizov. -Toshkent: “Nur-star shines”, 2024. 172 b.

Mazkur darslikni O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan nashr etishga ruxsat berilgan (№149, 7.05.2024)

Tuzuvchilar:

Ismoilova Maxbuba Ilamanovna – Shahrizabz davlat pedagogika instituti “San’atshunoslik” kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Azizov Nuriddin Malikovich – Shahrizabz davlat Pedagogika instituti “San’atshunoslik” kafedrasini katta o‘qituvchisi

Mas’ul muharrir:

Ganixanova Shoyista Sharofutdinovna – O‘zbekiston davlat Konservatoriyasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari doktori (DSc)

Taqrizchilar:

Raximov Zokir Toshtemirovich – Shahrizabz davlat pedagogika instituti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Saidiy Said Boltazoda – Navoiy davlat pedagogika instituti professori, san’atshunoslik fanlari nomzodi.

Mazkur elektron darslik Oliy ta’lim muassasalarining 60111300-Musika ta’limi yo‘nalishi talabalari uchun “Musiqa elementar nazariyasi” fanidan tayyorlandi. Ushbu darslikda fan dasturi asosida mavzular to‘liq yoritilgan bo‘lib, talabalarning bilimlarini mustahkamlash uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda qo‘shimcha ravishda har bir mavzu yuzasidan video dars lavhalari orqali amaliy ko‘rsatmalar ishlab chiqildi. Bu darslik musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalari uchun nazariy va amaliy qo‘llanma sifatida tayyorlandi.

Этот электронный учебник подготовлен для студентов высших учебных заведений по направлению 60111300-Музыкальное образование по предмету «Элементарная теория музыки». В этом учебнике темы полностью освещены на основе научной программы, а практические инструкции были разработаны с помощью видеуроков по каждой теме с использованием современных информационных технологий для закрепления знаний учащихся. Учебник подготовлен как теоретическое и практическое пособие для студентов музыкального образования.

KBK 85.31ya73

UO‘K 781(075.8)

ISBN 978-9910-9052-2-3

KIRISH

Kelajak avlod tarbiyasi, bo'lajak vorislarini tayyorlash dolzarb masala ekanligi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda e'tirof etilgan. Iqtidorli va iste'dodli yoshlarni tarbiyalab, jamiyatda o'z o'rniga qo'ya bilish pedagoglardan katta mas'uliyatni talab etadi. Shu bois har bir soha pedagoglari zamonaviy ta'lim talablari darajasida ish yuritib vazifalariga jiddiy qarashlari lozim. Shu bilan birga ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish uchun fan darsliklari ham muhim o'rin tutadi. Musiqa san'atiga qadam qo'ygan talaba-o'quvchilar nazariy va amaliy bilimlarini darsliklar orqali egallaydilar. Musiqa san'ati tovushlar (ohang) orqali bayon etiladi va musiqaning o'ziga xos ifoda vositalarini o'zaro bog'lovchi muayyan qoidalarga asoslanadi.

Musiqaning qaysi sohasi bo'lmasin (fol'klor, maqomlar va maqom yo'lidagi kuy va ashulalar, akademik vokal ijrochiligi, ansambl, orkestr ijrochiligi) ijro etish yoki kuylash uchun musiqaning elementar nazariyasini bilish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, mazkur fan musiqa ijrosi uchun muhim sanalgan ko'plab elementlar va ularni ijroda qo'llash qoidalari borasidagi bilimlarni o'zlashtirishni qamrab oladi.

Har qanday mazmundagi musiqa rang-barang tarkibiy qismlardan tashkil topadi va musiqa nazariyasi – musiqaning elementar nazariyasi, garmoniya, musiqa asarlari tahlili, polifoniya va cholg'ushunoslik singari bir necha tarmoqlarga ajraladi.

Musiqaning inson ma'naviyatini shakllantirishdagi ahamiyati davlat miqyosidagi ishlardan biri ekanligi Prezidentimizning 26.05.2020 yilda PF 6000-sonli "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 02.02.2022 yilda PQ112-sonli "Madaniyat va san'at sohasining yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi qaror va farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maxsus qarorlarida o'z ifodasini topgan.

Bu qaror va farmonlar, xalqimiz, ayniqsa yosh avlod ongiga bebaho boylik hisoblangan milliy musiqa madaniyatiga bo'lgan hurmat va havas tuyg'ularini singdirish, ularda ma'naviy merosimizga mehr – muhabbat hislarini yuksaltirish vazifalarini bajarish bosh maqsadlardan biri sifatida qo'yiladi.

Qudratli kuchga ega bo'lgan musiqa o'z jozibasi bilan inson qalbini qamrab oladi. Shu boisdan musiqani xalqning, millatning qalbi deb bejiz aytmaydilar.

Shu sababli mazkur 60111300-Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan "Musiqaning elementar nazariyasi" fanidan tayyorlagan darsligimiz bugungi kun ta'lim ehtiyojlariga mos ravishda musiqaning nazariy asoslarini

amaliy jihatdan o'rganish uchun mo'ljallangan bo'lib, unda mavjud materiallar zamonaviy musiqa pedagogikasi talablari nuqtai nazaridan axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda yoritilgan.

Fanning maqsadi – talabalarda musiqiy ifodalilikka nisbatan ongli tafakkurni tarbiyalash va uni idrok etish qobiliyatini hosil qilish; talabalarning musiqiy dunyoqarashini, idrokini shakllantirish va rivojlantirish, musiqiy-estetik didini boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish; talabalarni musiqa o'qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlashdan iborat.


Fanning vazifasi – talabalarga musiqiy ifodalilikning asosiy vositalarini tushunib yetishishlarida chuqur bilimlar berish hamda musiqiy ko'nikmalarni o'rgatish;

- talabalarning musiqiy fikrlash, musiqiy eshitish, sof intonatsiyani his eta olish qobiliyatlarini va musiqiy xotirasini shakllantirish, ularda lad, ritm, temp va uslub tuyg'usini tarbiyalash hamda o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdir.

1-MAVZU. MUSIQIY TIZIM

Reja:

1. Musiqa san'ati va uning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Musiqiy tovush va uning xususiyatlari.
3. Oberton (yuqori ton), tabiiy tovushqator.
4. Musiqiy tizim tovushqatori.
5. Tovushlarni belgilash harfiy tizimi.
6. Oktava
7. Temperatsiyalangan soz. Yarim ton va butun ton. Asosiy va hosila pog'onalar.
8. Al'teratsiya belgilari
9. Diatonik hamda xromatik yarim tonlar va butun tonlar.
10. Diapazon, registr
11. Tovushlar engarmonizmi



Musiqa san'ati va uning o'ziga xos xususiyatlari

San'atning inson qalbiga tez kirib boruvchi va katta ta'sir etuvchi turlaridan biri musiqa san'atidir. Unda badiiy mazmun musiqiy tovushlar (ohang) bilan bayon etiladi va o'ziga xos ifoda vositalari orqali muayyan qoidalarga asoslangan holda musiqa hosil qilinadi.

Mazkur qoidalar har bir xalqning an'analari (fol'klor) musiqasi hamda mumtoz musiqasining (maqom yo'lidagi kuy va ashulalar) asrlar davomida vujudga kelgan tajribasi natijasida rivojlanib kelgan. Har qanday turli xil musiqiy ohangni tahliliy o'rganishda musiqaning elementar nazariyasini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabatdan, musiqa san'atining qaysi bir yo'nalishini o'rganishdan qat'iy nazar, mazkur fanni o'qitish dolzarb masala bo'lib unda musiqa asarlarini ijro etish va ulardagi mavjud tovush munosabatlari borasidagi bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlab beradi.

Har qanday musiqiy asar rang-barang tarkibiy qismlardan tashkil topadi va bu – musiqa nazariyasining tarmoqlashgan fanlarida ketma-ketlikda asta sekinlik bilan mukammal bilim va ko'nikmalar hosil qiladi. Bular quyidagilar:

- musiqaning elementar nazariyasi;
- garmoniya;
- musiqa asarlari tahlili;
- polifoniya;
- cholg'ushunoslik singari bir necha tarmoq fanlarga ajraladi.

Musiqaning tarkibiy qismlari va ularning o‘zaro bog‘lanishlari haqidagi bilimlar musiqa va uning nazariyasiga oid fanlarda aks ettirilgan. Mazkur fanlarning boshlang‘ich bosqichi musiqaning elementar nazariyasidir.

Musiqaning elementar nazariyasi fani musiqa grammatikasi, musiqaning asosiy belgilari va ayniqsa, musiqiy asarni tarkibiy belgilar tuzulmasini o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Ushbu fan doirasida jumladan, musiqiy tovush xususiyatlari, uning nota matnida ifodalanish texnologiyasi, musiqaning asosiy ifoda vositalari: metr-ritm, lad, garmoniya; ikki tovushning nisbati (interval), uch va undan ortiq tovushlar nisbati (akkord) va ular orqali ifodalanadigan musiqiy mazmun; lad, tonalliklarning musiqiy mazmunini ifodalash imkoniyatlari tahliliy o‘rganiladi.


Badiiy obraz musiqa asarlarida o‘ziga xos tarzda, ya’ni, ma’lum tovushlar va ohanglar sintezi sifatida aks ettiriladi. Musiqa asarlarida shakl va mazmun bir-birini to‘ldiruvchi sifatida muhim ahamiyatga egadir.

Musiqiy tovush va uning xususiyatlari.

Tabiatda juda ko‘p xilma-xil tovushlar mavjud bo‘lib, ularning hammasi ham musiqada qo‘llanilavermaydi. Insonning eshitish organi shovqinli, sharpa tovushlarni shu bilan birga musiqiy tovushlarni ham bir-biridan ajrata oladi. Shovqinli tovushlar, masalan: qarsillash, g‘ijillash, dukillash, gumburlash, shivirlash va hokazolar aniq balandlikka ega emas, ya’ni tebranish orqali tovush hosil qilmaydi. Shuning uchun ham bu tovushlar aniq bir mazmun kasb etmaydi va musiqada qo‘llanilmaydi. Zamonaviy orkestr va ansambllarda tovushi muayyan balandlikka ega bo‘lmagan, urib chalinadigan asboblardan ham ritmik jihatdan qo‘llaniladi, masalan, doira, nog‘ora, qayroq tosh, uchburchak, kichik baraban, mis tovoqchalar, katta baraban.

Kompozitorlar ularni qo‘shimcha asboblardan sifatida ishlatib, musiqiy bayonni yanada ifodalibroq qilish uchun ishlatadilar. Doira, nog‘ora cholg‘ularini ijro jarayonida usulni saqlash uchun ishlatiladi.

Ton – bu yagona musiqiy tovush va shuning uchun musiqaning eng kichik birligi. Musiqiy tovush to‘rtta xususiyatga ega: bular baland-pastlik, uzun-qisqalik, qattiq-yumshoqlik va sifat-tembrdan iborat. Musiqada tovushning cho‘zimi ham katta ahamiyatga egadir, tovushning uzun yoki qisqaligidan uning fizik xarakteri o‘zgarmaydi. Ammo musiqiy nuqtai nazardan tovushning cho‘zimi uning (asosiy xossalardan hisoblanadigan) yana bir xususiyati bo‘lib, u muhim ahamiyatga egadir.



Endi musiqiy tovushlarning har bir xususiyatini alohida ko‘rib chiqamiz.

Tebranish harakatlari bo‘lib turadigan fazo doirasi tebranish amplitudasi (kengligi) *deb ataladi*.


Pitch – ohangning baland yoki pastligi. Yuqori ohanglar pastroq tovushlarga qaraganda soniyada ko‘proq tebranishlar natijasida hosil bo‘ladi. Quyidagi rasmda A ohangi B ohangiga qaraganda balandroq tovushga ega.



Uzun-qisqalik - bu ohangning davomiyligi. Ohang qanchalik uzoq davom etsa, uning uzunligi shunchalik katta bo‘ladi. Rasmda B ohangining uzunligi A ohangidan kattaroq ekanligini ko‘rsatadi.



Qattiq-yumshoqlik (quvvat) - bu ohangning intensivligi. Ohangning tebranishlari qanchalik kuchli bo‘lsa, uning kuchi shunchalik katta bo‘ladi. Quvvat hajmiga teng. Quvvat qanchalik katta bo‘lsa, ohang shunchalik baland bo‘ladi. Rasmda B ohangi A ohangiga qaraganda kuchliroq ekanligini ko‘rsatadi.




Tembr deb tovushning sifat-xususiyati, uning rang-barangligiga aytiladi. Tembr xususiyatlarini ifodalashda his-tuyg‘ularga taalluqli turli iboralar qo‘llaniladi. Masalan: mayin, keskin, yo‘g‘on, jarangdor, kuychan tovush. Ma‘lumki, har bir cholg‘u asbobi yoki kishi ovozi o‘ziga xos tembrga ega. Xilma-xil cholg‘u asboblardan eshitiladigan ma‘lum bir balandlikdagi tovushlar o‘zlariga xosligi bilan bir-birlaridan farq qiladilar yoki erkak kishilarning ovozi ayollar ovozidan o‘z xususiyati bilan farq qiladi, hatto bir jinsdagi kishilarning ovozlari ham o‘z rang-barangligi bilan farqlanadi va h.k.

Tembrning farqlanishi har bir tovushga xos bo'lgan yuqori tonlarning tarkibiga bog'liqdir. Yuqori tonlar, obertonlar tovush to'lqinlarining murakkab shakli natijasida yuzaga keladi.

Tovush cho'zimi tovush manbai tebranishining davomiyligiga bog'liq. Tovush chiqqa boshlaganda tovush manbaining tebranishi qanchalik keng bo'lsa, tovushning pasayib borishi ham shuncha davom etadi. Bunday holda tovush manbai erkin tebranishi shart.


Oberton (yuqori ton), tabiiy tovushqator.

Turli qalinlikdagi tebranuvchi jism tebranish jarayonida teng bo'laklarga bo'linishi natijasida tovush to'lqinlarining murakkab shakli vujudga keladi, jismning umumiy tebranishi - bu teng bo'lakchalar alohida tebranib, o'zining uzunligiga muvofiq keladigan qo'shimcha to'lqinlar hosil qilishidir. Shunday qilib yuqori tonlar qo'shimcha oddiy tebranish natijasida hosil bo'ladi. Yuqori tonlarning balandligi har xil bo'ladi, chunki ularni hosil qiladigan tebranish tezligi turlichadir. Masalan, cholg'u asbobi torida birgina asosiy ton eshitilganda edi, uning to'lqinlanish shakli quyidagicha tasvirga muvofiq bo'lardi.




Torning teng yarmidan hosil bo'lgan ikkinchi yuqori ton to'lqinining uzunligi asosiy lon to'lqinidan ikki marta qisqa, tebranish chastotasi (tezligi) esa ikki marta tezroq bo'ladi va hokazo.

Yarmidan hosil
bo'lgan to'lqin




ikki marta tez

Uchdan bir qismidan
hosil bo'lgan to'lqin



uch marta tez

To'rttdan bir qismidan
hosil bo'lgan to'lqin




to'rt marta tez
va h.k.

Torning dastlabki tovushi (asosiy toni) ning tebranish sonini birlik silatida olinsa, yuqori tonlarning tebranish sonlarini quyidagi oddiy raqamlarda ifodalash mumkin:

1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16 va hokazo.

Shu ko‘rinishdagi tovushlar qatori tabiiy tovushqator deyiladi. Agar katta oktava do tovushini asosiy ton sifatida qabul qilinsa, tovushlarning quyidagi tovushqatori hosil bo‘ladi.




Musiqiy tuzilma tovush qatori.

Muayyan aniq balandlikda bo‘lgan tovushlar qatoriga musiqaviy tuzilma deyiladi. Tuzilma tovushqatorining o‘z balandligiga qarab joylashishi tovushqator, tovush esa, uning pog‘onasi deyiladi. Musiqiy tuzilmaning to‘liq tovushqatori 88 ta xilma-xil tovushlarni o‘z ichiga oladi. Bu tovushlar, (ya’ni eng past tovushlardan eng baland tovushlarga) 16 gts dan 4176 gts tebranishga egadir. Ana shu tovushlar balandligi inson qulog‘i eshita oladigan tovushlardir.

Musiqaviy tuzilma tovushqatorining asosiy pog‘onalariga yettita mustaqil nom berilgan. Bular quyidagicha ataladi:

Do	Re	Mi	Fa	Sol	Lya	Si
----	----	----	----	-----	-----	----

Bu asosiy pog‘onalar fortepianoning oq klavishlari tovushlariga mos keladi va ular 52 ta asosiy klavishlardan iborat.



Musika tovushqatoridagi yettita asosiy pog‘onalarning nomi ma’lum bir vaqtda takrorlanib, turadi va shunday yo‘l bilan barcha asosiy bosqichlarning tovushlarini o‘z ichiga oladi. Bu yuqori tomon sanalgan (oq klavishlarda chiqariladigan) har bir sakkizinchi tovush birinchi tovushga nisbatan Ikki marta tezroq tebranishi natijasida hosil bo‘ladi. Demak u birinchi boshlang‘ich tovushning ikkinchi yuqori toniga mos keladi va unga hamohang bo‘lib eshitaladi.

Tovushlarni belgilash harfiy tizimi.

Tovushlarning nomini bo‘g‘in yoki harflar bilan ifodalaymiz. Quyida biz siz bilan lotin alifbosi asosida harflar bilan ifodalash usulini o‘rganamiz. Yetti asosiy bosqich quyidagi lotin harflari bilan ifodalanadi:

C	D	E	F	G	A	H
Do	Re	Mi	Fa	Sol	Lya	Si

Bu tizim qo‘llanila boshlagan vaqtda, ya‘ni o‘rta asrlarda tovushqator lya tovushi bilan boshlangan, si bemol tovushi esa tovushqatorning asosiy bosqichlaridan hisoblangan. Musiqa amaliyotining keyingi davrlarida si bemol tovushi si tovushi bilan almashtiriladi va tovushqator quyidagi tartibda bo‘lgan:

A	B	C	D	E	F	G
Lya	Si	Do	Re	Mi	Fa	Sol

bemol

O‘tmishda, ya‘ni o‘rta asrlarda bu sistema joriy bo‘lgan davr dastlabki variantlarda diatonik tovushqator ikki ashulachilik oktavasidan iborat bo‘lgan: katta oktavaning lya tovushidan birinchi oktavaning lya tovushigacha bo‘lgan. Bu tovushqatorning ikkinchi bosqichi ikki xil ko‘rinishda muvofiqlashtirilgan. Yuqori tovush si, *B-durum* (**B** qattiq) deb nomlangan va kvadrat shaklli **V** harfi bilan va pastki tovush si bemol *B mollis* (**B** yumshoq) yumaloq shaklli **B** harfi bilan belgilangan. Keyinchalik si tovushi **H** harfi bilan belgilangan bo‘lib, B esa si (bemol asosiy bosqich) bo‘lib qolgan. Bu sistemaning oktava oralig‘idagi tovush qatori quyidagicha.

A	B	C	D	E	F	G	A
Lya	Si	Do	Re	Mi	Fa	Sol	La

bimol

Hosila bosqichlarni belgilash uchun bu harflarga qo‘shimcha lotincha bo‘g‘inlar qo‘shiladi: (is – diyez), (isis - dubl diyez), (es – bemol), (eses- dubl bemol). Masalan: (cis-do diyez), (fisis - fa dubl diyez), (des-re bemol), (geses-sol dubl bemol). Yuqorida aytilganidek, hosila bosqichlardan si bemolda qo‘shimcha bo‘g‘in bo‘lmaydi, uning “B”, “b” harflari bilan yozilishi saqlanib qolgan. Es bo‘g‘inida unli a va e harflari uchrasa talaffuz qulayligi uchun e harfi aytilmaydi: mi bemolda ees emas, es *deyiladi* va yoziladi, lya bemolda aes emas balki as *deyiladi* va yoziladi.

Oktava

Bir xil pog‘ona yoki nomdagi tovushlar oralig‘iga **oktava** deyiladi. Bundan tashqari tovushqatorning asosiy yetti bosqichini o‘z ichiga olgan har bir qismi ham **oktava** deb ataladi. Shunday qilib, butun tovushqator bir necha oktavaga bo‘linadi. Har bir oktavaning-boshlanishi do bosqichining tovushi deb qabul


qilingan. Butun tovushqator yetti to‘liq oktava va tovushqatorning ikki tomoni (fortepiano klaviaturasini ikki cheti)da joylashib to‘liq bo‘lmagan ikki oktavani tashkil etuvchi to‘rtta tovushdan iborat oktavalar (pastdan yuqoriga tomon) quyidagicha nom bilan ataladilar subkontroktava, kontroktava, katta oktava, kichik oktava, birinchi oktava, ikkinchi oktava, uchinchi oktava, to‘rtinchi oktava va beshinchi oktava. Quyida oktavalariga bo‘lingan klaviatura shaklida musiqiy sistema tovushqatorining ko‘rinishlari ko‘rsatilgan.



Oktavalarni belgilash uchun harflar ustiga qo‘shimcha ravishda raqamlar yoki chiziqchalar yoziladi. Katta oktavaning tovushlari katta harflar bilan, kichik oktavaning tovushlari kichik harflar bilan yoziladi. Masalan, katta oktavaning lya tovushi katta A harfi bilan kichik oktavaning sol tovushi kichik g harfi bilan yoziladi.

Birinchi oktavadan beshinchi oktavagacha tovushlar qaysi oktavaga tegishli bo‘lsa shunday raqam yoki chiziqchalar va kichik harflar bilan yoziladi:

Birinchi oklava “do” tovushi	c ¹	
------------------------------	----------------	--

Ikkinchi oktava “re” tovushi	d^2	
Uchinchi oktava “mi” tovushi	e^3	
To‘rtinchi oktava “fa” tovushi	f^4	
Beshinchi oktava “do” tovushi	c^5	

Kontroktava va subkontroktava tovushlari qaysi oktavaga tegishli bo‘lsa, oktava yoziladigan shunday raqamlar yoki chiziqchalar va katta harflar bilan belgilanadi. Masalan:

Kontroktava Si tovushi H_1 yoki $\underline{H}$,

Cubkontroktava Lya tovushi A_2 yoki $\underline{\underline{A}}$

***Temperatsiyalangan soz. Yarim ton va butun ton.
Asosiy va hosila pog‘onalar***

Musiqiy tizimdagi tovushlar balandligining muayyan o‘zaro ta’sir etishi **musiqaviy soz** deyiladi. Musiqaviy sozlar tarixi kamertonlar tarixi bilan uzviy bog‘liq. Aynan birinchi oktava lya tovushi ko‘plab kamertonlarning tayanch tovushi sifatida qabul qilingan edi.

Ushbu etalon tovush manbai sifatidagi kamerton 1711 yili ingliz musiqachisi J.Shor tomonidan ixtiro qilindi va u 419,9 gts ni tashkil etar edi¹

Keyinchalik bir necha marta o‘zgarishlarga uchrab nihoyat 1885 yili Vena shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada musiqaviy soz maqomini oldi va bugungi kungacha amal qilib kelmoqda.

Hozirgi zamon musiqiy soziga birinchi oktavadagi lya tovushining bir

¹ Энциклопедический музыкальный словарь. Госнауиздат. БСЭ. М., 1959, с-97.

soniyada 440 marta tebranishi asos qilib olingan. Rasm bo'lgan qoida bo'yicha qabul qilingan musiqiy sistemaning har bir oktavasi o'n ikkita teng qismga ya'ni yarim tonlarga bo'linadi. Bunday musiqiy sozni **temperatsiyalangan soz** deyiladi, bu tabiiy tovushqatordan barcha yarim tonlarning teng bo'linishi bilan farq qiladi. Shu tufayli oktavaning 12 teng yarim tonlikka bo'linganligi yarim ton musiqa sistemasidagi tovushlar orasida eng qisqa oraliqdir. Ikkita yarim tonlikning qo'shilishidan hosil bo'lgan oraliqqa **butun ton** deyiladi. Tovushqatorning asosiy bosqichlari orasida ikkita yarim ton va beshta butun ton mavjud. Bu ikkita yarim ton va beshta butun ton quyidagi tartibda joylashadi:

Do	Re	Mi	Fa	Sol	Lya	Si	(Do)
1 ton	1 ton	0,5 ton	1 ton	1 ton	1 ton	0,5 ton	

Asosiy bosqichlar orasida hosil bo'lgan butun tonlar ikkita yarim tonliklarga bo'linadi. Yarim tonliklarni ifodalovchi tovushlar fortepianoda qora klavishlar bilan belgilangan va ular butun tonliklarni yarim tonliklardan ajratib turadi. Tovushqatorning har bir asosiy bosqichi ko'tarilishi yoki pasaytirilishi mumkin. Asosiy bosqich tovushlarining ko'tarilishi yoki pasaytirilishidan hosil bo'lgan bosqichlar **hosila bosqichlar** deyiladi. Hosila bosqichlarning nomi asosiy bosqichlar nomidan olingan. Asosiy bosqichni yarim ton ko'targanda diyez, yarim ton pasaytirganda bemol iborasi qo'llaniladi. Asosiy bosqichni ikkita yarim tonga ko'targanda dubl diyez, masalan fa dubl diyez, ikkita yarim tonga pasaytirganda, dubl bemol, masalan si dubl bemol iboralari qo'llaniladi. Yozuvda asosiy bosqichlarning ko'tarilishi yoki pasaytirilishi **al'teratsiya** (o'zgartirish) deyiladi.


Al'teratsiya belgilari

Musiqa amaliyotida asosan beshta **al'teratsiya belgilari** qo'llaniladi: diyez, dubl-diyez, bemol, dubl-bemol va bekar (ko'tarilgan yoki pasaytirilgan tovushni oldingi holatiga qaytarish). Bu belgilar quyidagicha yoziladi:

diyez	#	0,5 ton ↑
bemol	b	0,5 ton ↓
dubl diyez	x	1 ton ↑

dubl bemol	$\flat\flat$	1 ton ↓
bekar	$\natural$	Tabiiy holga qaytaradi

Al'teratsiya belgilari nota chiziqlariga va oralig'iga yozilib, lozim bo'lganda notalar oldiga, shuningdek, kalitlarning o'ng tomoniga ham qo'yilishi mumkin. Masalan:



Kalitdan keyin qo'yilgan al'teratsiya belgilari kalit al'teratsiya belgisi, notalar oldidan qo'yiladigan belgi esa tasodifiy al'teratsiya belgisi deyiladi.

Agar al'teratsiya belgilari kalit oldida qo'yilgan bo'lsa o'z kuchini butun asar davomida va barcha oktavalarda saqlaydi. Tasodifiy al'teratsiya belgisi esa o'z kuchini faqatgina bir takt davomida va o'z oldida turgan tovush uchungina saqlaydi, xolos.



Diatonik va xromatik yarim tonlar va butun tonlar

Avvalgi mavzularda yarim ton va butun tonlar haqida tasavvurga ega bo'ldik. Endi diatonik va xromatik yarim tonlar hamda diatonik va xromatik butun tonlarning bir-biridan farqini ajratib olamiz.

Tovushqatorning yonma-yon joylashgan ikki bosqichi orasida hosil bo'lgan yarim tonga **diatonik yarim ton** deyiladi. Qayd etilganidek, tovushqatorning asosiy bosqichlari mi-fa va si-do yarim tonlarini hosil qiladi. Ushbu ko'rsatilgan yarim tonlardan tashqari asosiy bosqichlar bilan yonma-yon joylashgan ko'tarilgan yoki pasaytirilgan hosila bosqichlar orasida ham diatonik yarim tonlar hosil bo'lishi mumkin. Masalan:




yoki ikki hosila bosqichlar orasida hosil bo'lishi mumkin:




Xromatik yarim ton deb quyidagicha paydo bo'lgan tonlarga aytiladi:

a) asosiy bosqich bilan uning ko'tarilgan yoki pasaytirilgan bosqichlari orasida hosil bo'lgan yarim tonga **xromatik yarim ton** deyiladi.




b) ko'tarilgan bosqich bilan uning ikki barobar ko'tarilgan bosqichi orasida yoki pasaygan bosqich bilan uning ikki barobar pasaygan bosqichi orasida hosil bo'lsa. Masalan:




Ikkita yonma-yon joylashgan bosqichlar orasida hosil bo'lgan butun tonlar **diatonik butun tonlar** deyiladi. Bir oktava orasida asosiy bosqichlar beshta butun tonni hosil qiladi, ular: do-re, re-mi, fa-sol, sol-lya, lya-si.,

Bundan tashqari diatonik tonlar asosiy bosqichlar bilan hosila bosqichlar orasida, shuningdek ikkita hosila bosqichlar orasida ham hosil bo'lishi mumkin:




Xromatik butun tonlar deb quyidagicha hosil bo'lgan tonlarga aytiladi:


a) asosiy bosqich bilan uning ikki barobar ko'tarilishi yoki ikki barobar pasayishi orasida hosil bo'ladi:



b) bitta asosiy bosqichdan iborat ikkita hosila bosqich orasida hosil bo'lsa:



v) bir bosqichning ikki chetidagi bosqichlari orasida hosil bo'lsa:




Diapazon. Registr

Musiqiy tovushqatorning eng past tovushdan eng yuqori tovushgacha bo'lgan umumiy hajmi **musiqiy diapazon** deyiladi. Inson tovushi yoki cholg'u sozining diapazoni deganda ular ifodalay oladigan umumiy musiqiy diapazon nazarda tutiladi (masalan, fortepiano diapazoni $A_2 - s^5$).

Registr deb, ovoz yoki cholg'u sozining alohida xarakterga ega bo'lgan tovush tusi bilan ajralib turadigan qismi (bo'lak, parcha)ga aytiladi.

Umuman olganda;

- o'rta registrga** - kichik, birinchi va ikkinchi oktavalar;
- yuqori registrga** - uchinchi, to'rtinchi va beshinchi oktavalar;
- pastki registrga** - subkontroktava, kontroktava va katta oktavani kiritish mumkin.



Turli cholg'u sozlarining registri ko'pincha bir-biriga mos bo'lmaydi, masalan, basning yuqori registri al'tning pastki registriga mos bo'ladi, yoki valtornada yuqori registrga xos bo'lgan tovushlar klarnetning o'rta registriga to'g'ri keladi.

Shu sababdan, har bir tovush o'zidan yarim ton pastda joylashgan asosiy pog'onaning ko'tarilishi yoki o'zidan yarim ton yuqori joylashgan asosiy pog'onaning pasaytirilishi natijasida **hosila tovush** bo'lishi mumkin, masalan, fa-diyez va sol-bemol.

Tovushlar engarmonizmi

Oktava tarkibidagi barcha yarim tonlar tengdir. Shu sababli har bir tovush

o'zidan yarim ton pastda joylashgan asosiy bosqichning ko'tarilishi yoki o'zidan yarim ton yuqori joylashgan asosiy bosqichning pasaytirilishidan hosil bo'lgan hosila tovush bo'lishi mumkin, masalan fa diyez yoki sol bemol. Ijroda balandligi va eshitilishi bir xil, ammo nomi va yozilishi har xil bo'lgan bosqichlar tengligiga **tovushlar engarmonizmi** deyiladi. Hosila bosqichlar asosiy bosqichlar bilan bir xil balandlikda bo'lishlari ham mumkin, masalan. si diyez bilan do, yoki fa bemol bilan mi. Tovushlarni ikki barobar ko'targanda (asosiy bosqich ikkita yarim tonga ko'tariladi) yoki ikki barobar pasaytirganda ham shunday hol sodir bo'ladi. Masalan: fa dubl diyez bilan sol, mi dubl diyez bilan fa diyez, mi dubl bemol bilan re, do dubl bemol bilan si bemol.

Tayanch iboralar

Tovush tebranishi chastotasi va amplitudasi, obertonlar, tovush tembri, tovushning balandligi, uzunligi (cho'zimi), qattiqligi (kuchi), Oberton, yuqori tonlar, tabiiy tovushqator, tovush to'liqini, qo'shimcha to'liqlar, asosiy ton, Oktava, subkontroktava, kontroktava, katta oktava, kichik oktava, birinchi oktava, ikkinchi oktava, uchinchi oktava, to'rtinchi oktava, beshinchi oktava, harfiy tuzilma, musiqaviy soz, temperatsiyalangan soz, yarim ton, butun ton, hosila pog'onalar, kamerton, etalon tovush, 440 marta tebranish, dubl diyez, dubl bemol, Beshta al'teratsiya belgilari, diyez, dubl-diyez, bemol, dubl-bemol, bekar, nota chiziqlari va oralig'i, kalit al'teratsiya belgisi, tasodifiy al'teratsiya belgisi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar


1. Fizik va sezgi holatidagi tovush xususiyatlarini ayting.
2. Tovush to'liqini deb nimaga aytiladi?
3. Sezgi holatidagi tovushga ta'rif bering.
4. Bir sekunddagi tebranishlar soni deganda nimani tushunasiz?
5. Tovushning nechta fizik xususiyati bor?
6. Tovushning balandligi deganda nimani tushunasiz?
7. Tovushning qattiqligi nima?
8. Tovushning cho'zimini tushuntiring.
9. Tovushning tembr xususiyatlarini tushuntiring.
10. Yuqori tonlarga misollar keltiring.
11. Tabiiy tovushqator deganda nimani tushunasiz.
12. Tovush to'liqini uzunligini tushuntiring.
13. Tebranish chastotasi nima?
14. Musiqaviy tuzilmaga ta'rif bering.
15. Tovush qator deb nimaga aytiladi?
16. Musiqaviy tuzilmaning to'liq tovushqatori nechta tovushdan iborat?

17. Fortepiano klaviaturasidagi eng past va eng yuqori tovushlar necha gerts tebranishga ega?
18. Insonning vokal ovozi taxminan necha gerts atrofida bo‘ladi?
19. Musiqaviy tuzilma tovushqatori nomini harfiy va bo‘g‘inli shaklda aytib bering.
20. Oktava atamasi necha xil ma’noda qo‘llaniladi?
21. Fortepiano klaviaturasida nechta to‘liq oktava bor?
22. Musiqaviy soz deb nimaga aytiladi?
23. Kamerton qachon ixtiro qilingan?
24. Temperatsiyalangan soz deganda qanday soz tushuniladi?
25. Musiqiy soz standarti (etaloni) sifatida qaysi tovush qabul qilingan?
26. Yarim tonni tushuntiring.
27. Butun tonni ta’riflang.
28. Tovushqatorning asosiy pog‘onalari orasida nechta yarim va butun ton bor?
29. Hosila pog‘onalarni ta’riflab bering.
30. Al’teratsiya belgilari nimani ifodalaydi?
31. Nechta al’teratsiya belgisi bor?
32. Al’teratsiya so‘zining ma’nosi?
33. Dubl-bemol nimani anglatadi?
34. Kalit al’teratsiya belgisi deganda nimani tushunasiz?
35. Tasodifiy al’teratsiya belgisi nima maqsadda qo‘llaniladi?

2-MAVZU. NOTA YOZUVI TIZIMI


Reja:

- 1.Nota yo‘li.
- 2.Nota belgisi. Tovush cho‘zimlari.
- 3.Kalitlar.
- 4.Nota cho‘zimini uzaytiruvchi belgilar.
- 5.Pauzalar.
- 6.Ko‘p ovozlikni nota yo‘lida ifodalash qoidalar, akkolada, partitura.
- 7.Dinamik belgilar.
- 8.Nota yozuvini qisqartirish belgilari.




Nota yo‘li.

Asrlar davomida shakllangan va tarkib topgan maxsus harflar vositasida musiqiy tovushlarni yozish tizimiga **nota yozuvi** deyiladi. Nota belgisi o‘rtasi bo‘sh, yoki o‘rtasi bo‘yalgan doirachalardan iborat. Tovushlarning turli-tuman cho‘zimini belgilar bilan ko‘rsatish uchun bu doirachalarga tik tushirilgan tayoqchalar, dumchalar, qisqa cho‘zimli tovushlarni bir guruhga birlashtirish uchun qovurg‘achalar, qo‘shimcha yotiq chiziqlar qo‘shib yoziladi. Tovushlarning balandligini ifodalash uchun bir-biriga parallel joylashgan beshta to‘g‘ri chiziq ishlatiladi va u **nota yo‘li** deyiladi. Nota yo‘li boshlanishidagi bu besh chiziqni birlashtiruvchi tik chiziqli tayoqcha qo‘yiladi va bu takt chizig‘i nomi bilan yuritiladi. Nota chiziqlari pastdan yuqoriga sanaladi.



Nota belgilari nota yo‘lidagi chiziqlar ustiga yoki chiziqlar oralig‘iga yoziladi, bu tovushqatorning asosiy bosqichiga muvofiq keladi:




Tovushlarning ko‘tarilishi yoki pasaytirilishini ifodalash uchun # (diyez) yoki ♭ (bemol) deb ataladigan maxsus belgilar qo‘llaniladi, ular notalar, nota chiziqlari orasida yozilsa, notadan oldin shu nota muvofiq o‘rindagi chiziq ustiga yoziladi:




Bu tartibda nota yo‘lida faqat notalarning chegaralangan balandlikdagi turli-

tuman notalarni yozish mumkin. Yanada baland yoki past tovushlarni yozish uchun qisqa qo‘shimcha chiziqlar ishlatiladi. Bu qisqa qo‘shimcha chiziqlar nota yo‘lining ustiga qo‘yilsa, nota yo‘lining ustidagi qo‘shimcha chiziq, nota yo‘lining ostiga qo‘yilsa, nota yo‘lining ostidagi qo‘shimcha chiziq deb aytiladi. Qo‘shimcha chiziqlar asosiy chiziqlardan boshlanadi. Ular nota yo‘lidan yuqoriga yoki nota yo‘lidan pastga tomon sanaladi:



Qo‘shimcha chiziqlardan nota yo‘lining asosiy chiziqlaridek foydalaniladi, ya’ni notalar qo‘shimcha chiziq ustiga yoki orasiga yoziladi:



Tayoqchalar nota yo‘lidagi notalar doirachalariga tutash holda yoziladi: nota doirachasi nota yo‘lining ikkinchi yoki uchinchi chiziqlari orasida va undan pastroqda joylashsa, tayoqchalar nota doirachasining o‘ng tomonidan yuqoriga, nota doirachasi uchinchi va undan yuqori chiziqlarda joylashsa, nota doirachasining chap tomonidan pastga qarab tortiladi:



Notalar guruhlanganda quyidagicha yoziladi:



Notalar guruhlarga birlashtirilsa (ular turli balandlikda joylashgan bo‘lsalar) tayoqcha qovurg‘achalarni yozish uchun qulay o‘rin tanlanadi. Unday vaziyatda ularni nota yo‘lining o‘rta qismiga yozish ma’qul.




Nota belgisi. Tovush cho‘zimlari.

Musiqiy tovushlar notalar vositasida yoziladi. Nota- lotincha soʻzdan olingan boʻlib belgi, yozuv degan maʼnoni bildiradi. Notalar oʻrtasi boʻsh, yoki boʻyalgan doirachalardan iborat boʻladi.

Tovushlar turli choʻzimlarga ega boʻlganligi uchun, ular vertikal tayloqchalar (shtillar) bayroqchalar, qisqa choʻzimli tovushlarni bir-biriga birlashtirish uchun esa qovurgʻachalar-qoʻshimcha gorizontal chiziqlar bilan belgilanadi. Eng katta choʻzimli tovush butun nota - o bilan ifodalanadi. Boshqa barcha notalar butun notaning hissalarini bildiradi. Yarim nota butun notaning ikkiga boʻlinishidan, chorak nota butun notaning toʻrtga boʻlinishidan, sakkiztalik nota bir butun notaning teng sakkiz qismga boʻlinishidan, oʻn oltitalik nota bir butun notaning oʻn olti qismga boʻlinishidan hosil boʻladi va h.k. Nota choʻzimlarining bunday boʻlinishi asosiy yoki juft boʻlinish deb ataladi. Tovush choʻzimlarining bunday asosiy boʻlinishidan butun nota ikkita yarimtalikka, toʻrtta choraktalikka sakkizta yarim choraktalikka oʻn oltita oʻn oltitalikka, oʻttiz ikkita oʻttiz ikkitalik notaga boʻlinadi.

Choʻzimlarning asosiy boʻlinishi tablitsasi quyidagicha:



Butun notaning eng kichik bo‘linishi oltmish to‘rttalik notadir. Musiqada ushbu notadan kichik cho‘zim uchramaydi. XVI asrlargacha cho‘zimlarning boshqacha belgilanishi ham qo‘llanilgan:

№	Cho‘zimning nomi	Lotincha yozilishi	Ma‘nosi	Belgisi	Hozirgi qaysi cho‘zimga muvofiq kelishi
1	MAKSIMA	maxima	eng uzun		-
2	LONGA	longa	uzun		-
3	BREVIS	brevis	qisqa		2 ta butun notaga
4	SEMIBREVIS	semibrevis	brevisning yarmi		butun notaga teng
5	MINIMA	minima	eng qisqa		yarim notaga teng
6	SEMIMINIMA	semiminima	minimaning yarmi		chorak notaga teng
7	FUZA	fuza	bo‘lingan		nimchorak notaga teng
8	SEMIFUZA	semifuza	fuzaning yarmi		o‘n oltitalik notaga teng

O‘tmishda cho‘zimni ifodalovchi bu belgilardan hozirgi zamon amaliyotida ba‘zan brevis qo‘llanadi, u ikki butun nota cho‘zimga teng keladi. Musiqa asarining sur‘ati (ijro tezligi) nisbiy cho‘zimidir, u o‘zgarishi mumkin, masalan, yarimtalik nota tezroq sur‘atda choraktalik bo‘lishi mumkin va aksincha. Shuning uchun ham tovush cho‘zimlarini o‘zaro qiyoslash faqat o‘zgarmas suratlarda mumkin?

Kalitlar.

Kuyni nota yo‘liga joylashtirish uchun, nota yo‘lining har bir chizig‘ida va chiziqlar orasida tovushlarning muayyan balandligi maxsus belgi bilan biriktiriladi va bunga kalit deyiladi.

Kalit nota yo‘lining boshida asosiy chiziqlarning birida qo‘yiladi. Bunda biror asosiy chiziq kalit markazini kesib o‘tishi shart. Kalit ana shu chiziqda

joylashgan notaga muayyan tovush yoki pog‘ona balandligini (nomini) belgilaydi, nota yo‘lidagi qolgan tovushlar joylashishi ham mana shu notaga moslanadi

Hozirgi vaqtda nota yozuvida uch xil kalit keng qo‘llaniladi.. Ular: sol kaliti, fa kaliti va do kaliti. Qadimda bu kalitlar o‘rnida G, F va C harflari ishlatilgan va ular nota yo‘lining boshlanish o‘rnida qo‘yilgan, tovushlarning balandlik mohiyatini bildirgan.

Ana shu harflar zahirida quyidagi kalit belgilari paydo bo‘lgan, ammo bu belgilar mohiyati avvalgidek saqlanib qolgan.



Sol kaliti belgisi  shaklida bo‘lib, G harfining shaklidan olingan va birinchi oktavaning sol tovushi balandligini belgilaydi.

Fa kaliti belgisi  shaklida bo‘lib, F harfining shaklidan olingan va kichik oktavaning fa tovushi balandligini belgilaydi.


Do kaliti belgisi  shaklida bo‘lib, C harfi nomidan olingan va birinchi oktavaning do tovushi balandligini belgilaydi. Hozirgi zamon nota tizimida sol va fa kalitlari ko‘proq amaliyotda qo‘llaniladi.

Skripka kaliti


O‘rta va yuqori registrlar tovushlarini yozish uchun sol kaliti qo‘llaniladi, bunda uning dumaloq shakli nota yo‘lining ikkinchi chizig‘ini o‘rab oladi, uning nomi kalit nomidan olingan, bu kalitga skripka tovushlari hajmi muvofiq keladi.



Nota yo‘lining ikkinchi chizig‘ida yozilgan sol kaliti birinchi oktava sol tovushi balandligiga mos keladi. Shunday qilib, skripka kalitida nota yo‘lida qo‘yilgan nota va tovushlar o‘rnashadi:



Qo‘shimcha chiziq skripka kalitida quyidagi tovushlarning balandligini bildiradi:




Bas kaliti

Past va qisman o‘rta registr tovushlarini yozish uchun fa kaliti qo‘llaniladi. U nota yo‘lining to‘rtinchi chizig‘ida yoziladi va bas kaliti nomi bilan ataladi.



Shunday qilib, nota yo‘lining chiziqlari quyidagicha mohiyat kasb etadi.



Bas kalitida qo‘shimcha chiziqlar mohiyati quyidagicha:

v) Do kaliti. XII-XIII asrlar vokal musiqasida do kaliti muhim ahamiyat kasb etgan. Vokal musiqaning xilma-xil ovozlar partiyasini yozishga qulay bo‘lishi uchun do kaliti nota yo‘lining turli chiziqlarida yozilgan.

Cholg‘u musiqasining taraqqiyotida, ayniqsa XVII asrdan boshlab do kalitining mohiyati kamaya boshladi. Hozir u faqat ayrim orkestr asboblari uchun qo‘llaniladi, xolos, ya’ni ayrim kamanchali g‘ijjak alt partiyasi odatda alt kalitida yoziladi. Tenor kaliti violonchel, fagot va trambonlar partiyasida uchraydi. Bu ikki alt va tenor kalitlari o‘z kuchini bugungi kunlarda ham saqlab kelmoqda, chunki ular shu cholg‘u asboblarga xos bo‘lgan ovoz balandliklariga mos keladi va ularning partiyalarini kam sonli qo‘shimcha chiziqlar vositasida yozish imkoniyatini beradi. Hozirgi kunda vokal musiqasida barcha ovozlar partiyasi skripka yoki bas kalitida yoziladi. Tenor partiyasi odatda skripka kalitida yoziladi, ammo oktava past eshitiladi.

Hozirgi zamon nota sistemasida do kaliti birmuncha kam qo‘llanilsa-da, ularni bilish zarur, chunki o‘tmish san’atkorlarining asarlari shu kalit vositasida

yoʻzilgan. Tenor va alt kalitlari hozirgi zamon musiqa asarlarida, ayniqsa orkestr partiyalarida uchraydi.

Do kalitining asosan ikki xili, ya'ni al't va tenor kalitlari qo'llaniladi.

Agar do kaliti nota yo'lining uchinchi chizig'ida qo'yilsa alt kaliti deyiladi va u birinchi oktavaning do tovushini uchinchi chiziqda belgilaydi, masalan:



Do kaliti nota yo'lining to'rtinchi chizig'ida qo'yilsa, tenor kaliti deyiladi va u birinchi oktavaning do tovushini tortinchi chiziqda belgilaydi, masalan:




Nota sistemasida qo'shimcha chiziqlarni haddan tashqari ko'p qo'llamaslik uchun xilma-xil kalit belgilaridan foydalaniladi va nota o'qishni osonlashtiradi.

Notalarning cho'zimini uzaytiruvchi belgilar.

Musiqiy asarlarda uchraydigan hamma tovushlar ham o'z cho'zimi bilan u yoki bu notaning cho'zimiga mos kelmaydi. Masalan, tovush  sakkiztalik notadan uzunroq,  choraktalik notadan qisqaroq, yoki  choraktalik notadan uzunroq,  yarimtalik notadan qisqaroq bo'lishi mumkin. Bunday tovushlarning cho'zimini belgilash uchun tovushlarning cho'zimini uzaytiruvchi maxsus belgilar qo'llaniladi. Nuqta, liga va fermata belgilari shular jumlasidandir.

1. **Nuqta** (notaning o'ng tomonidan qo'yiladi) uning cho'zimini yarimtaga uzaytiradi.



Shuningdek, nuqtali notadan tashqari ikki nuqtali notalar ham qo'llaniladi. Agar nota yonidagi birinchi nuqta mazkur nota cho'zimini uning yarmi miqdorida uzaytirsas, ikkinchi nuqta yana chorak miqdorida uzaytiradi. Masalan:



2. **Liga** (yun. bog‘lash) – musiqa tovushini uzaytiruvchi belgidir. Liga yoy shaklida bo‘lib bir xil balandlikdagi tovushlar cho‘zimini bog‘laydi:



Bunday cho‘zimlar davomiyligi ularning umumiy miqdoridan oshmaydi:



Ligalangan nota olingan tovush takrorlanmaydi, barcha ligalangan notalar cho‘zim vaqtini uzluksiz davom ettiradi. Liga yordamida har qanday notaning sadosini uzaytirish mumkin.




3. **Fermato** (ital. to‘xtash) - o‘rtasiga nuqta qo‘yilgan yarim doira   shaklida bo‘lib, bu belgi notaning ustiga yoki ostiga qo‘yiladi va tovushning noaniq vaqtgacha uzaytirilishini belgilaydi. Fermataning davomiyligi musiqa asarining xususiyatiga va ijro usuliga bog‘liq, ustiga fermata belgisi qo‘yilgan notaning cho‘zimi ikki marta va undan ortiq ham bo‘lishi mumkin:



Pauzalar.


Musiqa asarlarida tovush yangrashining vaqtincha to‘xtashi **pauza** deyiladi. Pauza yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib to‘xtash ma‘nosini bildiradi. Pauza musiqiy tuzilmani chegaralash uchun, musiqiy ifoda ta‘sirini kuchaytirishga xizmat etadi, u musiqaning jonli qismi hisoblanadi. Pauza nota sistemasida maxsus belgilar bilan belgilanadi. Pauzalarning cho‘zimi notalar cho‘zimiga teng.

Har qanday cho‘zimdagi butun, yarim, chorak. sakkiztalik cho‘zimdagi notalar kabi pauzalar ham shundav cho‘zimlar bilan ifodalanishi mumkin.

	pauza	
	butun pauza	
	yarim pauza	
	chorak pauza	
	Yarim chorak pauza	
	o‘n oltitalik pauza	

Butun va yarim pauzalar bir xil shaklda yotiq (gorizontal) chiziqcha bilan belgilanadi va u nota yo‘lida joylashish o‘rni bilan farqlanadi: butun pauza nota yo‘li chizig‘ining ostiga, yarimtalik pauza nota yo‘li chizig‘ining ustiga, ya’ni butun pauza to‘rtinchi chiziq ostiga, yarimtalik pauza uchinchi chiziq ustida yoziladi.

Pauzalar cho‘zimi ham notalar cho‘zimi kabi uzaytiriladi. Notalar yonida nuqta qo‘yish orqali ularning cho‘zimini ma’lum cho‘zimga uzaytirish mumkin, pauza yoki qo‘yilgan bir nuqta pauza cho‘zimini uning yarim cho‘zimga uzaytirilsa pauza yoniga qo‘yilgan ikki nuqta 3/4 cho‘zimga uzaytiriladi.



Ko‘p ovozlikni nota yo‘lida ifodalash qoidalari, akkolada, partitura

Musiqasi asarlari (fortepiano, organ, xor, orkestr. ansambl. ovoz yoki yakka soz uchun) ikki va undan ortiq nota yo‘llarida yoziladi va ular to‘g‘ri yoki shaklli qavs bilan birlashtiriladi. Bir yoki bir necha nota yo‘llarini birlashtiruvchi qavs **akkolada** (fr. accolader - qavs) deb ataladi. Nota yo‘lida ikkita mustaqil ovozni yozish mumkin. Bunday hollarda nota tayoqchalari qarama - qarshi tomonga

qaratilib, har bir ovoz uchun ayrim - ayrim yoziladi. Yuqori ovozning tayoqchalari yuqoriga, pastki ovoz tayoqchalari esa pastga qaratilgan bo‘ladi:

O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi

Mutal Burhonov musiqasi,

Abdulla Aripov so‘zi

Tantanavor

f

Ser - qu - yosh, hur o'l - kam el - ga baxt, na-

ff

jot, Sen o' - zing do'st - lar - ga yo'l - dosh, meh - ri - bon! Meh - ri

Ikki va undan ortiq nota yo‘llarini birlashtiruvchi figurali qavs akkolada faqat fortepiano, organ kabi cholg‘u asboblarga mo‘ljallangan musiqa asarlari uchun qo‘llaniladi. Boshqa hollarda to‘g‘ri chiziqli qavs akkolada ishlatiladi.


Ovoz

F-no.

Bir necha cholg‘u asboblari (orkestr, ansambl)da ijro etish uchun mo‘ljallab yozilgan musiqa asarlari uchun qo‘llaniladigan akkoladada yozilgan musiqa asari matni **partitura** (yun. partes partiya ya’ni jamoa bo‘lib ijro etadigan cholg‘u guruhlar musiqa yozilgan matn) deyiladi. Masalan, bunday hollarda fortepiano triosi partiturasida fortepiano partiyasi alohida, xalq cholg‘ular guruhi partiyasi alohida ko‘rsatilib, akkolada yordamida ajratib ko‘rsatiladi:



Torli kvartet partiturasida barcha to'rtta cholg'u asboblari partiyasi bir umumiy akkolada bilan yoziladi:



Orkestr uchun (simfonik orkestr yoki xalq cholg'u asboblari orkestrlari) partituralarida har qaysi cholg'ular guruhi akkolada bilan ajratiladi:

Konsert final

O'zbek xalq cholg'ulari uchun

F.Alimov musiqasi

Allegro con brio

The musical score is written for a large ensemble of Uzbek traditional instruments. The instruments listed on the left are: Nay pikalo, Nay I,II, Sumay I,II, Qo'shnay I,II, Qonun, Chang, Rubob prima, Qashqar rubob I, Afg'on rubob, Dutor, Dutor bas, Dutor K. bas, Litavra, Treugolnik, Bub. M. bar, Buben Malinkiy baraban, Tarelka, Nog'ora Doyra, G'ijjak I, G'ijjak II, G'ijjak alti, G'ijjak bas, and G'ijjak K. bas. The score is in 4/4 time and key of D major. It includes dynamic markings like *sf*, *mf*, and *f*, and articulation like accents and slurs. The tempo is marked **Allegro con brio**.

Uch ovozli xor musiqasi ikki yoki uchta nota yo'lida yoziladi:

Laylak keldi

O'zbek xalq bolalar qo'shig'i

R.Qodirov qayta ishlagan

O'rtacha tez (Moderato) ♩ = 72

Ovoz 1
Lay - lak kel - di yoz bo'l - di qa - no - ti - qo g'oz bo'l - di.

Ovoz 2
Lay - lak kel - di yoz bo'l - di, qa - no - ti qo - g'oz

Ovoz 3
Lay - lak kel - di yoz bo'l - di qa - no - ti qo

Da - la dasht-lar qulf u - rib dar - yo bo' - yi soz bo'l - di.

bo'l - di. Da - la dasht-lar qulf u rib dar - yo bo' - yi soz bo'l - di.

g'oz bo'l - di. Da - la dasht-lar qulf u - rib, dar - yo bo' - yi soz bo'l - di.

To'rt ovozli xor musiqasi alohida-alohida (erkaklar, xotin-qizlar va bolalar xori) va aralash tarkibli xor musiqasi ikki yoki to'rt nota yo'li akkolada bilan yoziladi. Xor, torli kvartet, xilma-xil ansambllar va orkestrga mo'ljallangan musiqa yozish shakli **partitura** deyiladi.

Dinamik belgilar

Musiqada uning eshitilish kuchi turli darajalarda namoyon bo'ladi. Bu tovush kuchi dinamik belgilar bilan ko'rsatiladi. Dinamik belgilar katta ifoda kuchiga ega. Masalan, kuyning ko'tariluvchi harakati eshitilish kuchini oshirib boradi, quyilashtiruvchi harakati esa, eshitilishning pasayishiga olib keladi.

Musiqada keng qo'llaniladigan dinamik iboralar:

a) muttasil kuchlilik darajasini belgilovchi belgilar:

mezzo forte - ***mf*** o'rtacha kuchli

mezzo piano - ***mp*** o'rtacha past

forte - ***f*** kuchli

piano - ***p*** past

fortissimo - ***ff*** juda kuchli

pianissimo - ***pp*** juda past

b) muttasil o'zgaruvchi kuchlilikni ifodalovchi belgilar:

crescendo - yoki kuchaytirish belgisi - 

poco a poco crescendo - sekin asta kuchaytirib

diminuendo – yoki pasaya borish belgisi - 

poco a poco diminuendo - sekin asta pasayish

smorzando - tina boshlash

morendo - tina boshlash

v) kuchlilik darajasini o'zgartirish uchun qo'llaniladigan belgilar:

piu forte - yana kuchli

meno forte - sal kuchli

sforzando - *sf* ayrim tovushlarning keskin zarbi.

Nota yozuvini qisqartiruvchi belgilar

Nota yozishda uni soddalashtirish va qisqartirish uchun qator belgilar qo'llaniladi. Quyidagi qisqartirish usullari shular jumlasidan:


1. **Segno** (it. segno “belgi”). Agar qaytarish musiqa asarining birinchi taktidan boshlanmasa, u qaytarilishi lozim bo'lgan joyda  chizib qo'yilgan lotincha S harfini eslatuvchi belgi qo'yiladi, ayrim hollarda  o'rnida  belgisi ishlatiladi. Qaytarish boshlanishi lozim bo'lgan joyda dal segno yoki dal  belgisidan deb yozib qo'yiladi.

Agar boshdan  belgisigacha qaytarish lozim bo'lsa, **Da capo al**  “boshlanishidan oxirigacha” belgi bilan ifodalab u joydan qaytarilishi lozim bo'lgan joygacha deb yozib qo'yiladi. Agar qaytarilish bo'limidan keyin maxsus xotima bo'limi ijro etish lozim bo'lganda, koda deb nomlanuvchi bo'lim, uni so'z bilan ifodalab: **Da capo al Fine e poi la coda** “boshidan oxirigacha, so'ngra koda” yoki **Da capo al e pai la coda** deb yoziladi.

Ayiqcha

Nuriddin Azizov musiqasi
T.Husainov she'ri

Moderato



Pol - ga o - tib a - yiq - ni Sin - di - rish - di o - yo - g'in

Ket - may - man u - ni tash - lab Yu - ra - man do - im bosh - lab

Repriza (yun. Reprise - qaytarish) belgisi ijro vaqtida musiqa asarining biror qismi hech qanday o'zgarishsiz qaytarilganda qo'llaniladi: agar musiqa asarining boshlang'ich qismi qaytarilsa, repriza belgisi musiqa asari boshidan qaytarilishini bildiradi.



Agar qaytariluvchi qism musiqa asarining o'rtasida bo'lsa repriza belgisi qaytariladigan bo'lakning ham boshlanishida, ham oxirida qo'yiladi, masalan:

Bahor keldi

Nuriddin Azizov musiqasi
Bayt Turdiyev she'ri

Allegretto

fp

1.

2.

p

fp

f

Ba-hor kel-di

bo-la-lar qu-yosh to'l-di ko'z-larga Yal-piz som-sa jag'-jag' non dori dar-mon

siz-lar-ga la -la la lam la- la-la lam la- la- la- lam

1. 2.

la- la- la- lam la- la- la- lam la- la- la- lam

3. Qaytariluvchi qism kuyning oxirida kelsa repriza belgisi qo'yilib, yakunlovchi takt chizig'i qo'yilmaydi.

Farzand so‘zi

Nuriddin Azizov musiqasi

Nazarmat she‘ri

Marsh
f o'g'il

O'z-be-kis-ton o-vo-zi-ni ting-lang O'z-be-kis-ton dan Sir va A-mu

keng bag' ri-da ya-ral-gan gul ja-hon-dan Shu ja-hon-ning qad-rin bi-lur

ko'h-na ba-shar ta-ri-xi I-pak yo'li bosh-lan-gan ilk ul dun-yo-viy kar-von

dan O'z-be-kis-ton Va-ta-ni dan as-lo u-mid uz-mas dan
Ni-do qil-mish fi-do bo'l-gan Qo-di-riy-yu, Chol-pon-dan,

Shu ja-hon-ning kel-gan bu-gun is-tiq-lo-lu o'z-li-gi,

birgalikda
Et-ti iq-lim qo'l u-za tar biz-ga har to'rt to-mon dan dan

4. **Volta** (ital. – volta bir ma'nosini ifodalaydi) agar qaytariluvchi xotima (kadentsiya)ning qaytariluvchi qismi birinchi va ikkinchi marta har xil bo'lsa, unday hollarda har ikkala xotima ham yoziladi va quyidagicha belgilanadi: 1-ma volta (prima volta). 2 da volta (sekunda volta). Ya'ni birinchi marta, ikkinchi marta bu so'z ko'pincha oddiy 1 va 2 raqam kvadrat qavsning ostiga qo'yiladi. Repriza belgisi bir martalik qaytariqdir. Ko'p martalik qaytariq, masalan, vokal musiqaning bandli shakli qaytariqlar miqdori voltaning ostiga raqamlar bilan ko'rsatiladi. Agar keyingi kuplet boshqacha xotima bo'lsa, unday vaqtda u ikkinchi voltaning ostiga kuplet raqam belgisi bilan yoziladi, masalan:

Ko'p sonli kupletlar ham shunday yoziladi:

Qaytarish uchun	Tamomlash uchun.
-----------------	------------------

Da capo (ital. “boshidan”). Agar musiqa asari uch bo‘limdan iborat bo‘lsa, uning keyingi qismi aynan birinchi qismning qaytarilishi bo‘lsa, unday qaytarilish yozilmaydi, uning o‘rniga: **Da capo al Fine** yoki qisqartirilib, **D.C.al Fine**, yoki oddiy qilib **Da capo (D.C)** deb yoziladi, u boshidan oxirigacha qaytarishni bildiradi. Bunda Fine so‘zi (tamom) qaytariluvchi qismning oxirida bo‘ladi.

Nota yozuvini soddalashtiruvchi har xil ko‘rinishlar

a) Xor, ansambl, orkestr va vokal partiyalarida bir taktning ichida bir necha marta takrorlanuvchi notani yozish o‘rnida /// belgisi yoziladi, taktlarga raqamlar qo‘yiladi:



b) Bir takt oralig‘ida ma’lum ohang ritm shakli bir yoki bir necha marta qaytarilganda ham shu usul ishlatiladi, ya’ni takrorlanuvchi nota o‘rnida qayta yozilmasdan qovurg‘achalari cho‘zimiga teng chiziqlar bilan almashtiriladi, masalan:



v) Takrorlanuvchi tovush yoki akkord quyidagicha yoziladi:

a)



b)



g) Bir muvozanatda tez va ko‘p marta takrorlanadigan ikki va undan ortiq tovushlar yig‘indisi, tremolo bo‘ladi va quyidagicha yoziladi:



Tremoloda takrorlanuvchi tovushlar bo'lsa chamalangan tuzilmaning umumiy cho'zimi shunga mos nota bilan ifodalanadi, chiziqlar esa tuzilmaning qaysi cho'zimlarda ijro etilishini ko'rsatib turadi.

d) Ma'lum bir tovushni ikki oktavada ijro etish talab qilinsa notaning ustiga, notaning ostiga 8 raqami qo'yiladi. Bu esa mazkur tovushni ikki oktavada ijro etilishini ko'rsatadi masalan:

Yozilishi 	Ijro etilishi 
Yozilishi 	Ijro etilishi 

Tovushlarni uzluksiz ikki oktavada ijro etish talab qilinganda: yuqoridan bo'lsa **all 8 va** va pastdan bo'lsa, **all 8 va bassa** belgisi yozib qo'yiladi.

Tayanch iboralar

Kalit, skripka (sol) kaliti, bas (fa) kaliti, do kaliti, al't kaliti, tenor kaliti, qo'shimcha chiziqlar, Tovush kuchi, dinamika, dinamik belgilar, kuyning ko'tariluvchi va quyilashtiruvchi harakatini ifodalash, muttasil kuchlilik darajasini belgilovchi, muttasil o'zgaruvchi kuchlilikni ifodalovchi va kuchlilik darajasini o'zgartirish uchun qo'llaniladigan belgilar, Nota yozuvida cho'zimlarni uzaytiruvchi qo'shimcha belgilar, nuqta, ikki nuqta, liga, fermato, Pauzalar, butun pauza, yarim pauza, chorak pauza, sakkiztalik pauza, o'n oltitalik pauza, o'ttiz ikkitalik pauza, nuqtalar, ko'p ovozli musiqa, nota tayoqchalari, akkolada, to'rt ovozli xor musiqasi, qo'sh tovushlar va akkordlar, maxsus qavs, birlashtiruvchi to'g'ri qavs, partitura, Bir oktava yuqoriga yoki pastga ko'chirish belgisi, repriza, birinchi vol'ta, *da capo al fine*, *fine*, *segno*, *Dal segno al fine*, *Da capo al Segno* *poi coda*, *tremolo*, tovushni ikki oktavada ijro etish belgisi, *all 8 va*, *all 8 va bassa*.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar


1. Nota yozuvi deb nimaga aytiladi?
2. Tovushlarning xilma-xil cho'zimi qanday ifodalanadi?
3. Tovushlarning asosiy cho'zimlarini ifodalovchi barcha notalarni aytib bering.
4. Nota yo'li deb nimaga aytiladi va ular qanday sanaladi?
5. Boshlang'ich chiziq nima?
6. Nota yo'lida notalar qanday tartibda joylashadi?

7. Qo'shimcha chiziqlar nima va ular qaysi tartibda sanaladi?
8. Nota yo'lida nota tayoqchalarini qo'yish tartibi qanday?
9. Nota tayoqchalari ayrim notalarga qanday qo'yiladi va notalar birlashganda qanday qo'yiladi?
10. Kalit nima?
11. Musiqa amaliyotida qaysi kalitlar ko'proq qo'llaniladi?
12. Sol kalitida notalar qanday joylashadi va fa kalitidachi?
13. Fortepiano, skripka va violonchel uchun notalar qaysi kalitlarda yoziladi?
14. Notalar qaysi asboblarda uchun alt va tenor kalitida yoziladi?
15. Alteratsiya belgilari deb nimaga aytiladi?
16. Alteratsiya belgilari nota yo'lining qayeriga yoziladi va joylashgan o'rinlariga qarab qanday ataladi?
17. Cho'zimlarni uzaytiruvchi belgilar qaysilar va ularning ahamiyati nimada?
18. Pauza nima va uning davom etishi qanday o'lchanadi?
19. Pauzalar qanday o'rinlarda va qanday yoziladi?
20. Fortepiano uchun mo'ljallangan musiqa asari qanday yoziladi?
21. Bir nota yo'lida ikki ovozni qanday yoziladi?
22. Fortepiano ishtirok etmaydigan xilma-xil tartibli ansambllar uchun mo'ljallangan musiqa qanday yoziladi?
23. Akkolada nima?
24. Fortepiano bilan ovoz yoki asboblarda uchun mo'ljallangan musiqa qanday tartibda yoziladi?
25. Uch ovozli va to'rt ovozli xor musiqasi notalari qanday yoziladi?
26. Orkestr ansambl va xor uchun mo'ljallangan musiqaning yozilish shakli qanday ataladi?
27. Nota yozuvini qisqartirish uchun qanday belgilar ishlatiladi?
28. Tovushlar cho'zimi qanday belgilar bilan yoziladi?
29. Butun yarim chorak sakkiztalik cho'zimlarni tushuntiring tovushlar cho'zimini ifodalovchi yana qanday belgilar bor?
30. Brevis notasini izohlang?

3-MAVZU. RITM. METR. ODDIY METR

Reja:

- 1.Ritm tushunchasi
- 2.Cho‘zimlarning asosiy va erkin bo‘linishi.
- 3.Metr, hissa, takt tushunchalari.
- 4.Oddiy metr va o‘lchovlar. Nota cho‘zimlarining oddiy taktlarda turkumlanishi.



Ritm tushunchasi

O‘zaro bog‘lanib izchil kelgan tovushlar cho‘zimi **ritm** deyiladi. Musiqada tovushlar cho‘ziminin ketma-ket kelishi natijasida ular ma’lum vaqt ichida almashinib turadi. Musiqiy tovush va pauzalarning muayyan tartibda bog‘langan cho‘zimlari birlashib ritmik turkum (usullar) hosil qiladi. Musiqa asarining umumiy ritmi ana shu ritmik turkumning yig‘indisidan tarkib topadi:


Pianino

J.Najmiddinov musiqasi
M.Zayniddinova she’ri


Allegretto



Ritmik turkumlari :



Ritmik turkumlar.




Cho‘zimlarning asosiy va erkin bo‘linishi.

1.Asosiy (juft bo‘linadigan). Bu haqda avvalgi mavzularda aytilgan edi, ular butun, yarimtalik, choraktalik, sakkiztalik (nimcharok) o‘n oltitalik va hokazo.


2.Asosiy cho‘zimlarni istalgan teng qismlarga erkin shartli bo‘lish natijasida erkin bo‘linishlar hosil bo‘ladi. Ushbu bo‘linishlar nomlari oddiy intervallar

nomlaridan olingan. Bular qatoriga eng ko'p uchraydigan quyidagi erkin bo'linishlar kiradi :

a) **Triol**- asosiy nota cho'zimining ikki qism o'rniga uch qismga bo'linishidan hosil bo'ladi. Nota yozuvida triol hosil qiluvchi notalar guruhiga 3 raqamli bir chiziq yoki qavs bilan bog'lanadi, masalan:



b) **Kvintol**- asosiy cho'zimni to'tr qism o'rniga besh qismga bo'linishidan hosil bo'ladi. Nota yozuvida kvintol hosil qiluvchi notalar to'dasi 5 raqamli bir chiziq yoki qavs bilan bog'lanadi. Masalan:



c) **Sekstol** - asosiy cho'zimni besh qism o'rniga olti qismga bo'linishidan hosil bo'ladi. Sekstol hosil qilgan notalar to'dasi to'g'ri chiziq yoki qavs bilan bog'lanib, ostiga yoki ustiga 6 raqami qo'yiladi, masalan:




d) **Septol** - asosiy cho'zimni olti qism o'rniga yetti qismga bo'linishidan hosil bo'ladi. Septol hosil qilgan notalar to'dasi to'g'ri chiziq yoki qavs bilan bog'lanadi, ostiga va ustiga 7 raqami qo'yiladi, masalan:



e) Yoniga nuqta qo'yilgan asosiy cho'zimlarning 2, 4 qismga bo'linishidan duol, kvartol hosil bo'ladi:

1).**Duol** - yoniga nuqta qo'yilgan asosiy cho'zimning ikki qismiga bo'linishidan hosil bo'ladi, :



2) **Kvartol** - yoniga nuqta qo'yilgan asosiy cho'zimning to'rt qismga bo'linishidan hosil bo'ladi:



Cho‘zimlar turkumiga pauza ham kiradi va turkumdagi cho‘zimlarga teng bo‘ladi:



Asosiy cho‘zimlarning bulardan ham maydaroq qismlarga erkin bo‘linishi kam uchraydi. Masalan: 9, 11 va undan ham ko‘p tovushlardan tuzilgan turkumlar ham bo‘ladi. Ayrim erkin bo‘lingan cho‘zimlarga misollar:

Rumin xalq kuyi

A.Grinshduni

Largo

Allegro

Metr, hissa, takt tushunchalari


Musiqada tovushlar ma’lum bir vaqt davomida yangraydi. Tovushlarning ma’lum bir vaqtda teng hissalariga bo‘linib almashinib turishi musiqada bir tekis, ravon harakatni hosil qiladi, (tovushlarning bunday tekis harakatini **pulsatsiya** deyiladi). Tovushlarning ana shu vaqtli harakati paytida ayrim hissalar **urg‘usi** ajralib turadi. Bunday urg‘ular **zarb** (aksent) deyiladi. Zarb tushadigan hissalar kuchli hissalar, zarb tushmaydigan hissallarni esa kuchsiz hissalar deb ataladi. Kuchli va kuchsiz hissalarining bir tekis almashinib turishi **metr** deyiladi. Metr

hissalari xilma – xil cho‘zimlarda bo‘lishi mumkin. Metr hissasiining ma‘lum bir cho‘zimdagi ifodalanishi **o‘lchov** deyiladi.

Nota yozuvida o‘lchovlar matematikaviy ifoda kasr ko‘rinishida yozilgan ikki raqam $\frac{2}{4}$ bilan yoziladi.

Kasr chizig‘ida yozilgan raqamlarning yuqoridagisi metr hissalarini miqdorini anglatadi, ostida yozilgan raqam har bir metr hissasiining qanday cho‘zimda ifodalashini anglatadi. O‘lchovlar kalit yonida alteratsiya belgilaridan so‘ng qo‘yiladi.

Masalan :



Musiqasi asarining bir kuchli hissasiidan ikkinchi bir kuchli hissasiigacha bo‘lgan oralig‘i **takt** deyiladi. Nota yozuvida har bir takt nota yo‘lini ko‘ndalang kesib o‘tgan vertikal chiziq bilan ajratiladi, bu vertikal chiziq **takt chizig‘i** deyiladi. Agar musiqasi asari kuchsiz hissasiidan boshlansa, asar boshidan to‘liq bo‘lmagan takt hosil bo‘ladi, bunga **takt oldi** deyiladi. Takt oldi, odatda umumiy takt cho‘zimining yarmidan oshmasligi kerak. Taktoldi musiqasi asarining o‘rtasida ham, uning istalgan bir qismi boshlanishida ham kelishi mumkin. Musiqasi asari oxirida yoki uning biror qismidan so‘ng ikkita takt chizig‘i qo‘yiladi. Taktoldi bilan boshlanadigan musiqasi asari yoki uning biror bo‘lagi to‘liq bo‘lmagan takt bilan tamomlanadi va u takt oldini to‘ldiradi.




Oddiy metrlar va o‘lchovlar.

Nota cho‘zimlarining oddiy taktlarda turkumlanishi

Zarblari har bir hissasiidan keyin tekis takrorlanib turadigan yoki bir kuchli va bir kuchsiz hissalaridan tarkib topgan metrlar **oddiy metrlar** deb aytiladi. Ikki hissali va uch hissali taktlar ya‘ni bir kuchli hissasi va bir kuchsiz hissasi mavjud bo‘lgan taktlar **oddiy taktlar** deyiladi. Ularning o‘lchovlari ham shu xilda bo‘lsa, **oddiy o‘lchovlar** deyiladi. Takt hissalarini cho‘zimlari turlicha: yarimtalik, choraktalik, nimchoraktalik hatto butun, o‘n oltitalik, o‘ttiz ikkitalik cho‘zimda bo‘lishi mumkin. Taktda hissalar miqdorini sonini va ularning cho‘zim miqdorini takt o‘lchovi belgilaydi.

Ikki hissali o'lovlar :



Takt hissalarini cho'zimiga bog'liq bo'lgan holda, ikki hissali taktlarda zarblarning joylashuvi hamisha bir xil bo'ladi. Takt hissalarini cho'zimiga bog'liq bo'lmagan holda

Uch hissali o'lovlar:



Takt hissalarini cho'zimiga bog'liq bo'lmagan holda uch hissali taktlarda zarblarning joylashuvi bir xil bo'ladi, har takt ichida ritmlar guruhlangan, cho'zimlar guruhlanishi deyiladi. Oddiy o'lovlardagi cho'zimlar guruhlangan taktni asosiy hissalarini bir-biridan ajratiladi.




Oddiy o'lovlardagi cho'zimlar guruhlanishida quyidagi istisnolarga yo'l qo'yiladi :

1. Bir xil bo'lgan barcha cho'zimlar bir umumiy chiziq, qovurg'acha bilan birlashtiriladi.



Taktni nihoyat kichik hissali 3/8 o'lovda quyidagi guruhlanishga yo'l qo'yiladi :



2. Cho'zimi butun bir taktni egallagan tovush ligasiz bir nota bilan yoziladi :



3. Agar nota metr hissasi boshlab beradigan nota bo'lsa, uning yoniga nuqta qo'yiladi.



Tayanch iboralar

Ritm, metr, ritmik turkumlar, juft bo‘linadigan cho‘zimlar, erkin bo‘linishlar, triol, kvintol, sekstol, septol, duol, kvartol, pauza, 9, 11 va undan ham ko‘p hissali turkumlar, musiqaviy zarb, metr, o‘lchov, takt, takt chizig‘i, takt oldi, musiqada bir tekis ravon harakat, kuchli hissalar, kuchsiz hissalar, metrdagi hissalar soni, Oddiy metrlar va o‘lchovlar, cho‘zimlar turkumlanishi, ikki hissali metrlar, uch hissali metrlar, alla breve belgisi, taktning asosiy hissalar, pauzalar turkumlanishi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Ritm deb nimaga aytiladi?
2. Ritmik turkumlarni ta’riflab bering.
3. Asosiy cho‘zimlarga qaysilar kiradi?
4. Erkin bo‘linish deganda nimani tushunasiz?
5. Triol’ qanday ijro etiladi?
6. Kvartol’ qanday yoziladi?
7. Septol’da notalar qay tartibda joylashadi?
8. Kvintol’ nechta notadan iborat va u qay tarzda ijro etiladi?
9. Hissalar urg‘usi qanday ataladi?
10. Zarb deb nimaga aytiladi?
11. Kuchli hissalar qaysilar kiradi?
12. Kuchsiz hissalar deganda qaysi zarblar nazarda tutiladi?
13. Takt deganda nimani tushunasiz?
14. Qanday chiziq takt chizig‘i deyiladi?
15. Takt oldi qay holatlarda namoyon bo‘ladi?
16. Asar oxirida qanday belgi qo‘yiladi?
17. Asarda, takt chizig‘i o‘rnida ikkita ingichka chiziq qo‘yilsa, nimani anglatadi?
18. O‘lchovdagi yuqori va pastki raqamlar nimani bildiradi?
19. Bir kuchli hissadan ikkinchi kuchli hissagacha bo‘lgan oraliq qanday ataladi?
20. O‘lchov deb nimaga aytiladi?
21. Taktning hajmi nimaga bog‘liq bo‘ladi?
22. Metr deb nimaga aytiladi?
23. Oddiy o‘lchov deb nimaga aytiladi?
24. Kuchli hissalar har bir hissadan keyin tekis takrorlanib turadigan metrlar qanday metrlar deyiladi?
25. Cho‘zimlar turkumlanishi deb nimaga aytiladi?
26. *alla breve* o‘lchovi qanday sanaladi?
27. Pauzalar qay tartibda turkumlanadi?

4-MAVZU. METRNING MURAKKAB VA BOSHQA TURLARI. TEMP

Reja:

1. Murakkab metr va o'lovlar.
2. Aralash metr va o'lovlar,
3. O'zgaruvchan o'lovlar.
4. Sinkopa va uning turlari.
5. Vokal musiqasida nota cho'zimlarini turkumlash.
6. Temp va uning turlari.




Murakkab metr va o'lovlar.

Bir xildagi oddiy metrlarning qo'shilishi natijasida **murakkab metrlar** hosil bo'ladi. Murakkab metr ikki va undan ham ko'proq oddiy metrlardan tarkib topishi mumkin. Shuning uchun ham murakkab metrlar vaqti-vaqti bilan uchraydigan bir necha kuchli hissaga egadir. Har doim murakkab metrdagi kuchli vaqt hissasining soni uning tarkibidagi oddiy metrlar soniga teng bo'ladi. Murakkab metr birinchi hissasining zarbi qolgan zarblarga nisbatan kuchliroq bo'ladi va shuning uchun bu hissaga **kuchli hissa**, unga nisbatan kuchsizroq bo'lgan hissaga **kuchsiz hissa** deyiladi. Murakkab metrlarni ifodalovchi barcha o'lovlar **murakkab o'lovlar** deyiladi. Shuning uchun murakkab metrlarning tarkibi borasidagi fikrlar murakkab o'lovlarga ham taalluqli.

Musiqasi asarlarida murakkab metrlarni ifodalovchi o'lovlarga quyidagi murakkab o'lovlar kiradi:

$$\frac{6}{4}(\frac{3}{4} + \frac{3}{4}); \frac{6}{8}(\frac{3}{8} + \frac{3}{8}); \frac{6}{16}(\frac{3}{16} + \frac{3}{16}); \frac{9}{4}(\frac{3}{4} + \frac{3}{4} + \frac{3}{4}); \frac{9}{8}(\frac{3}{8} + \frac{3}{8} + \frac{3}{8}); \frac{9}{16}(\frac{3}{16} + \frac{3}{16} + \frac{3}{16});$$
$$\frac{12}{8}(\frac{3}{8} + \frac{3}{8} + \frac{3}{8} + \frac{3}{8}); \frac{12}{16}(\frac{3}{16} + \frac{3}{16} + \frac{3}{16} + \frac{3}{16}); \text{va h.k.}$$

Musiqada ko'p qo'llaniladigan o'lovlar :



Murakkab o'lovlarda guruhlanish shundan iboratki, ularni tashkil etgan oddiy o'lovlar ritmik guruhlariga birlashtirilmasdan alohida-alohida guruhlariga birlashtirildi. Agar biror tovush murakkab taktni butunligicha egallasa, umumiy cho'zimli tovush shaklida biror nota bilan yoziladi. Ba'zan cho'zimli oddiy

taktlarga teng keladigan liga bilan birlashtirilgan notalar yordamida ham yoziladi. Bu oxirgi usul murakkab o'lchovlarni guruhlash qoidasiga mos keladi.

Aralash metr va o'lchovlar.

Oddiy metrlarning qo'shilishidan murakkab metrlar hosil bo'ladi., har-xil oddiy metrlarning qo'shilishidan aralash metrlar hosil bo'ladi. Ikki va undan ortiq har-xil oddiy metrlarning qo'shilishidan tarkib topgan metrlar **aralash metrlar**, ularni ifodalovchi o'lchovlar esa **aralash o'lchovlar** deyiladi. Aralash metr va o'lchovlar qatoriga besh hissali, yetti hissali va ayrim vaqtlarda o'n bir hissali taktlar ham uchraydi. Aralash metrlar oddiy va murakkab metrlarga nisbatan besh va olti hissali taktlar bir muncha kengroq qo'llanadi.

Besh hissali metrlar quyidagicha hosil bo'ladi;

$$\frac{5}{4} = (\frac{2}{4} + \frac{3}{4}); \frac{5}{8} = (\frac{2}{8} + \frac{3}{8}); yoki \frac{5}{4} = (\frac{3}{4} + \frac{2}{4}); \frac{5}{8} = (\frac{3}{8} + \frac{2}{8});$$

Yetti hissali metrlar;

$$\frac{7}{4} = (\frac{3}{4} + \frac{4}{4}); yoki \frac{7}{4} = (\frac{4}{4} + \frac{3}{4});$$

Aralash metr va o'lchovlarning kuchli hissalarini ular tarkibidagi oddiy o'lchovlar soniga bog'liq, agar aralash metr o'lchov ikkita oddiy o'lchovdan tuzilsa, birinchisi kuchli va ikkinchisi nisbiy kuchli hissa deyiladi.


Aralash metr va o'lchovlar ayrim xususiyatlari bilan murakkab metr va o'lchovlardan farq qiladilar. Aralash metr va o'lchovlarning tuzilishi ular tarkibidagi oddiy o'lchovlarning ketma-ket kelishiga bog'liqdir, bu esa kuchli va nisbiy kuchli hissalarining o'rniga ham ta'sir qiladi. Masalan, agar besh hissali ya'ni $\frac{5}{4}$ o'lchovi tarkibidagi oddiy o'lchovlar $\frac{3}{4} + \frac{2}{4}$ dan hosil qilingan bo'lsa, unga taktning kuchli hissasi birinchi hissaga, navbatdagi nisbiy kuchli hissa taktning to'rtinchi hissasi to'g'ri keladi;



Besh hissali metr o'lchovlar tarkibidagi oddiy o'lchovlar tartibi $\frac{2}{4} + \frac{3}{4}$ dan hosil qilingan bo'lsa, bunday hollarda taktning kuchli hissasi birinchi hissaga, nisbiy kuchli hissasi esa uchinchi hissaga to'g'ri keladi:



Yetti hissali o'lchovlar;



Yuqorida keltirilgan misolda yetti hissali metr oʻlchovlarning birinchisi bir uch hissali va ikkita ikki hissali metr oʻlchovlardan tarkib topgan. Shuning uchun ham taktning kuchli hissasi birinchi hissaga, qolgan nisbiy kuchli hissalar esa taktning toʻrtinchi va oltinchi hissalariga mos toʻgʻri kelgan. Ikkinchi misoldagi yetti hissali metr oʻlchovi avval ikkita ikki hissali, undan soʻng bir uch hissali metr oʻlchovdan tarkib topgan. Shuning uchun taktning kuchli hissasi birinchi hissaga, nisbiy kuchli hissasi esa taktning uchinchi va beshinchi hissalariga toʻgʻri kelgan. Ayrim vaqtlarda musiqa asarlari ichida aralash oʻlchov hosil qiladigan oddiy oʻlchovlarning tartibi oʻzgarib turadi. Aralash metr oʻlchovlarning nota matnini oʻqishni osonlashtirish maqsadida oʻlchovni koʻchiruvchi asosiy raqam yoniga qavs ichida aralash takt tarkibidagi oddiy oʻlchovlarning tartibi koʻrsatiladi:

$$\frac{5}{4} = (\frac{3}{4} + \frac{2}{4}); \text{ va h.k.}$$

Baʼzan taktida oddiy oʻlchovlar boshlanishini koʻrsatuvchi punktir bilan qoʻshimcha takt chizigʻi ham yoziladi. Murakkab oʻlchov choʻzimlar qanday guruhlanasa, aralash, oʻlchovli choʻzimlar ham shunday guruhlanadi. Aralash oʻlchovli choʻzimlar guruhlanishi xususiyati shundaki, aralash oʻlchovlar tarkibiga kiradigan har xil koʻrinishdagi oddiy oʻlchovlarning ritmik guruhiga teng boʻlmaydi.


Naqsh va tarona

X.Raximov



O'zgaruvchan o'lchovlar

Musiqada bir asar ijrosi davomida metrning, ayni paytda o'lchovning ham o'zgarib turish hollari uchraydi. Bunday metr o'lchovlar **o'zgaruvchan o'lchovlar** deyiladi. O'zgaruvchan o'lchovlarni barcha xalqlar musiqasida, kompozitorlarning asarlarida, shuningdek o'zbek xalq va professional musiqasida ham uchratish mumkin. O'zgaruvchan o'lchovlarning o'zgarib, almashinib turishi tekis yoki notekis bo'lishi mumkin. Agar o'lchovlar tekis almashinib tursa kalit yoniga kasr shaklida ikki raqam qo'yiladi, masalan:



Agar o'lchov almashinishi notekis bo'lsa, nota matnida o'lchovlarning har bir o'zgarishi yozib qo'yiladi:

Garduni Dugoh




Sinkopa va uning turlari


Musiqada ijrosida ritm va metr urg'ularining bir-biriga to'g'ri kelmay qolib, ritmdagi izchillikning buzilishiga **sinkopa** deyiladi. Sinkopa it.yun. suncope – qisqartirish – qattiq chalinadigan urg'uli notaning odatdagi kuchli hissadan kuchsiz hissaga ko'chishi. Sinkopa ritmda kutilmagan o'zgarish va keskinlik paydo qiladi. Sinkopa quyidagi hollarda paydo bo'ladi:

a) bir taktning so'ngi kuchsiz hissasi ikkinchi taktning kuchli hissasi bilan bog'lanib keladi;

b) taktdagi kuchli hissalar kuchliroq hissalar qo'shiladi.

Sinkopani musiqada ko'plab uchratish mumkin. U metrning kuchsiz hissasi davridagi tovushning navbatdagi kuchli hissasi bilan ham eshitilishidan hosil bo'ladi. Natijada zarb metr mana shu kuchsiz hissasi davriga o'tadi. Metrning biror hissasi davrida kuchsiz davrga to'g'ri kelgan tovush bundan keyingi davrga to'g'ri kelganda ham o'z kuchini saqlaydi.





Sinkopalarining ko‘rinishi quyidagicha :

- a) Taktaro sinkopa (ikki hissali va uch hissali taktlarda);
- b) Takt ichidagi sinkopalar (ikki hissali va uch hissali taktlar).

Sinkopa pauzadan so‘ng, zarbli hissaga to‘g‘ri keladigan joyda ham bo‘lishi mumkin. Takt ichidagi sinkopalarni yozishda cho‘zimlarni guruhlash qoidasida chetlashishga yo‘l qo‘yiladi. Odatda takt ichidagi sinkopalar kuchli va kuchsiz hissalar bir notaga birlashtirib yoziladi, ammo ayrim hollarda guruhlash qoidasiga amal qilinib liga orqali qo‘shilgan ikki nota bilan ham yoziladi. Taktaro sinkopalar bir taktdan ikkinchi bir taktda o‘tganda liga orqali ikkita nota bilan yoziladi.

Bu-ra-ti-no

A.Ribnikov musiqas



Vokal musiqasida nota cho‘zimlarini turkumlash


Vokal ijroga mo‘ljallangan musiqada cho‘zimlar turkumlanishi talaffuz etiladigan nutqning o‘ziga xosligi bo‘g‘in tarkibiga bog‘liq bo‘ladi. Bir bo‘g‘inga to‘g‘ri keladigan ayrim cho‘zimlar qo‘shni cho‘zimlar bilan turkum bo‘lib birlashmaydi. Qo‘shiq tarkibidagi bir bo‘g‘inga bir necha tovush to‘g‘ri kelganda, bu tovushlar cho‘zimi turkumlarga umumiy qoida bo‘yicha birlashtiriladi.

Misollar:

Qorbobo

Nuriddin Azizov musiqasi

Nilufar Jabborova she’ri



Temp va uning turlari

Musiqqa ijrosidagi tovushlar harakatining tezligi sur'at (temp) deyiladi. Sur'at musiqada muhim ifoda vositalaridan biri bo'lib, musiqqa asarining mazmunini ochib berishda, uni tinglovchiga ifodali yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Musiqada sur'atlar uch asosiy guruhga bo'linadi. Ular: vazmin, o'rtacha va tez sur'atlar. Sur'atni belgilash uchun asosan italyanча iboralar qo'llaniladi. Shu bilan birga so'ngi yillarda milliy kompozitorlarning asarlarida va boshqa musiqqa adabiyotlarida ijrochilar tushunishi uchun sur'atni milliy tillardagi iborada ham qo'llanila boshladi. Sur'atlarning asosiy nomlari:

Vazmin sur'atlar:

Largo	- keng
Lento	- cho'zib
Adagio	- og'ir
Grave	- juda og'ir.

O'rtacha sur'atlar:

Andante	- osoyishta, oshiqmasdan.
Andantino	- andantedan sal tezlatib.
Moderato	- o'rtacha.
Sostenuto	- salobatli.
Allegretto	- jonlanib.
Allegro moderato	- o'rtacha tez.

Tez sur'atlar:

Allegro	- tez.
Vivo	- jonliroq
Vivace	- jadal
Presto	- tez, oshiqib
Prestissimo	- juda tez.

Musiqqa asari ijrosi jarayonida asosiy sur'atlardan uzoqlashgan harakat yo'nalishini aniqlashda ayrim qo'shimcha iboralardan ham foydalaniladi :

Molto	- juda.
Assai	- nihoyat
Con moto	- harakat bilan
Com modo	- erkin
Non troppo	- unchalik tez emas

Non tanto	- u qadar tez emas
Sempre	- doimo
Meno mosso	- kamroq harakat bilan.
Piu mosso	- ko‘proq harakat bilan.

Musiqasi asarlarining yanada ta’sirchan va ifodali bo‘lishi uchun umumiy harakatni sekin – asta tezlatish yoki susaytirish belgilari ham qo‘llaniladi. Bular nota matnida quyidagi so‘zlar bilan yoziladi.

a) Susaytirish uchun

Ritenuto	- saqlanibroq.
Ritardando	- kechikibroq.
Allargando	- kengaytirib
Rallentando	- sekinlatib

b) Tezlatish uchun

Accelerando	- yanada tezlatib
Animando	- ruhlantirib
Stringendo	- jadalroq
Stretto	- ixchamlashtirib

Harakatni dastlabki sur’atga qaytarish uchun quyidagi iboralar ishlatiladi :

A tempo	- o‘z sur’atida
Tempo primo	- dastlabki sur’atda
Tempo I ^a	- dastlabki sur’atda
I Istesso tempo	- o‘sha sur’atda

Musiqada qo‘llaniladigan barcha sur’atlarning atalishi taxminiy yoki shartlidir. Sur’atlarni yanada aniqroq belgilab olish uchun **metronom** degan asbobdan foydalaniladi. Meltsel (1772-1838) shu metronomning ixtirochisi. 1816-yilda Parijda metronomni ishlab chiqaruvchi korxona quradi. Meltsel ixtiro metronomi keng qo‘llaniladigan metronomlardan hisoblanadi. Musiqasi asari ijro sur’atini metronom bilan aniqlashda M.M. ya’ni “Meltsel metronomi” so‘zining qisqartirilgan so‘zi yoziladi.

Metronom mayatnik yordami bilan bir minutda talab qilingan zarblarni sanaydi. Uning tezligi ko‘chma posangi vositasida to‘g‘rilab turiladi. Mayatnikning har bir urishi metrning bir butun choraktalik, nimchoraktalik va shu kabi cho‘zimlarning hissalariga teng bo‘ladi.

Kompozitor o‘z asarlarida oldin so‘z iborasini, so‘ngra metronom ko‘rsatgan sur’at belgisini yozadi, masalan:

Allegro M.M.  =180 yoki  =180.

Ijrochi tomonidan muallif ko'rsatgan sur'atning bir muncha o'zgartirilishi ijrochining shaxsiy didiga bog'liqdir. Odatda sur'atni bir muncha o'zgartirish ijrochining badiiy tomoniga ta'sir qilmaydi, chunki ijrochilik mahorati obrazni ochib berishga qaratiladi.

Dirijyorlik qoidalari

Musiqiy ta'lim muassasalarida o'qimoqchi bo'lgan yoshlarimiz soni yil sayin ko'paymoqda. Shu jumladan bugungi kunda juda murakkab va ko'pqirrali san'atga aylangan dirijyorlikka qo'l urish istagida bo'lganlar ham oz emas.

Mazkur mavzu havaskor orkestr va xor dirijyorlari, maxsus musiqa maktab va litsey o'quvchilari va talabalariga dirijyorlik texnikasi o'lchov hissalarini yaxshiroq tushunish, uning orkestr va xor jamoasini boshqarishdagi umumiy jarayonida tutadigan o'rnini ko'rsatish, keyinchalik mustaqil ishlashida zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yordam berishga qaratilgan. Yaxshi dirijyor iste'dod, bilim, iroda kuchi, eshitish qobiliyati va tajriba kabi ko'plab fazilatlarga ega bo'ladi.

Orkestr, xor va yirik ansambl uchun yozilgan musiqa asari ijrochiligini boshqaruvchi shaxs dirijyor deb ataladi.²

Qo'shiq aytilganda yoki solfedjiyoda dirijyorlik deb quyidagilar nazarda tutiladi: birinchidan hisoblab turish, ya'ni takt hissalarini almashuvi va ularning cho'zim vaqtini ko'rsatib turish, ikkinchidan mazkur asar tempini aniqlash.

Dirijyorlik qoidalari ikki, uch va to'rt hissali qo'l harakatlariga asoslanadi.


Ikki hissaga dirijyorlik qilish

Barcha ikki hissali o'lchovlar ikki qo'l siltovi bilan pastga va yuqoriga dirijyorlik qilinadi.

$\frac{2}{2}$; $\frac{2}{4}$; $\frac{2}{18}$; $\frac{2}{2}$ o'lchovdagi har bir harakatga yarimtalik (♩) nota to'g'ri keladi. $\frac{2}{4}$ o'lchovda har bir harakatga choraktalik (♩) nota to'g'ri keladi. $\frac{2}{8}$

o'lchovda har bir harakatga 8 talik (♩) nota to'g'ri keladi va h. k. $\frac{2}{4}$ takt berish "Ikkiga" hisoblanadi. U ikkita hisobli ritmik davomiylikka ega - 2 ta chorak bundan birinchisi - kuchli, zarbli, ikkinchisi - kuchsiz, zarbsiz. Har ikkala chorak tegishli qo'l harakatlari bilan belgilanishi kerak.



² Dirijyor fransuzcha "diriger" so'zidan olimgan bo'lib – "boshqarish", "yo'lga solish" degan ma'nolarni anglatadi.



Uch hissaga dirijyorlik qilish

Barcha uch hissali oddiy o'lchovlar uch qo'l siltovi bilan pastga, o'ngga va yuqoriga tomon dirijyorlik qilinadi.


$\frac{3}{2}$; $\frac{3}{4}$; $\frac{3}{8}$; $\frac{3}{16}$. Eng qulay va manual texnika bo'yicha eng osoni - uch hissali o'lchov hisoblanadi. Oddiy uch hissali o'lchov uch hisobli ritmik davomiylikka, uch chorakka ega. Eng kuchlisi 1-chi hissa, nisbatan kuchsiz 2-chisi va eng kuchsizi 3-chisidir.



To'rt hissaga dirijyorlik qilish

To'rt hissali o'lchovlar to'rt siltov bilan pastga, chapga, o'ngga va yuqoriga tomon dirijyorlik qilinadi. To'rt hissali o'lchov quyidagi o'lchovlarga takt berishda


qo'llaniladi: $\frac{4}{2}$; $\frac{4}{4}$; $\frac{4}{8}$. Bu o'lchovlarda dirijyorlik qilishga tayyorgarlik ko'rilganda qo'llar orasidagi masofaga e'tibor qaratish kerak. Ya'ni 2-chi hissani olib kirish chizig'i bilan to'ldiriladigan bo'limiga diqqat qilish kerak. To'rt hissali o'lchov to'rtta harakatdan iborat kuchli - pastga, kuchsiz - chapga, nisbatan kuchli - o'ngga, eng kuchsizi - tepaga (boshlang'ich nuqttagacha qaratiladi): o'lchovlardagi qo'l harakatlari balandligi va uzoqligi jihatidan bir xil bo'lishi lozim.



Besh hissaga dirijyorlik qilish

$$\frac{5}{4} \text{ yoki } \frac{5}{8}$$

Besh hissali o'lchovlar sekin sur'atda boshqariladi. Besh hissali o'lchov turlari o'zida beshta hisob birligini mujassam etadi va ikkita oddiy o'lchov $2 + 3$ dan iborat bo'ladi. Bu aralash o'lchovda hissalar guruhlanishi $2 + 3$ yoki $3 + 2$ bo'lishi mumkin. Bu sxemalar ketma-ketlik tarkibi musiqaning qurilishi, garmoniyasi (uyg'unligi) va musiqa ma'nosiga ko'ra alohida ajratib ko'rsatiladigan o'rinlarga bog'liq bo'ladi. $2 + 3$ hissali metrlar uzviyligi mantiqiy urg'ular birinchi va uchinchi hissalariga to'g'ri kelganda qo'llaniladi. Agar birinchi va to'rtinchi hissaga urg'u berilsa, unda ketma-ketlik teskari bo'ladi, avval 3, keyin 2 hissali sxema ($3 + 2$). Bunga muvofiq ravishda "Beshtalik" dirijyorlik o'lchovi turlicha bo'lishi mumkin. $2 + 3$ guruhlanishda birinchi va uchinchi kuchli va nisbatan kuchli hissalar bo'lib, ikkinchi, to'rtinchi va beshinchilari esa kuchsiz hisoblanadi.



Tayanch iboralar

Murakkab metrlar, murakkab o'lchovlar, murakkab o'lchovli taktlarda cho'zimlarning turkumlanishi, kuchli hissa, nisbatan kuchli hissa, murakkab o'lchovlarda turkumlash, aralash metr va o'lchovlar, cho'zimlarning

turkumlanishi, aralash metrilar, aralash o'lchovlar, taktning kuchli va nisbatan kuchli hissalar, o'zgaruvchan o'lchovlar, metr, o'lchov, o'lchovning tekis almashishi, o'lchovning notekis almashishi, polimetriya, sinkopa, vokal musiqada turkumlanish, urg'u orqali izchillik o'zgarishi, takt aro sinkopalar, takt ichidagi sinkopalar, temp, vazmin, o'rtacha va tez templar, harakat yo'nalmasini aniqlovchi qo'shimcha iboralar, sekin-asta tezlatish va susaytirish belgilari, harakatni dastlabki sur'atiga qaytarish belgilari, Meltsel metronomi, dirijyor.


Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Notalar murakkab o'lchovlarda qanday guruhlanadi?
2. Nisbiy kuchli hissa nima?
3. Aralash metr va o'lchovlarni ta'riflang, ulardan qaysilari eng ko'p qo'llaniladi?
4. Notalarning aralash o'lchovlarda guruhlanish xususiyatlarini tushuntirib bering?
5. O'zgaruvchan o'lchovlarni aytib bering, o'lchovlar almashuvini qayerda qanday belgilanadi?
6. Sinkopa nima? Musiqada sinkopaning qanday asosiy shakllari uchraydi?
7. Vokal musiqasida notalar qanday guruhlanadi?
8. Sur'at nima? Sur'atlar qanday asosiy turkumlarga bo'linadi?
9. Sur'atni ifodalovchi asosiy iboralarni aytib bering?
10. Metronom nima?
11. Meltsel haqida nima bilasiz?
12. Dirijyorlik qoidalarini ko'rsating.
13. Oddiy, murakkab va aralash o'lchovlarda dirijyorlik sxemalarini ko'rsating.

5-MAVZU. LAD. MAJOR LADI VA TONALLIKLARI

Reja:

- 1.Lad tushunchasi.
- 2.Major ladi tuzilishi va gammasi.
- 3.Turg'un va noturg'un pog'onalar.
- 4.Tonallik tushunchasi.
- 5.Major tonalliklari kvinta davrasi.
- 6.Garmonik va melodik major.



Lad tushunchasi.

Musiqi asarlarida kuyni hosil qilgan tovushlar o'zaro munosabatda bo'ladi, musiqiy tovushlarning bunday o'zaro munosabati musiqaning yoki kuyning rivojlanishida yaqqol namoyon bo'ladi. Bunda ayrim tovushlar barcha tovushlar orasida ajralib turadi, u tayanganlik xususiyatiga ega bo'ladi. Kuy ham mana shu tayanch tovushlarning birortasida tugallanadi.

Qo'g'irchoq

K.Abdullayev



Keltirilgan misolning tayanch tovushlari do, mi, sol. Tayanch tovushlar **turg'un tovushlar** deyiladi. Tayanch tovushlarda tugallangan kuygina tinglovchida tinchlik, turg'unlik taassurotini qoldiradi. Ana shu turg'un tovushlardan birortasi boshqalariga qaraganda keskin ajralib turadi va asosiy tayanch vazifasini bajaradi, bunday turg'un tovush **tonika** deyiladi. Yuqorida keltirilgan misolda do tovushi tonika hisoblanadi. Kuyning umumiy yo'nalishini shakllantirishda ishtirok etadigan boshqa tovushlar turg'un tovushlarga nisbatan ancha kuchsiz bo'lib eshitiladi, shuning uchun ham ular noturg'un tovushlar nomini olgan. Barcha noturg'un tovushlar turg'un tovushlarga intiladilar (tortiladilar). Turg'un tovushlarga tomon tortilish holati sekunda oralig'idagi noturg'un tovushlar uchun juda xarakterlidir.

Hamma qo'shiqlarni aytib berdik

Rus xalq qo'shig'i



Bu misoldagi sol, mi, do (ular ichida ">" belgisi bor turg'un, tayanch tovushlarga kiradi, noturg'un tovushlar esa, bu tovushlarga quyidagi tartibda tortiladi: sol tovushiga lya, mi tovushiga fa va do tovushiga re tortiladi. Do tovushi mazkur kuyning tonikasidir.

Yuqoridagi misolda re tovushi do tovushiga (tonikaga) o'tadi va natijada noturg'un tovush turg'un tovushga aylanadi. Qayd etilganlardan musiqada tovushlar balandligining o'zaro munosabati ma'lum bir tizimga bo'ysundirilganligini tushunish qiyin emas.

Turli balandlikda bo'lgan tovushlarning o'zaro aloqasi, barqaror tovushlarning bir tonikaga intilishi **lad** deb ataladi.

Biror kuy yoki musiqiy asar ma'lum bir ladga asoslanadi. Lad musiqa tovushlari balandlik munosabatini tartibga keltiradi va musiqaning boshqa ifoda vositalari bilan birga uning mazmuniga mos keladigan ma'lum bir xususiyatni yaratib beradi.


Major ladi tuzilishi va gammasi

Musiqa amaliyotida asosan ikki xil lad ko'proq qo'llaniladi, bular major va minor ladlaridir. Turg'un tovushlari uchta tovushdan iborat bo'lib major uchtovushligini hosil qilgan yetti pog'onali lad **major ladi** deyiladi. Uchtovushlikni hosil qiluvchi turg'un tovushlar (ular bir vaqtda yoki birin-ketin eshutilishlari mumkin) tertsiya bo'yicha joylashadilar, katta tertsiya pastgi va o'rta tovushlar orasida, kichik tertsiya esa, o'rta va yuqori tovushlar orasida joylashadi. Major uchtovushligining eng pastki va eng yuqori tovushlar oralig'ida sof kvinta intervali hosil bo'ladi.

Tonallikning tonikasidan tuzilgan major uch tovushligi **tonika uch tovushligi** deyiladi.


Noturg'un tovushlar turg'un tovushlar orasida yonma-yon joylashadilar. Major ladi yettita tovushdan iborat bo'ladi.

Lad pog'onalarining bir tonikadan navbatdagi oktavaning tonikagacha bo'lgan pog'onama-pog'ona ketma-ket harakati **gamma** deyiladi. Gamma hosil qiladigan tovushlarga **bosqich** deyiladi. Major lading gammasida yettita tovush bor. Bu tovushqatorning bosqichlari rim raqamlari bilan belgilanadi:



Eslatma: Lad pogʻonalarining musiqiy sistemadagi bosqichlar bilan almashtirmaslik kerak. Musiqiy sistema tovushqatorlari raqam bilan belgilanmay butun musiqiy diapazon oraligʻida maʼlum bir balandlik nisbati tartibida joylashgan tovushlar tuzilmasidan tarkib topganlar.

Major gammasining bosqichlari birin-ketin keladigan sekundalar hosil qiladi. Bosqichlar va sekundalarning joylashuvi quyidagicha boʻladi:



Bosqichlari yuqoridagidek, yaʼni 1 ton, 1 ton, 1/2 ton, 1ton, 1ton, 1ton, 1/2ton tartibida joylashgan gamma tabiiy **major gammasi** deyiladi. Ladning har bir bosqichi raqam bilan yozilishidan tashqari mustaqil nomga ham egadir.

I bosqich-**tonika**(I) (yun.tonos-taʼkidlash),

II bosqich –**pastga boshlovchi tovush**, nomi yoʻq;

III bosqich-**medianta** (lot.mediantis-teng ikkiga boʻluvchi),


IV bosqich – **subdominanta** (S) – subdominanta – pastki hukmron),

V bosqich –**dominanta** (D)-(lot, dominans-hukmron),

VI bosqich – **submedianta** (pastki medianta),

VII bosqich –**yuqoriga boshlovchi tovush**.

Dominanta bosqichi oʻz tonikasidan sof kvinta yuqorida joylashadi. Tonika bilan dominanta orasida uchinchi bosqich bor, shuning uchun u medianta (oʻrtacha) deb nomlanadi. Subdominanta bilan tonika orasida joylashgan bosqich subdominanta nomini olgan. Quyida bosqichlarning joylashuvi koʻrsatiladi.



Boshlovchi tovushlar tonikaga tomon tortilishiga qarab nomlanganlar. Pastki boshlovchi tovush yuqoriga tomon, yuqoridagi boshlovchi tovush esa pastga tomon intiladi;



Turg'un va noturg'un pog'onalar

Major uchta turg'un tovushdan – I, III, V bosqichlardan iborat. Bu bosqichlarning turg'unlik darajasi bir xil emas. Birinchi bosqich tonika asosiy tayanch bosqichdir va shuning uchun ham boshqa bosqichlardan turg'unroqdir. III va V bosqich esa tonika darajasida turg'un emas.


Major ladining II, IV, VI va VII bosqichlari turg'un bosqichlar emas. Ularning turg'un emaslik darajasi ham har-xildir. Bu daraja;

- 1) turg'un va noturg'un tovushlar oralig'iga qarab va
- 2) turg'un tovushlarning tortilish darajasiga qarab turlicha bo'ladi.

Turg'un tovushlardan yarim ton uzoqlikda joylashgan VII bosqichning I bosqichga, IV bosqichning III bosqichga va II bosqichning I bosqich tomon tortilishi ancha kuchlidir.

VI bosqichning V bosqichga, II bosqichning III bosqichga va IV bosqichning V bosqichga tomon tortilishi yuqoridagi bosqichlarga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Noturg'un tovushlarning tortilish tartibi quyidagicha:

Noturg'un tovushlar



Noturg'un tovushlarning yechilishiga misollar:

Turna va quyonlar

I.Akbarov



Chumchuq

S.Abramova



Tonallik tushunchasi

Tabiiy major ladini, tovushqatorning - gammaning istalgan (asosiy yoki hosila) bosqichlaridan tuzish mumkin. Albatta, bosqichlar joylashuv sistemasining shartlari saqlanib qolishi, ya'ni bosqichlar orasi 1t, 1t, 1/2 t, 1t, 1t va 1/2 bo'lishi shart.

Lad tovushlari o'rnashgan joy, balandlik **tonallik** deyiladi. Har bir tonallikning atalish nomiga asoslanadi. Tonallikning nomi lad bilan tonika iborasidan olingan, ya'ni major so'zidan kelib chiqqan. Masalan: Do major yoki C-dur (dur - qattiq harfiy sistema bo'yicha), Sol major yoki G - dur va h.k. Major ladida do tovushidan tuzilgan tonallik do **major** deyiladi. Uning tarkibiga musiqa tovushqatorlarining barcha bosqichlari kiradi.



Musiqa tovushqatorining boshqa bosqichlaridan tuzilgan major ladi tonalligi tarkibiga hosila bosqichlar ham kiradi. Hosila bosqichlar soni har qaysi tonallikda turlicha bo'ladi. Ayrim major tonalliklarida ko'tarilgan bosqichlarga qo'llaniladi; ularni yozish uchun diyezlar qo'yish lozim bo'ladi. Ayrim tonalliklarda pasaytirilgan bosqichlar qo'llaniladi; ularni yozish uchun esa bemollar yozish kerak bo'ladi. Shuning uchun, alteratsiya belgilari bilan ifodalangan major tonalliklari diyezli va bemolli tonalliklarga bo'linadi.

Musiqa amaliyotida yettita diyezli va yettita bemolli tonalliklar qo'llaniladi. Bu tonalliklarning alteratsiya belgilari kalitdan so'ng yozilib, kalit yonida yoziladigan yoki oddiy qilib **kalit belgisi** deb ataladi.

Major tonalliklari kvinta davrasi


Yuqoriga tomon sof.5 bo'yicha tuzilgan diyezli va pastga tomon sof.5 bo'yicha tuzilgan bemolli major tonalliklarining joylashish tartibiga – **major tonalliklarining kvinta davrasi** deb aytiladi.

Bir - biridan bir kalit belgisi bilan farq qiladigan tonalliklar (ularning har birida oltita o'xshash tovushlar bo'lganligi uchun) yondosh tonalliklarga kiradilar. Diyezli do major tonalligiga sol major yondosh bo'ladi. Sol majorning birinchi bosqichi, ya'ni uning tonikasi sof kvinta yuqorida joylashgan bo'ladi:





Sol major gammasining VII bosqichi birinchi diyezli fa # bosqichiga to'g'ri keladi:

Jack and Jill



Yuqoridagi misolda sol tovushi tonika hisoblanadi. Fa# tovushining paydo bo'lishi yuqoriga tortuvchi tovushi fa# solning yuzaga kelishi bilan bog'liqdir, chunki VII bosqich bilan I bosqich oralig'idagi kichik 2 (1/2 ton) bo'lishi kerak.

Sol majordan sof kvinta yuqorida re major tonalligi boshlanadi:



Re major tonalligining VII bosqichiga tartib bo'yicha do# to'g'ri keladi.

Buvijonim

D.Omonullayev musiqasi

Yu.Suyunov she'ri

Shoshmasdan quvnoq



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir yangi gamma o'zidan oldingi tonallikning beshinchi bosqichidan tuziladi, shu yo'sinda barcha diyezli major tonalliklarini hosil qilish mumkin. Bu xildagi har bir gammaning VII bosqichida kalit yonida yoziladigan yangi diyez belgisi hosil bo'laveradi va ularning soni yettitaga yetadi. Tonallikning oxirgi chegarasi bosqichlardan tuzilgan bo'ladi. Barcha diyez belgilari kalit yonida, tonalliklarga birin-ketin qo'shilish tartibida yuqoriga tomon sof kvinta bo'yicha joylashishi sharti bilan yoziladilar.


Barcha diyezli tonalliklarning yondosh tartibida joylashuvi quyidagi diyezli major tonalliklarini hosil qiladi:

G – dur
Sol major

Turg'un Noturg'un
tovushlar tovushlar



D – dur
Re major




A – dur
Lya major




E – dur
Mi major



H – dur
Si major




Fis – dur
Fa# major





Cis – dur

Do# major




Bemolli major tonalliklarining yondoshlik asosida joylashuv tartibi ham xuddi diyezli major tonalliklarining joylashuviga o'xshash bo'ladi. Ammo ular sof kvinta bo'yicha pastga tomon tuziladilar. Do major tonalligiga fa major tonalligi yondosh bo'ladi. Fa majorning birinchi bosqichi Do majorning tonikasidan, ya'ni uning birinchi bosqichidan kvinta pastda tuziladi va uning IV bosqichiga - subdominantasi to'g'ri keladi:



Soat qo'shig'i

Nadim Norxo'jayev musiqasi


Rauf Tolib she'ri



Har bir yangi tonallikning asosiy tovushi qilib olingan tonnalikning sof kvinta oralig'ida pastdan joylashgan tonikasi olinadi. Barcha bemolli major tonalliklari mana shu tartibda birin-ketin hosil bo'la oladi. Bemolli tonallikning har birida yangi bemol belgisi har doim gammaning to'rtinchi bosqichiga to'g'ri keladi. Barcha bemol tonalliklarning yondosh joylashuvi quyidagi bemolli tonalliklarni hosil qiladi:

F – dur
Fa major

Turg'un Noturg'un
tovushlar tovushlar



B – dur
Si major



Es – dur
Mi major



As – dur
Lya major



Des – dur
Re major



Ges – dur
Sol major



Ces – dur
Do major



Besh olti va yetti diyezli major tonalliklarning har biri beshtadan yettitagacha bemol belgisi bo'lgan bemolli major tonalliklarning bittasiga engarmonik jihatdan tengdir va aksincha.


Balandligi bir xil, yozilishi, kalit belgilari har xil bo'lgan tonalliklarga **engarmonik teng tonalliklar** deyiladi. Musiqada qo'llaniladigan major tonalliklaridan quyidagilar engarmonik jihatdan tengdirlar.



Engarmonik teng tonalliklarning kalit oldida yoziladigan belgilarining umumiy soni 12 tadan iborat bo'ladi.

Yuqoriga tomon sof kvinta intervali bo'yicha tuzilgan diyezli va pastga tomon sof kvinta bo'yicha tuzilgan bemolli major tonaliklarining joylashuv tartibi kvinta davrasi deb ataladi?

Quyida major tonalliklarining kvinta doirasi chizmasi keltiriladi:



Garmonik va melodik major

VI pogʻonasi yarim ton pasaytirilgan tabiiy major-**garmonik major** deb ataladi. Garmonik majorda VI va VII bosqichlar orasida bir yarim ton (ort.2) hosil boʻladi. Oltinchi bosqichning yarim tonga pasaytirilishi sababli uning V bosqich tomon tortilishi yanada kuchayadi. VI bosqichi pasaytirilgan melodik tuzilmalar major ladining minor ladiga xos ohanglarda eshitilishiga yordam qiladi. Bundan tashqari VI bosqichning pasaytirilishi oʻzi mavjud boʻlgan akkordlar tuzilishini ham oʻzgartirib yuboradi. Akkordlar tuzilishining oʻzgarishi esa, kuyning garmonik joʻriga taʼsir etadi. Shuning uchun ham bu ladning nomi garmonik majordir. VI bosqichni pasaytirish lozim boʻlganda pasaytirish belgisi nota yozuvi matnida nota oldidan qoʻyiladi va tasodifiy belgi deb ataladi.

Garmonik major gammasi tabiiy majordan faqat yuqori tetraxord (yunoncha.tetra – toʻrt) bilan, yaʼni unda tovushlar yarim ton, bir yarim ton tarkibida joylashadi.




Qashqarcha (Oʻzbek xalq kuyi)

Boris Giyenko qayta ishlagan





“Qashqarcha” o‘zbek xalq kuyida garmonik Iya major mustaqil saqlanadi (sol VII bosqich pasaytirilgan). Garmonik major gammasining xarakterli xususiyati VI va VII pog‘onalari orasida orttirilgan sekundaning paydo bo‘lishidir, gammaning pog‘onalari orasidagi sekundalar quyidagicha joylashadi: kat. 2, kat.2, kich.2, kat.2, ort.2, kich.2. Musiqa amaliyotida melodik major VI va VII pog‘onalari pasaytirilgan melodik major deb nomlanadigan major xili kamdan-kam uchraydi.



Majorning bu xili kuyning pastga tomon ravon harakatida qo‘llanadi.

Tayanch iboralar

Turg‘un tovushlar, tonika, noturg‘un tovushlar va ularning yechilishi, lad, major ladi, tabiiy major gammasi, tonika uchtovushligi, lad tovushqatori yoki gamma, pog‘onalar, medianta, submedianta, dominanta, subdominanta, asosiy pog‘onalar, yondosh pog‘onalar, tonallik, diyezli va bemolli major tonalliklari, kvinta davrasi, major tonalliklari engarmonizmi, yettita diyezli va yettita bemolli tonalliklar, kalit yonida yoziladigan belgilar, engarmonik teng tonalliklar, kvinta davrasi, garmonik major, melodik major, VI pog‘onasi pasaytirilgan major ladi, orttirilgan sekundaning hosil bo‘lishi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Qanday tovushlarga turg‘un tovushlar deyiladi?
2. Nechanchi pog‘ona tovushiga tonika deb aytiladi?

3. Qanday tovushlarga noturg'un tovushlar deb aytiladi?
4. Lad deganda nimani tushunasiz?
5. Tovushlar yechilishini tushuntirib bering?
6. Tayanch tovushlar qanday ataladi?
7. Qanday intervallar orqali tuzilgan ladga major ladi deb aytiladi?
8. Tonika uchtovushligini tushuntiring?
9. Gamma deb nimaga aytiladi?
10. Pog'onalar deganda nimani tushunasiz?
11. Major ladida nechta pog'ona bor?
12. Lad pog'onalarining nomlarini ayting?
13. Subdominanta nechanchi bosqich tovushi hisoblanadi?
14. Nechanchi pog'onalar ladning asosiy pog'onalarini tashkil etadi?
15. Nechanchi pog'onalar yondosh pog'onalar bo'lib hisoblanadi?
16. Medianta bosqichini tushuntiring?
17. Tonallik deb qanday tovushqatorga aytiladi?
18. Diyezli major tonalligi qanday tuziladi?
19. Bemolli major tonalligi qanday tuziladi?
20. Major tonalliklarining kvinta davrasini tuzing?
21. Engarmonik teng tonalliklar deb qanday tonalliklarga aytiladi?
22. Necha juft engarmonik teng major tonalligi bor?
23. Engarmonik teng tonalliklarning kalit yonida yoziladigan belgilari umumiy yig'indisi nechani tashkil etadi?
24. Diyezli major tonalligi tuzishda har bir yangi gamma o'zidan oldingi tonallikning nechanchi pog'onasidan tuziladi?
25. Engarmonik teng tonalliklarni sanab bering?
26. Garmonik major qanday intervallardan hosil bo'ladi?
27. Melodik major tonalligini re tovushidan tuzing?
28. Garmonik major intervallarni sanab bering?
29. Garmonik majorning nechanchi pog'onalari orasida orttirilgan sekunda hosil bo'ladi?
30. Melodik major tovushlarining pastga tomon harakatida qaysi pog'onalar tovushlari pasaytiriladi?
31. Melodik major intervallarini sanab bering?
32. Mi tovushidan melodik major tuzing?

6-MAVZU. MINOR LADI VA TONALLIKLARI. PARALLEL, NOMDOSH, ENGARMONIK TENG TONALLIKLAR. XALQ MUSIQASI LADLARI

Reja:

- 1.Minor ladi tuzilishi.
- 2.Garmonik va melodik minor.
- 3.Minor tonalliklari kvinta davrasi.
- 4.Engarmonik teng tonalliklar.
- 5.Parallel, nomdosh tonalliklar
- 6.Xalq musiqasi ladi.



Minor ladi tuzilishi

Turg'un tovushlari minor uchtovushligini hosil qilgan yetti pog'onali lad **minor** (italyancha minor – kichik) **ladi** deb ataladi.

Musika san'atining tarixi taraqqiyoti jarayonida, turli davrlarda va turli xalqlarda minor ladining uch xili, ya'ni tabiiy, garmonik va melodik xillari tarkib topdi. Minor ladining tovushlari tonikadan oktavagacha oraliqda birin-ketin tartibda joylashgan minor gammasini hosil qiladi. Ko'rinishiga ko'ra minor ladi turiga bog'liq holda minor gammasi tabiiy, garmonik va melodik bo'lishi mumkin.

Pog'onalari **ton, yarim ton, ton, ton, yarim ton, ton, ton** tartibida joylashgan lad – **tabiiy minor ladi** deb aytiladi.

Minor gammasining barcha xillarida turg'un va noturg'un tovushlari major gammasidagidek tartibda almashinib turadi. Gammaning I-III-V bosqichlari turg'un bosqichlar, II-IV-VI-VII bosqichlari esa, noturg'un bosqichlardir. Minor gammasining bosqichlari ham major gammasidagidek nomlanadi, ya'ni I bosqich tonika, II bosqich pastga yetaklovchi tovush, III bosqich yuqoriga medianta, IV subdominanta, V dominanta, VI submedianta va VII bosqich yuqoriga yetaklovchi. Minor uchtovushligining turg'un tovushlari tertsiya bo'yicha joylashadilar. I va III bosqich orasida kichik tertsiya, III va V bosqichlari orasida esa katta tertsiya joylashadi. Minor uch tovushligining ikki chetidagi tovushi sof kvintani hosil qiladi:




Minor uch tovushligi tertsiyalari major uchtovushligi tertsiyalariga nisbatan teskari joylashganlar.

Minor ladining gammasi major ladi singari yetti bosqichdan iborat. Minor ladining gammasi major ladining gammasidan sekundalarning joylashishi tartibi


bilan farq qiladi. Tabiiy minor gammasida sekundalari kat.2, kich.2, kat.2, kat.2, kich.2, kat.2.kat.2.tartibida joylashadilar.

Lya minor, a-moll



Tabiiy minordagi noturg'un tovushlarning joylashuv tartibi majordagi noturg'un tovushlar joylashuv tartibidan farq qiladi. Minordagi yarim tonliklar tortilishi quyidagi tartibda bo'ladi, ya'ni II bosqich III bosqichga, VI bosqich V bosqichga tortiladi. Yetakchi tovushlar bir tonga tonikaga qarab tortiladi. Tabiiy minorda noturg'un tovushlarning tortilishi:

Lya minor, a-moll



Tabiiy minorga misollar:

Qo'zichoq

Rustam Abdullayev musiqasi

Yo'ldosh Sulaymon she'ri

Bar - ra pe - chak, Sa - ra pe - chak. te - rib kel - dik,

Yur - may dik - dik. Ki - sir, ki - sir, ki - sir, ki - sir.

Bi - sir, bi - sir, bi - sir, bi - sir. U - ni chay -

-na ba qo' - zi - choq,


U - ni chay - na. Ma qo' - zi - choq.

Garmonik va melodik minor

Musiqqa amaliyotida tabiiy ko‘rinishdagi minordan tashqari, minorning boshqa ko‘rinishlari garmonik, melodik xillari ham keng qo‘llanila boshladi.

VII pog‘onasi 0,5 ton ko‘tarilgan tabiiy minor-**garmonik minor** deb ataladi. Garmonik minor gammasi sekundalarining birin-ketin joylashuvi tartibi quyidagicha: kat.2, kich.2, kat.2, kat.2, kich.2, ort.2, kich.2.

Garmonik lya minor a-moll



Garmonik minor gammasining xarakterli xususiyatlaridan biri VI bosqich bilan VII bosqich orasida orttirilgan sekundaning hosil bo‘lishidir.

Garmonik minor uchun misollar: “Konsert” (a-moll) A.Vivaldi



Yuqorilama harakatda VI va VII pog‘onalari ko‘tarilgan va pastlama harakatda o‘z holiga qaytgan tabiiy minor – **melodik minor** deb ataladi.

Musiqada melodik minor gammasi bosqichlari bo‘ylab pastga tomon harakatlanish hollari ham uchraydi. (bunda VI va VII bosqichlar ko‘tariladi).

Melodik minor gammasi sekundalarining birin-ketin yuqoriga tomon harakat qilishi quyidagi tartibda bo‘ladi: kat.2, kich.2, kat.2, kat.2, kat.2, kat.2, kich.2.

Melodik lya minor a-moll



Tabiiy garmonik va melodik minor gammalarini quyidagi jadvaldan taqqoslash orqali ularning o‘zaro farqini bilib olish qiyin emas.

(Butun va yarim tonliklari)

Tabiiy 1, 1/2 , 1, 1,1/2 , 1 , 1:


Garmonik 1, 1/2, 1, 1, 1/2, 1, 1/2, 1/2:

Melodik 1, 1/2, 1, 1, 1, 1, 1/2;

Minor tonalliklari kvinta davrasi

Yuqoriga tomon sof.5 bo'yicha tuzilgan diyezli va pastga tomon sof.5 bo'yicha tuzilgan bemolli minor tonalliklarining joylashish tartibiga – **minor tonalliklarining kvinta davrasi** deb aytiladi.

Minor ladi tonalliklari ham major ladi tonalliklari kabi bir-biriga yondoshdirlar: Minor tonalligi alteratsiya belgilarining birin-ketin ko'paya borishi ham major tonalliklari singari bo'lib, sol kaliti bo'yicha yuqoriga tomon diyezlar yoziladi, sof kvinta bo'yicha pastga tomon bemollar yoziladi. Tabiiy ko'rinishdagi major va minorda bir xil tovushlar bo'ladi. Kalit bir xil bo'lgan major va minor tonalliklari **parallel tonalliklar** deyiladi.




Parallel minor tonikasi major tonikasidan kichik tertsiya pastga joylashadi, yoki parallel minor tonikasi unga parallel bo'lgan majorning oltinchi bosqichi hisoblanadi. Agar major tonalligi yaxshi o'zgartirilsa, minor tonalligini topish qiyin emas. Minor tonalligi birin-ketin hosil bo'ladigan diyezlar har bir gammaning ikkinchi bosqichiga to'g'ri kelad. Bemollar esa VI bosqichiga to'g'ri keladi.

Minor tonalliklarining alteratsiya belgilari kalit yonida yoziladi. VI - VII bosqichlarning xromatik o'zgarishi natijasida hosil bo'ladigan tasodifiy belgilari notalar oldiga yoziladi. Minor tonalliklarining soni ham major tonalliklari soniga tengdir, ya'ni ular ham 15 ta bo'ladi. Bu tonalliklar nomlarining hosil bo'lishi major tonalliklariga o'xshashdir. Minor ladi harfiy sistema bo'yicha moll (lot. molis - yumshoq, bo'sh) so'zi bilan yoziladi. Masalan, lya minor yoki a -moll, do minor yoki c-moll.

Barcha minor tonliklari bir-biriga yondosh bo'lib quyidagi tonalliklardan tarkib topadi.

Diyezli minor tonalliklari

Mi minor
e – moll



Si minor
h – moll



Fa # minor
fis – moll



Do # minor
cis – moll



Sol # minor
gis – moll



Re # minor
dis – moll



Lya # minor
ais – moll



Bemolli minor tonalliklari

Re minor

d – moll



Sol minor

g – moll



Do minor

c – moll



Fa minor

f – moll



Si $\flat$ minor

b – moll



Mi $\flat$ minor

es – moll




Lya $\flat$ minor

as – minor



Yondosh minor tonalliklari bir-biridan sof kvinta oralig'ida joylashganligi sababli minor ladining barcha tonalliklari mustaqil kvinta davrasi hosil qiladi.

Minor tonalliklarining kvinta doirasi



Engarmonik teng tonalliklar


Minor tonalliklarining umumiy miqdori olti tonallikka ega. Bulardan uchta diyezli tonallik va qolgan uchta bemolli tonallikka engarmonik jihatdan teng bo'ladi.

Sol diyez minor – lya bemol minorga teng;

Re diyez minor – mi bemol minorga teng;

Lya diyez minor – si bemol minorga teng.

Masalan:



dis-moll

es-moll

ais-moll

b-moll

va hokazo.

Parallel, nomdosh tonalliklar

Umumiy tonikaga ega bo'lgan (bir xil tonikadan tuzilgan) major va minor tonalliklariga – **nomdosh tonalliklar** deyiladi. Nomdosh major va minorning tabiiy gammalari bir-biridan uchta pog'ona bilan farq qiladi, bular 3-6 va 7-pog'onalaridir. Minorda ko'rsatilgan bosqichlarning har biri majorning shu bosqichlaridan xromatik yarim ton pastda joylashgan bo'ladi.

Do major (C-dur)

do minor (c-moll)


Nomdosh major va minorning garmonik ko'rinishlari bir-biridan 3 pog'onaning turlicha eshitalishi bilan farq qiladi. Bularning o'xshash tomoni har ikkalasida ham 6 va 7-pog'onalar orasida orttirilgan sekundaning mavjud bo'lishidir.

Lya major (A-dur)

lya minor (a-moll)

Melodik minor yuqoriga tomon harakatda tabiiy nomdosh majordan 3-pogʻonaning boshqacha eshitalishi bilan farq qiladi, masalan:

Lya major (A-dur)




lya minor (a-moll)



Musiqaning ta'siri xilma-xil ifoda vositalarining o'zaro munosabatda bo'lishidan yuzaga keladi, lekin ma'lum bir mazmun va xarakterni aks ettirishda ladning ahamiyati kattadir. Bir xil lad boshqa elementlari bilan ma'lum tarzda aloqador bo'lganida musiqaga xilma-xil ohanglar berishi mumkin, masalan, turli davrlarda yashab ijod etgan kompozitorlar, xususan hozirgi zamon kompozitorlari qo'shiqlari, musiqalarida g'amgin, jiddiy, keskin dramatik mazmunni ifodalovchi asarlari minorlarida yoziladi.

Laylak keldi

Vazmin



Kichkintoyimiz-gijingtoymiz

K.Kenjayeov musiqasi

P.Mo'min she'ri

Jadal





Xalq musiqasi ladlari

Xalq musiqasida ketma-ket kelgan va turli diatonik pogʻonalardan tuzilgan yetti pogʻonali ladlar koʻp uchraydi. Biz bilamizki, lad pogʻonalarining birin-ketin kelishi, tovushqatorda katta va kichik sekundalar joylashishiga bogʻliq.

1. Tabiiy majorga muvofiq keladigan ladga – **ioniy ladi** deyiladi.
2. Kichik septimali, 7-pogʻonasi pasaytirilgan major ladiga – **miksolidiy ladi** deyiladi.
3. Oritirilgan kvartali, 4-pogʻonasi koʻtarilgan major ladiga – **lidiy ladi** deyiladi
4. Tabiiy minorga muvofiq keluvchi ladga – **coliy ladi** deyiladi.
5. Katta sekstali, 6-pogʻonasi koʻtarilgan minor ladiga – **doriy ladi** deyiladi.
6. Kichik sekundali, 2-pogʻonasi pasaytirilgan minor ladiga – **frigiya ladi** deyiladi.
7. Tonikasi kamaytirilgan uchtovushlikdan iborat boʻlgan ladga – **Lokriy ladi** deyiladi.

Xalq musiqasi ladlarining tabiiy major va minordan farqi

Qadimgi nomi	Hozirgi major-minor tuzilmasidagi oʻrni	Diatonik tovushqatordagi oʻrni
Ioniy	diatonik tabiiy do major	c tovushidan boshlab tuziladi
Doriy	6-bosqichi koʻtarilgan minor	d tovushidan boshlab tuziladi
Frigiy	2-pogʻonasi pasaytirilgan minor	e tovushidan boshlab tuziladi
Lidiy	4-pogʻonasi koʻtarilgan major	f tovushidan boshlab tuziladi
Miksolidiy	7-pogʻonasi pasaytirilgan major	g tovushidan boshlab tuziladi

Eoliy	tabiiy minor	a tovushidan boshlab tuziladi
Gipofrigiy yoki Lokriy	2 va 5-bosqichlari yarim ton ko'tarilgan minor	h tovushidan boshlab tuziladi

Xalq ladlari diatonik tovushqatordagi ma'lum tovushlardan tuzilganda, yuqoridagi jadvalda ko'rsatilganidek hech qanday al'teratsiya belgilariga ega bo'lmaydi:

Boshqa bosqichlardan tuzilganda esa jadvalda ko'rsatilgan tovushqatorlar intervallari al'teratsiya belgilari yordamida hosil qilinadi.


0,5 tonlar uchramaydigan oktava oralig'idagi besh pog'onali ladga - **pentatonika** deyiladi.

Fortepianoning qora klavishlarida, bir oktava oralig'ida birin-ketin eshitilgan barcha tovushlar pentatonika tovushlarini hosil qiladi. Pentatonika tarkibiga: yo bitta kichik tertsiya bilan uchta katta sekunda, yoki ikkita kichik tertsiya bilan ikkita katta sekunda kiradi.

Bu lad boshqa lادلardan tovushqatori tarkibida kichik sekundalar (yarim tonliklar) ning yo'qligi bilan farq qiladi. Pentatonika pog'onalar uchtonlik hosil qilmaydi.

Asosan ikki xil pentatonika ko'p tarqalgan:


a) **major pentatonikasi** – 3-4 pog'onalar oralig'i kichik 3 ni tashkil etadigan ton-ton-1,5 ton-ton tuzilishidagi lad. Bu o'z xarakteri bilan major ladiga yaqin turadi, biroq u tabiiy majordan 4- va 7-pog'onalar yo'qligi bilan farq qiladi.



Barcha diatonik pog'onalardan major uchtovushligi pentatonikasi quyidagicha tuziladi:



b) **minor pentatonikasi** – 1-2-pogʻonalar oraligʻi kichik 3 ni tashkil etadigan 1,5 ton-ton-ton-1,5 ton tizimidagi lad, unda 2 va 6 – pogʻonalar boʻlmaydi.



Barcha diatonik pogʻonalardan minor uchtovushligi pentatonikasi quyidagicha tuziladi:



Tayanch iboralar

Minor ladi, tabiiy minor gammasi, *moll*, kichik tertsiya, katta tertsiya, sof kvinta intervali, garmonik minor, melodik minor, parallel tonalliklar, minor tonalliklarining kvinta davrasi, orttirilgan sekunda, yuqoriga boshlovchi tovush, parallel tonalliklar, ikkinchi pogʻona, oltinchi pogʻona, 15 ta minor tonalligi, kvinta davrasi, nomdosh tonalliklar, 3, 6 va 7 – pogʻonalar, orttirilgan sekunda, xalq musiqasining yetti pogʻonali diatonik lamlari, pentatonika, ioniy, doriy, frigiya, lidiya, miksolidiya, eoliya, gipofrigiya yoki lokriya lamlari, pentatonika lamlari

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Minor atamasining lugʻaviy maʼnosini ayting?
2. Major va minor tovushqatorining farqi nimadan iborat?
3. Tabiiy minor gammasi qaysi intervallardan hosil qilinadi?
4. Tovushqatorning birinchi va uchinchi pogʻonalari katta tertsiyani tashkil etsa, bu qanday tovushqator deyiladi?
5. Garmonik minor pogʻonalarini berilgan tovushdan tuzing?
6. Melodik minor pogʻonalari intervallarini ayting?
7. Qanday tonalliklarga parallel tonalliklar deyiladi?
8. Majordan parallel minor tonalligini tuzish uchun nima qilish lozim?
9. Garmonik minordagi orttirilgan sekunda nechanchi pogʻonalar orasida joylashtiriladi?
10. Barcha major tonalliklarining soni nechta?

- 11.Engarmonik teng tonallik deganda nimani tushunasiz?
- 12.f-moll nimani bildiradi?
- 13.Qanday tonalliklar nomdosh tonalliklar deyiladi?
- 14.Nomdosh major va minor bir-biridan nechta belgi bilan farq qiladi?
- 15.Sol majorga nomdosh bo‘lgan tonallikni toping?
- 16.Si bemol minorga nomdosh bo‘lgan tonallikni toping?
- 17.Qanday lادلarga xalq musiqasining yetti pog‘onali diatonik lادلari deyiladi?
- 18.Do tovushidan tuzilgan diatonik tovushqator xalq lادلari bo‘yicha nima deb ataladi?
- 19.Miksolidiy ladini tushuntiring?
- 20.Frigiy ladiga misol keltiring?
- 21.Pentatonika atamasi nimani bildiradi?
- 22.Pentatonikaning qanday ko‘rinishlari mavjud?
- 23.Pentatonika lادلari qaysi xalqlar musiqasida keng qo‘llaniladi?

7- MAVZU. INTERVALLAR

Reja:


1. Interval tushunchasi.
2. Intervalning son va sifat miqdorlari.
3. Konsonans va dissonans intervallar.
4. Intervallar aylanishi.
5. Xromatik intervallar.
6. Intervallar engarmonizmi.
7. Tarkibli intervallar



Interval tushunchasi.

Bir vaqtda yoki birin-ketin eshitilgan ikki tovush qo'shilmasi **interval**³ deyiladi.

Birin ketin eshitilgan ikkita tovush oralig'i - **melodik interval**, bir vaqtda eshitilgan ikkita tovush oralig'i esa - **garmonik interval**dir. Intervalning pastki tovushi interval asosi, yuqori tovushi esa intervalning **cho'qqisi** deyiladi. masalan:



Barcha garmonik intervallar va ko'tariluvchi melodik intervallar asosi (pastki tovush)dan yuqoriga qarab o'qiladi. Pastlashuvchi melodik intervallar pastga tomon o'qiladi va uning yo'nalishi ham ko'rsatiladi.

Intervallarning son va sifat miqdori

Har bir interval ikki miqdor - son va sifat miqdori bilan aniqlanadi.


Agar miqdori pog'onalar soni bilan ifodalanadigan intervallar **son miqdorli intervallar** deyilsa, miqdori ton, yarim tonlar soni bilan ifodalanadigan intervallar **sifat miqdorli intervallar** deyiladi. Bir oktava oralig'ida hosil bo'lgan intervallarni oddiy intervallar deyiladi. Oktava oralig'ida jami bo'lib sakkizta oddiy interval bor. Ularning nomi, shu intervallar hisobiga kiradigan bosqichlar soniga bog'liq. Intervallar lotincha tartib sonlar bilan nomlanadilar. Tartibli sonlar interval yuqori tovushining pastgi tovushga nisbatan nechanchi pog'onada turganligini bildiradi. Bundan tashqari intervallarni qisqa qilib yozish uchun raqamlar bilan ham belgilanadi.

³ **Interval** - lotincha "intervalum" so'zidan olingan bo'lib, oraliq masofa ma'nolarini bildiradi.

Quyida oddiy intervallar nomini va ularning do tovushidan pastga va yuqoriga tomon tuzilishi tartibi ko'rsatilgan:

Prima-1, (lot. prima – birinchi) bir xildagi tovushning unison bo'lib eshitilishi.

Sekunda (lot. sekunda – ikkinchi)	- 2 ikkinchi
Tertsiya (lot. tertia – uchinchi)	- 3 uchinchi
Kvarta (lot. quarta – to'rtinchi)	- 4 to'rtinchi
Kvinta (lot. quinta – beshinchi)	- 5 beshinchi
Seksta (lot. sexta – oltinchi)	- 6 oltinchi
Septima (lot. septima – yettinchi)	- 7 yettinchi
Oktava (lot. oktava – sakkizinchi)	- 8 sakkizinchi



Yuqorida yonma-yon turgan tovushlar oralig'ining yarim ton (mi - fa, si - do) yoki bir ton (do - re, re - mi, fa - sol, sol - lya, lya - si) teng kelishi haqida fikr yuritgan edik. Demak, sekunda intervali ham yarim tondan va butun tondan tuzilishi mumkin. Masalan, mi - fa tovushlaridan iborat sekunda intervali yarim tonga teng bo'ladi (mi - re $1/2$ tonga). Fa - sol tovushlaridan iborat sekunda intervali butun tonga teng bo'ladi (fa - sol 1 tonga). Shuningdek, bir turdagi boshqa intervallar tonlarining soni ham bir xil emas. Masalan do-mi tersiyaga kiradi, lekin u ikki tonga teng (do-mi=2 tonga) re-fa ham tertsiya intervali hosil qiladi, ammo u bir yarim tonga teng (re - fa= $1.1/2$ tonga).

Intervallarning sifat miqdori bir turdagi intervallarning xilma-xil bo'lib eshitilishini belgilaydi.


Intervallarning sifat miqdorini belgilash uchun: kichik, katta, sof, orttirilgan, kamaytirilgan degan so'zlar ishlatiladi.

Tovushlar qatorining asosiy bosqichlari orasida (bir oktava oralig'ida) quyidagi intervallar bor:


Sof primalar	= 0 tonga
Kichik sekundalar	= $1/2$ tonga
Katta sekundalar	= 1 tonga
Kichik tertsiyalar	= $1,1/2$ tonga
Katta tertsiyalar	= 2 tonga
Sof kvartalar	= $2,1/2$ tonga

Orttirilgan kvarta	=	3 tonga
Kamaytirilgan kvinta	=	3 tonga
Sof kvintalar	=	3,1/2 tonga
Kichik sekstalar	=	4 tonga
Katta sekstalar	=	4,1/2 tonga
Kichik septimalar	=	5 tonga
Katta septimalar	=	5,1/2 tonga
Sof oktavalar	=	6 tonga

Masalan:



Yuqorida keltirilgan barcha intervallar asosiy intervallar hisoblanadi. Tabiiy major va tabiiy minorning pog'onalari orasida hosil bo'lgan intervallar **diatonik intervallar**. Barcha diatonik intervallarni istalgan asosiy bosqichdan yoki hosila bosqichdan pastga hamda yuqoriga tomon tuzish mumkin, masalan:



Diatonik intervallar kuyning asosi hisoblanadi. Xilma-xil ko'rinishdagi melodik intervallarning uyg'unlashuvi natijasida kuy harakatining ifoda kuchi rang-barang bo'ladi.

Masalan:

Xorazm lazgisi

O'zbek xalq kuyi

Erkin, Og'irroq



Lavlagi

D.Omonullayeva musiqasi

P.Mo'min she'ri

Allegro moderato

Lav - la - gi - yu, lav - la - gi, yer - ni as - ta kav - la - gin.

Mo'l bo' - lib - di ho - si - li, a' - lo e - kan qi - zi - li.

Lo - la - ga o'x - shar, qip - qi - zil ran - gi.

Xud - di bo'-yal - gan - day yap - yan - gi... gi.

O'ynaylik

Il.Akbarov musiqasi

A.Rahmat she'ri

p *p* *mf*

Do, re, mi, fa, sol, sol, sol, deb cher - ta-man to-rim - ni, Soz bo'l - gan-da ja-rang

1. 2. *p* *rit.*

lab Kuy - ga so - lar ba - ri - ni. Kuy - ga so - lar ba - ri -

f Tamomlash uchun *f* *p*

ni. Sol, sol, do, sol, sol, do, sol, fa, mi, re, do.

Ohangdosh (konsonans) va noohangdosh (dissonans) intervallar

Bir-biri bilan uyg'unlashgan, ohangdosh, yumshoq, yoqimli eshitiladigan tovushlar yig'indisi –**konsonans** intervallar deyiladi.

Quloqqa keskin eshitaladigan, bir-biri bilan uyg'unlashmagan nohangdosh tovushlar yig'indisi –**dissonans** intervallardir.

Ohangdosh (konsonans) intervallarga quyidagilar kiradi:

a)	Sof prima Sof oktava	nihoyatda mukammal ohangdoshlar.
b)	Sof kvarta Sof kvinta	mukammal ohangdoshlar
s)	kichik tertsiya katta tertsiya kichik seksta katta seksta	nomukammal ohangdoshlar

Nohangdosh (dissonans) intervallarga quyidagilar kiradi:

Kichik sekunda
Katta sekunda
Orttirilgan kvarta
Kamaytirilgan kvinta
Kichik septima
Katta septima.


Qoidaga muvofiq ohangdosh intervallar ohangdosh intervallarga, nohangdosh intervallar esa nohangdosh intervallarga aylanadilar.

Intervallarning aylanishi


Interval tovushlarining bir joyga ko'chishi natijasida pastki tovush yuqoriga va yuqoridagi tovush pastga joylashadi, bu holat intervallarning aylanishi jarayonida sodir bo'ladi. Bunga **interval aylanishi** deyiladi. Interval tovushlarining ikkinchi joyga ko'chishi ikki yo'l bilan bo'ladi.

1. Interval asosini (pastki tovushni) bir oktava yuqoriga ko'chirish bilan.
2. Interval cho'qqisini (yuqori tovushni) bir oktava pastga ko'chirishi bilan.


Intervallarning aylanishi natijasida yangi intervallar hosil bo'ladi.



Qoida bo'yicha sof intervallar – sof intervallarga, kichik intervallar - katta intervallarga, katta intervallar-kichik intervallarga, orttirilgan intervallar kamaytirilgan intervallarga, kamaytirilgan intervallar - orttirilgan intervallarga, ikki marta orttirilgan intervallar - ikki marta kamaytirilgan intervallarga va aksincha. Orttirilgan oktavagina aylanishdan mustasnodir. Mabodo biror interval va uning aylanmasini birlashtirilsa, natijada oktava hosil bo'ladi. Shu sababli bir-biriga aylanadigan intervallar sifat miqdorining hajmi hamma vaqt olti tonga teng bo'ladi. Berilgan biror tovushdan yuqoriga va pastga qarab seksta yoki septima intervali tuzishni yengillashtirish uchun intervallar aylanish qoidasidan foydalanish tavsiya etiladi. Berilgan biror intervalni yuqoriga tomon tuzish uchun asosiy tovushdan bir oktava yuqori joylashgan tovush aniqlanadi, so'ngra undan pastga tomon berilgan interval aylanmasi sanaladi, masalan, fa tovushidan yuqoriga tomon kichik seksta tuzish talab qilinganda:



Berilgan biror intervalni pastga tomon tuzish uchun asosiy tovushdan bir oktava pastga joylashgan tovush aniqlanadi, so'ngra, undan yuqoriga tomon berilgan interval aylanmasi sanaladi, masalan; do-do tovushlaridan pastga tomon katta septima tuzish talab qilinganda;



Xromatik intervallar

Orttirilgan kvarta va kamaytirilgan kvintadan tashqari barcha orttirilgan va kamaytirilgan intervallar–**xromatik**⁴ intervallar hisoblanadi. Xromatik, bu diatonik laddagi bosqichlarning yarim tondan o'zgarishi. Bular alteratsiya belgilari diyez yoki bemol bilan ko'rsatiladi. Xromatik yarim ton bir bosqichdagi ikki turli tovushdan, masalan do va do # tuzilishi bilan turlicha pog'onalardan tuzilgan diatonik yarim tondan farq qiladi, demak bir bosqichdagi tovushlarning o'zgarishi xromatik o'zgarishdir.

Har qanday diatonik intervallar orttirilishi yoki kamaytirilishi ham mumkin. Diatonik intervalga kiradigan bosqichardan birini xromatik yarim tonga pasaytirish yoki ko'tarish orqali bunga erishish mumkin, orttirilgan intervallar, sof

⁴ Xromatik yunoncha choma – rang degan ma'noni bildiradi.

va katta intervallardan, kamaytirilgan intervallar esa sof va kichik intervaldan tuzilishi mumkin. Sof prima bundan mustasno, uni kamaytirib bo'lmaydi. Barcha orttirilgan yoki kamaytirilgan intervallar xromatik intervallarga kiradi.

Uch tondan iborat orttirilgan kvarta yoki kamaytirilgan kvinta intervallarini, bular diatonik intervallar bo'lganligi uchun xromatik intervallar qatoriga qo'shib bo'lmaydi.

Orttirilgan intervallar:

Sof va katta intervallarni xromatik 0,5 tonga orttirish natijasida hosil bo'lgan intervallarga – **orttirilgan intervallar** deyiladi.

a) Eng yuqori bosqich (cho'qqisi)ning ko'tarilishi natijasida hosil bo'lgan intervallar:



b) Pastki bosqichi (asosi) ning pasaytirilishi natijasida hosil bo'lgan intervallar:




Kamaytirilgan intervallar:

Sof va kichik intervallarni xromatik 0,5 tonga kamaytirish natijasida hosil bo'lgan intervallarga – **kamaytirilgan intervallar** deyiladi.

a) Bular yuqori bosqich (asosi) ning pasayrilishidan hosil bo'lgan intervallar:



b) Pastki bosqich (asosi) ning ko'tarilishidan hosil bo'lgan intervallar:




Yuqorida ko'rsatganimiz har bir xromatik interval tonining soni diatonik (asosiy) Intervallardan birortasining soniga teng keladi. Masalan, ort.2=kich.3 ga (1.1/2 tonga); kamaytirilgan 7=katta 6 ga (4.1/2 tonga);



Intervallar engarmonizmi.

Pogʻona miqdori turlicha va eshitalishi bir xil boʻlgan intervallar - **engarmonik teng intervallar** deyiladi.

Engarmonik teng intervallar orasida son miqdori bir xil boʻlgan intervallar ham uchraydi, bunday hollarda, taqqoslangan intervallardan birortasining ikkala tovushi engarmonik tovushlar bilan almashtiriladi:



Qayd qilingan xromatik intervallardan tashqari, yarim tonga intervalni ikkala xromatik yarimtonga orttirish natijasida ikki marta orttirish va pasaytirish natijasida ikki marta kamaytirilgan intervallar hosil boʻlishi mumkin. Ikki marta orttirilgan kvarta va ikki marta kamaytirilgan kvinta boshqa intervallarga nisbatan koʻp uchraydi.



Tarkibli intervallar


Oraligʻi bir oktavadan keng boʻlgan intervallarga **tarkibli intervallar** deyiladi. Tarkibli intervallar oddiy intervallarni oktavaga qoʻshish yoʻli bilan hosil boʻladi.

Oktava orqali tuzilgan avvalgidek intervallar hosil boʻladi va ular tuzilishiga qarab turlicha nomlanadilar.

Har bir tarkibli interval uning tarkibidagi bosqichlar soniga qarab mustaqil nomlar bilan ataladi.


Nona (lot. nona – toʻqqizinchi) toʻqqiz bosqich orasidagi interval, buni 9 raqami bilan ifodalanadi.

Oktavaga sekunda qoʻshilishidan hosil boʻladi.




Detsima (lot. decima – oʻninchi) oʻn bosqich oraligʻidagi interval, 10 raqami bilan koʻrsatiladi.


Detsima oktavaga tertsiya qoʻshilishidan hosil boʻladi.




Undetsima (lot. undecima – o‘n birinchi) hajmi o‘n birinchi bosqich oralig‘idagi interval, 11 raqami bilan ko‘rsatiladi, oktavaga kvarta intervali qo‘shilishidan hosil bo‘ladi.




Duodetsima (lot. duodecima – o‘n ikkinchi) hajmi o‘n ikki bosqichni o‘z ichiga olgan interval, u 12 raqam bilan ko‘rsatiladi, oktavaga kvinta intervali qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.




Tertsdetsima (lot. tertia decima – o‘n uchinchi) hajmi o‘n uchinchi bosqichni o‘z ichiga olgan interval, u 13 raqami bilan ko‘rsatiladi va oktava intervaliga seksta intervalining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan:



Kvartdetsima (lot. quarta – decima – o‘n to‘rtinchi) hajmi o‘n to‘rtinchi bosqichni o‘z ichiga olgan interval bo‘lib, u 14 raqami bilan ko‘rsatiladi va oktava intervaliga septima intervali qo‘shilishidan hosil bo‘ladi:




Kvintdetsima (lot. quinta – decima – o‘n beshinchi) hajmi o‘n beshinchi bosqichni o‘z ichiga olgan interval bo‘lib, 15 raqami bilan ko‘rsatiladi va u oktava intervaliga oktava intervalining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi:




Tarkibli intervallarning sifat miqdorini belgilash uchun oddiy intervallarga ishlatiladigan sof, katta, kichik, orttirilgan degan soʻzlar qoʻllaniladi. Tarkibli intervallar aylanganda, undagi tovushlarning koʻchish uslubi quyidagi tartibda boʻlishi mumkin

- a) Tarkibli interval tovushlaridan birortasining (pastki tovushining yoki yuqorigi tovushining pastga) ikki oktavaga koʻchishi;
- b) Tarkibli intervalning har ikkala tovushining qarama-qarshi (koʻndalang) tomonga bir oktavaga koʻchishi. Masalan:



Tarkibli intervallar sof kvindetsima (qoʻsh oktava)dan ham keng oraliqda tuzilishi mumkin. Bunday hollarda intervallar nomi saqlanib, “ikki yoki uch oktava orqali tuzilgan” degan soʻzlar qoʻshilib ishlatiladi.



Tarkibli intervallarning boshqa bir tarkibli intervallarga aylanish hollari ham boʻladi. Bunda tovushlar ikki oktavaga koʻchadilar va qarama-qarshi tomonga yoʻnaladilar.

Tayanch iboralar

Oddiy intervallar, diatonik intervallar, melodik interval, garmonik interval, interval asosi, interval choʻqqisi, intervallarning son miqdori, intervallarning sifat miqdori, prima, sekunda, tertsiya, kvarta, kvinta, seksta, septima, oktava, kichik, katta, sof, orttirilgan, kamaytirilgan intervallar, asosiy yoki diatonik intervallar, orttirilgan va kamaytirilgan, xromatik intervallar, intervallarning engarmonik tengligi, diatonik interval, intervalning yuqori pogʻona (choʻqqisi), pastki pogʻona (asosi), engarmonik teng intervallar, ikki marta orttirilgan va pasaytirish natijasida ikki marta kamaytirilgan intervallar, intervallarning aylanishi, interval asosi yoki pastki tovushini bir oktava yuqoriga koʻchirish, interval choʻqqisini yoki yuqori tovushini bir oktava pastga koʻchirish, bir-biriga aylanadigan intervallar sifat miqdorining hajmi olti tonga teng boʻladi, Tarkibli intervallar, oddiy intervallarni oktavaga qoʻshish, nona-9, detsima-10, undetsima-11, duodetsima-12, tertsdetsima-13, kvartdetsima-14, kvintdetsima-15, Ohangdosh (konsonans) va noohangdosh (dissonans) intervallar, bir-biri bilan uygʻunlashgan intervallar, bir-

biri bilan uyg'unlashmagan intervallar, eng mukammal ohangdoshlar, mukammal ohangdoshlar, nomukammal ohangdoshlar, intervallar aylanishi,

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Interval deb nimaga aytiladi?
2. Garmonik va melodik intervallarning farqi nimada?
3. Intervallarning pastki va yuqoridagi tovushlari qanday ataladi?
4. Melodik harakat vaqtida qaysi yo'nalishlar interval hosil qiladilar?
5. Intervallar miqdori qanday aniqlanadi?
6. Intervalning son miqdori qanday aniqlanadi?
7. Qanday interval sifat miqdorli interval deyiladi?
8. Oddiy intervallar deb qanday intervalarga aytiladi?
9. Barcha oddiy intervallarni aytib bering?
10. Unison deb nimaga aytiladi?
11. Intervallarning sifat miqdori qanday so'zlar bilan ifodalanadi?
12. Tovushqatorning asosiy bosqichlari orasida qanday intervallar hosil bo'ladi?
13. Uch tonlik nima?
14. Qaysi intervallar orttirilgan va kamaytirilgan deyiladi? Ular qanday hosil bo'ladilar?
15. Barcha orttirilgan va kamaytirilgan intervallar qaysi intervallar guruhiga kiradi?
16. Xromatik intervallar engarmonizmi nimadan iborat bo'ladi?
17. Engarmonik teng intervallar qanday xususiyatlar bilan xarakterlanadilar?
18. Intervallar aylanishi nimadan iborat?
19. Sof, kichik, katta, orttirilgan va kamaytirilgan intervallarning har biri qaysi intervallarga aylanadi?
20. Bir-biriga aylangan intervallarning sifat miqdori nimaga teng bo'ladi?
21. Qaysi intervallar aylanganda tonlarning soni bir-biriga teng bo'ladi?
22. Oktavadan ortiq intervallar qanday ataladi?
23. Qo'sh oktava ichidagi intervallarning nomini aytib bering?
24. Tarkibli intervalning son miqdori nimadan tuziladi?
25. Barcha tarkibli intervallar qanday intervallarga aylanadi?
26. Ohangdoshlik nima?
27. Diatonik intervallarning qaysi biri konsonans, qaysi biri dissonans bo'ladi?
28. Konsonans intervallar eshitilishiga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?

8- MAVZU. TABIIY MAJOR VA TABIIY MINOR INTERVALLARI

Reja:

1. Tabiiy major va tabiiy minor intervallari.
2. Turg'un va noturg'un intervallar. Intervallar yechilishi.



Tabiiy major va tabiiy minor intervallari




Tabiiy major va tabiiy minor bosqichlari faqat diatonik intervallar hosil qiladi. Har bir bosqichdan prima, sekunda, tertsiya, kvarta va boshqa intervallarni tuzish mumkin. Qayd etilgan intervaldan har birining sifat miqdorini, ya'ni qaysi biri sof, kichik, katta ekanligini aniqlash zarur. Yondosh intervallardan har birining umumiy soni ladning yetti bosqichi soniga teng bo'ladi.

Tabiiy major intervallari jadvali

Interval nomi	Bosqichlarning tuzilishi (Do major)						
	I	II	III	IV	V	VI	VII
Sof prima							
Kichik sekunda							
Katta sekunda							
Kichik tertsiya							
Katta tertsiya							
Sof kvarta							
Ort. kvarta							
Kam kvinta							
Sof. kvinta							

Kichik seksta	
Katta seksta	
Kichik septima	
Katta septima	
Sof oktava	

Tabiiy minor intervallari jadvali

Interval nomi	Bosqichlarning tuzilishi (Do major)						
	I	II	III	IV	V	VI	VII
Sof prima							
Kichik sekunda							
Katta sekunda							
Kichik tertsiya							
Katta tertsiya							
Sof kvarta							
Ort. kvarta							
Kam kvinta							
Sof. kvinta							

Kichik seksta	
Katta seksta	
Kichik septima	
Katta septima	
Sof oktava	

Yuqorida keltirilgan major va minor jadvali intervallarini o'rganishni esda saqlash uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

1. Tabiiy major va minorda o'xshash intervallar hosil bo'ladi va ularning soni bir-biriga teng.

2. Minorda majorga o'xshagan barcha intervallar majordagiga qaraganda ikki bosqich yuqorida joylashganlar. Masalan, majorda katta tertsiya I, III, IV bosqichlarda joylashsa, minorda esa III VI va VII bosqichlarda joylashadi.



3. Major intervallarini o'rganishning tez esda qoladigan intervallardan avval sof intervallar (sof prima, sof oktava, sof kvarta) va sof kvinta so'ng kichik va katta intervallarni (kichik sekunda, kichik tertsiya, kichik seksta, kichik septima, katta sekunda, katta tertsiya, katta seksta, katta septima)ni o'rganishdan so'ng esa uchtonlik hosil qiladigan bosqichlardan boshlash ma'qul.

4. Major intervallari o'rganilgach, ularni minor intervallarining joylashishi bilan taqqoslash unchalik qiyin emas. Shu tartibda major va minor pog'onalarining intervallarini o'zlashtiriladi.

Turg'un va noturg'un intervallar. Intervallar yechilishi

Lad pog'onalari yordami bilan tuzilgan har qanday interval o'zining akustik, ya'ni ohangdosh (konsonans) yoki noohangdosh (dissonans) bo'lishidan tashqari, turg'un yoki noturg'un pog'onalardan tuzilganligiga qarab, boshqacha ohanglarda yeshitilishi mumkin. Uning lad xususiyati aniqlanadi. Intervallar turg'un va noturg'un intervallarga ajratiladi. Bunday hollarda har bir ohangdosh intervallar

ham lad nuqtai nazaridan turg'un bo'lavermasligini aniqlash zarur. Masalan:

Gulzor haqida qo'shiq

G'.Qodirov



Yuqorida keltirilgan misolda katta 3 fa-lya turg'un interval hisoblanadi, chunki u interval ladning turg'un pog'onalaridan tarkib topgan, qolgan intervallar esa ohangdosh bo'lsalar ham noturg'un intervallardir. Demak turg'un tovushlardan tuzilgan ohangdosh intervallar **turg'un interval** deyiladi. Ohangdosh intervallar noturg'un intervallardan tuzilsa, yoki bitta noturg'un va bitta turg'un noohangdosh tovushlardan tuzilsa ham ular noturg'un intervallar bo'ladi. Har qanday noohangdosh interval ladda qanday holatda bo'lishiga qaramay **noturg'un interval** hisoblanadi.


Noohangdosh va noturg'un intervallarning yechilishi ustida fikr yuritadigan bo'lsak, noohangdosh intervallarning ohangdosh intervallarga o'tishi, noohangdosh intervallarning yechilishi deyiladi, noturg'un intervallarning turg'un intervallarga o'tishi esa noturg'un intervallarning yechilishi deb ataladi. Noohangdosh interval ohangdosh intervalga yechilganda ohangdosh intervalning turg'un bo'lishi yoki bo'lmasligi hech qanday ahamiyat kasb etmaydi, ammo noturg'un interval turg'un intervalga o'tgandagina u yechilgan hisoblanadi.

Noohangdosh va noturg'un intervallarning yechilishini ma'lum lad qoidalariga asosida o'rganish lozim, chunki ularning musiqa amaliyotida qo'llanilishi va yechilishi noturg'un tovushlarning turg'un tovushlarga tortilishi qoidasiga asoslanadi. Shuning uchun ham biror intervalning yechilishini bilish uchun dastlab u qaysi tonallikda ekanligini aniqlash lozim bo'ladi.

Quyidagi major va minor tonalligida ohangdosh bo'lmagan intervallarning yechilishiga misollar keltiriladi.


Katta 2 va kichik 7 ning yechilishi.

C – dur







c) nohangdosh holatdagi sof kvintalarning yechilishi: (akkordlarning pastgi tovushidan uning birorta yuqori tovushi hosil bo‘ladigan sof kvarta ohangdosh hosil bo‘ladi)



v) kichik 2 va 7 ning yechilishi




g) uchtovushlikning yechilishida har ikki tovush ham tortilishi tomon bir bosqich o‘tadi, orttirilgan kvartada ikki tomonga, kamaytirilgan kvintada bir-biriga qarab yo‘naladi:



Eslatma: Uch tonlik bosqichlardan birortasining tasodifiy xromatik o'zgarishi natijasida hosil bo'lishi mumkin. Bunda uning tarkibida turg'un tovush bo'lsa va yechilish zarurati paydo bo'lsa, u o'z o'rnida qoladi. Noturg'un tovush esa tortilish tomonga qarab yo'naladi. Masalan:




Xarakterli intervallarning yechilishi tartibi ham noturg'un tovushlarning yechilishi tartibiga o'xshash bo'ladi: xarakterli intervallar tarkibida ikkita noturg'un tovush bo'lsa, ularning har ikkalasi tortilish tomonga qarab turg'un tovushlarga (ort.2 va kam.7) o'tadi, agarda bitta turg'un tovushi bo'lsa, bu tovush o'z o'rnida qoladi, noturg'un tovush esa tortilish tomonga qarab turg'un tovushga o'tadi (kam.4 va ort.5).



Eslatma: Agar ladning biror bosqichini tasodifiy xromatik o'zgartirish natijasida hosil bo'lgan ort.2 va kam.7 tarkibida turg'un tovush bo'lsa, yechilish vaqtida bu tovushlar o'z o'rnida qoladi, masalan:



Barcha noturg'un ohangdosh intervallar noturg'un tovushlar tortilishi qoidasiga asosan yechiladi. Agar intervalning har ikkala tovushi turg'un bo'lsa ular qo'shni turg'un tovushlarga o'tadi. Agar interval tovushlaridan birortasi turg'un bo'lsa, u o'z o'rnida qoladi, boshqasi esa turg'un tovushga aylanadi.



Tayanch iboralar

Turg'un va noturg'un intervallar, xarakterli intervallarning yechilishi, turg'un interval, intervalning yechilishi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Tabiiy major va tabiiy minor bosqichlaridan qanday intervallar hosil bo'ladi?
2. a) Tabiiy majorning bosqichlaridan va qaysi bosqichlaridan necha xil sof primalar, kichik sekundalar, katta sekundalar, kichik tertsiyalar, sof kvartalar, kamaytirilgan kvintalar, sof kvintalar, kichik sekstalar, katta sekstalar, kichik septimalar, katta septimalar, va sof oktavalarni tuzilishi mumkin?
b) Tabiiy minor bosqichlaridanchi ?
3. Majorda oltinchi bosqichning pasaytirilishidan va minorda yettinchi bosqichning ko'tarilishidan hosil bo'lgan tabiiy ko'rinishdagi major va minorda uchraydigan intervallar qanday ataladi ?
4. Qanday intervallar turg'un intervallar nomi bilan yuritiladi ?
5. Qanday intervallar qaysi vaqtlarda turg'un intervallar hisoblanadi ?
6. Noohangdosh intervallar bilan noturg'un intervallarni farqi nimada ?
7. Noohangdosh interval bilan noturg'un intervallarning yechilishdagi farqni tushuntiring ?
8. Noohangdosh intervallarning yechilishi tartibini ayting?
9. Noturg'un intervallarning yechilishi qoidasi nimadan iborat ?
10. Uchtonlik qanday yechiladi ?
11. Noturg'un intervallarning yechilishi ?

9-MAVZU. GARMONIK MAJOR VA GARMONIK MINOR INTERVALLARI. XARAKTERLI INTERVALLAR

Reja:

1. Garmonik major va minor intervallari
2. Xarakterli intervallar.
3. Garmonik minorning intervallari jadvali



Garmonik major va garmonik minor intervallari-xarakterli intervallar

Garmonik majorda VI- pogʻonaning yarim tonga pasaytirilishi va garmonik minorda esa, VII- pogʻonaning yarim tonga koʻtarilishi sababli bu ladlarda hosil boʻlgan intervallari tabiiy koʻrinishdagi major va minor intervallaridan farq qiladilar. Avvalo garmonik major va garmonik minorda hosil boʻladigan intervallar tabiiy koʻrinishda uchramaydilar. Bu xildagi intervallarni xromatik yoki xarakterli intervallar nomi bilan ataydilar. Musiqa amaliyotida bu xildagi intervallar faqat garmonik major yoki garmonik minorga xos boʻlgan intervallardir. Xarakterli intervallar toʻrtta, ular: orttirilgan 2, kamaytirilgan 7, orttirilgan 5 va kamaytirilgan 4 dan iborat. Bu holat qayd etilganidek, majorda 6-pogʻonaning pasaytirilishi bilan hosil boʻladi.

C-dur garmonik

VI bosqichdan
ort.2

VII bosqichdan
kam.7

VI bosqichdan
ort.5

III bosqichdan
kam.4

Minorda esa VII bosqichning koʻtarilishi bilan hosil boʻladi.

a-moll garmonik

VI bosqichdan
ort.2

VII bosqichdan
kam.7

VI bosqichdan
ort.5

III bosqichdan
kam.4

Ayrim diatonik intervallarning shakli oʻzgaradi, chunonchi sof kvarta bilan sof kvinta oʻrniga orttirilgan 4 bilan kamaytirilgan 5 shaklida ikkita uch tonlik sodir boʻladi.

Garmonik C-dur

VI bosqichdan
ort.4

II bosqichdan
kam.5

Garmonik a-moll

IV bosqichdan
ort.4

VII bosqichdan
kam.5

Eslatma: Tabiiy major va tabiiy minor bosqichlaridan tuziladigan intervallarni amaliy jihatdan bilish, albatta zarur bo'lsa, garmonik major va garmonik minorda ularning qaysi bosqichlardan tuzilganligini bilish bilan chegaralanish mumkin:


- a) xarakterli intervallar;
- b) kichik sekundalar;
- v) katta va kichik tertsiyalar (uchtovushliklar tuzish uchun bilish zarur);
- g) orttirilgan kvartalar va kamaytirilgan kvintalar;


Garmonik minorning intervallari jadvali

Interval nomi	Bosqichlarning tuzilishi (lya minor)						
	I	II	III	IV	V	VI	VII
Sof prima							
Kichik sekunda							
Katta sekunda							
Ort. sekunda							
Kichik tertsiya							
Katta tertsiya							

Kam. kvarta	
Sof kvarta	
Ort. kvarta	
Kam kvinta	
Sof. kvinta	
Ort. kvinta	
Kichik seksta	
Katta seksta	
Kam. septima	
Kichik septima	
Katta septima	
Sof oktava	

Melodik lادلarda yangi intervallar hosil bo‘lmaydi. Bu yerda xarakterli intervallardan oldingi bosqichlardan kamaytirilgan 4 va orttirilgan 5 qoladi. Bundan tashqari ba’zi bir intervallarning o‘rin almashinuvi sodir bo‘ladi, ya’ni o‘zaro almashuvchi ikki juft uch tonlar qo‘shni bosqichlarda bo‘ladi:





Tayanch iboralar

Garmonik major va garmonik minor tonalliklarining intervallari, xarakterli intervallar, katta va kichik sekundalar, katta va kichik tertsiyalar (uchtovushliklar tuzish uchun bilish zarur), orttirilgan kvartalar va kamaytirilgan kvintalar

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Garmonik major va garmonik minor qanday hosil bo‘ladi?
2. Garmonik major va garmonik minordan hosil bo‘lgan intervallar nima deb ataladi?
3. Xarakterli intervallar nechta va ular qaysilar ?
4. Garmonik major intervallarini sanab bering?
5. Garmonik majoring nechanchi pog‘onalari orasida orttirilgan sekunda hosil bo‘ladi?
6. Garmonik minor pog‘onalarini berilgan tovushdan tuzing?
7. Garmonik minordagi orttirilgan sekunda nechanchi pog‘onalar orasida joylashtiriladi?
8. Barcha major tonalliklarining soni nechta?
9. Garmonik majorda nechta orttirilgan 4, kamaytirilgan 5 bor ?
10. Garmonik minorda bular nechta ?
11. Garmonik major bilan garmonik minordagi xarakterli intervallarning yechilishiga doir misollar keltiring?

10-MAVZU. AKKORD. UCHTOVUSHLIK

Reja:

- 1.Akkord tushunchasi. Akkord turlari.
- 2.Uchtovushlik tushunchasi.
- 3.Uchtovushlik turlari va aylanmalari.



Akkord tushunchasi. Akkord turlari

Bir biri bilan uyg'unlashgan tovushlarning bir vaqtda eshitilishi **ohangdoshlik** hosil qiladi.

Tertsiya bo'yicha joylashgan yoki joylashtirish mumkin bo'lgan, hamda bir vaqtda qo'shib eshitilgan uch va undan ortiq tovushlarga **akkord** deyiladi.

Akkord bo'lishi uchun quyidagilar mavjud bo'lishi shart: Birinchidan, tovushlar miqdori uchdan kam bo'lmasligi, ikkinchidan, bu tovushlarning tertsiya oralig'ida bo'lishligi va uchinchidan bu tovushlarning qo'shib eshitilishi akkord bo'la olmaydi, bunday tovushlar qo'shilmasi akkord bo'lmagan birikmalarga kiradi, qachonki uch va undan ortiq tovush bir yo'la eshitilishi bilan birga ular tertsiya holatida joylashishi kerak.

Uchtovushlik tushunchasi

Uchta tovushdan iborat tertsiya bo'yicha joylashgan akkord **uchtovushlik** deyiladi.

Katta va kichik tertsiyalardan uchtovushlikning to'rt xili hosil bo'ladi:

1.Major yoki katta uchtovushlik. Major yoki katta uchtovushlik katta tertsiya va kichik tertsiyalardan tuziladi va ikki chetidagi tovushlar sof kvinta intervalidan iborat bo'ladi.

2.Minor yoki kichik uchtovushlik kichik tertsiya va katta tertsiyadan tuziladi. Ikki chetidagi tovushlar sof kvinta intervalidan iborat bo'ladi.

3.Orttirilgan uchtovushlik. Ikkita katta tertsiyadan tuziladi va ikki chetidagi tovushlari oralig'i orttirilgan kvintadan iborat bo'ladi.

4.Kamaytirilgan uchtovushlik Ikkita kichik tertsiyadan tuziladi va ikki chetidagi tovushlar oralig'i kamaytirilgan kvintadan iborat bo'ladi.


Major uchtovushligi:




Major va minor uchtovushliklaridan hosil bo'ladigan barcha intervallar ohangdosh intervallardir. Orttirilgan va kamaytirilgan uchtovushliklardan tuzilgan intervallar esa noohangdosh intervallardir. Ular orttirilgan 5 va kamaytirilgan 5 dan iborat. Demak, major va minor uchtovushliklar ohangdosh bo'ladi, orttirilgan va kamaytirilgan uchtovushliklar esa noohangdosh bo'ladi. Akkord tovushlari tertsiya bo'yicha joylashgan bo'lsa, unga akkordning asosiy ko'rinishi deyiladi. Akkordning har bir tovushi o'zining mustaqil nomiga ega. Tovushlarning nomlari asosiy ko'rinishdagi akkordning pastdan yuqoriga tomon joylashgan tovushlari hosil qilgan intervallar nomidan olingan. Uchtovushlikning eng pastki tovushi – asosiy tovushi yoki prima, ikkinchi yoki o'rta tovushi – tertsiya, uchinchi yoki eng yuqoridagi tovushi kvinta deb ataladi.

Uchtovushlik turlari va aylanmalari


Uchtovushlik ikkita aylanmaga ega. Uchtovushlikning birinchi aylanmasi sekstakkord deyiladi, unda prima tovushi bir oktava yuqoriga ko'chiriladi, uchtovushlikning ikkinchi aylanmasi kvartsekstakkord deyiladi, bunda ham primasi, ham tertsiyasi bir oktava yuqoriga ko'chiriladi. Sekstakkordning pastki tovushi tertsiya bo'ladi, kvartsekstakkordning pastki tovushi esa kvinta bo'ladi:



Sekstakkord birinchi aylanmasi shartli ravishda 6 raqami bilan belgilanadi, chunki bu akkordning pastki tovushini yuqoriga ko'tarishi natijasida seksta intervalining hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi. Kvartsekstakkord olti-to'rt 6₄ raqamlari bilan belgilanadi. Akkord asosiy tovushdan prima va tertsiya tomon tuziladi. Biror tonallikda tonika sekstakkordini yoki kvartsekstakkordini tuzish uchun avval uchtovushlikning asosiy ko'rinishi aniqlanadi, keyin aylanishlari qoidasiga asoslanib, talab qilingan akkord izlanadi, masalan: sol majordan akkord tuzish talab qilinsa, bu quyidagicha bo'ladi:



yoki mi minorda kvartsekstakkord tuzish talab qilinsa, quyidagicha bo'ladi:




Major yoki minor uchtovliklarining aylanishlarini istalgan tovushdan tuzish va ularning tonalliklarini aniqlash uchun quyidagilarni bilish zarur:

1) akkordning qo'shni tovushlari orasida qaysi xildagi intervallar hosil bo'lishini bilish va; 2) sekstakkordda yuqori tovushi prima ekanligini, kvartsekstakkordda esa o'rta tovush primaligini bilish talab qilinadi. Quyidagi major va minor uchtovushliklari aylanishining interval tuzilishiga oid chizma keltirilgan:

Major sekstakkordi	kich.3+sof.4;
Major sekstakkordi	kat.3+sof.4;
Major kvartsekstakkordi	sof.4+kat.3
Minor kvartsekstakkordi	sof.4+kich.3

Major va minor uchtovushliklari aylanishining interval tuzishni va ulardagi asosiy tovushlar ko'rinishini bilganda, kerak bo'lgan akkordni tuzish juda oson bo'ladi, masalan: sol tovushidan minor sekstakkordi tuzish talab qilinsa:



Mi major sekstakkordi hosil bo'ladi. Sol tovushidan kvartsekstakkord tuzish kerak bo'lsa:



Do minor kvartsekstakkordi hosil bo'ladi va h.k.

Tayanch iboralar

Akkordlar, uchtovushliklar, uchtovushliklarning aylanishi, akkordning asosiy ko'rinishi, prima, tertsiya, kvinta, uchtovushlik aylanmasi, sekstakkord, kvartsekstakkord, major sekstakkordi, minor sekstakkordi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Akkord deb qanday tovushlar majmuasiga aytiladi?
2. Akkordlar xillarini aytib bering. Akkordning qaysi turi uchtovushlik deyiladi?

3. Uchtovushliklar necha xil bo‘ladi?
4. Uchtovushliklar qaysi ko‘rinishlarda tuziladi? Ulardan qaysilari ohangdosh va qaysi birlari noohangdosh?
5. Uchtovushlikning har bir tovushi qanday nomlar bilan ataladi?
6. Akkordlarning asosiy ko‘rinishini tushuntiring?
7. Uchtovushliklarning aylanishlarini aytib bering?
8. Uchtovushlik aylanmasiga misol keltiring.
9. Sekstakkord uchtovushlikning nechanchi aylanmasi?
10. Mi tovushidan major kvartsektakkordi tuzing.
11. Sekstakkord qanday raqam bilan belgilanadi?

11-MAVZU. LADNING ASOSIY VA YONDOSH UCHTOVUSHLIKLARI

Reja:


- 1.Ladning asosiy uchtoovushliklari.
- 2.Ladning yondosh uchtoovushliklari.
- 3.Akkordlar ketma-ketliklari.



Ladning asosiy uchtoovushliklari


Major va minorning barcha pog'onalaridan uchtoovushliklar tuzish mumkin. Tabiiy major pog'onalaridan uchtoovushliklar tuzilganda ulardan uchta major (asosiy bosqichlarda) ekanligini ko'rish mumkin. Bular I, IV va V pog'onalardagi uchtoovushliklardir. Har bir uchtoovushlik (tuzilgan pog'onasiga qarab) mustaqil nomga ega bo'ladi. I pog'onadan tuzilgan uchtoovushlik – **tonika uchtoovushligi** deyiladi va T harfi bilan belgilanadi. IV pog'onadan tuzilgan uchtoovushlik **subdominanta uchtoovushligi** deyiladi va S harfi bilan belgilanadi. V pog'onadan tuzilgan uchtoovushlik **dominanta uchtoovushligi** deyiladi va D harfi bilan belgilanadi.

Bular major uchtoovushliklari bo'lganligi sababli major ladi uchun juda xarakterlidir. Bu uchtoovushliklar boshqa ko'rinishdagi uchtoovushliklarga qaraganda lad funktsiyalarini (ya'ni turg'un va noturg'un tovushlar munosabatini) ko'proq ifodalaydi. Shuning uchun ham ular asosiy uchtoovushliklar deb ataladi va majorda T, S, D, minorda t, s, d harflari bilan belgilanadi.




Ladning barcha tovushlari asosiy uchtoovushliklar tarkibiga kiradi. Asosiy uchtoovushliklarning roli hamda **garmonik funksiyasi** ladning ahamiyatini, ular tarkibiga qanday tovushlar (pog'onalar) bo'lishiga bog'liqdir.

Tabiiy minorning barcha bosqichlaridan uchtoovushlik tuzganimizda, ularning asosiy uchtoovushliklari majordagiga qarama-qarshi o'laroq minor uchtoovushliklari ekanligini ko'ramiz, ammo kichik t, s, d harflari bilan belgilanadi.



Garmonik major va minorda asosiy uchtovushliklarining tuzilishi tabiiy major va minordagidan farq qiladi. Majorning VI pog'onasi pasaytirilganda minor subdominanta uchtovushligi hosil bo'ladi va garmonik majorni yanada mayin eshitishtilishiga yordam qiladi. Minorning VII pog'onasi ko'tarilganda major dominanta uchtovushligi hosil bo'ladi. Bu esa minorga major ladining ba'zi xususiyatlarini kiritadi:



Asosiy uchtovushliklar ladning garmonik negizi bo'lganligi uchun musiqa qad keng qo'llaniladi. Akkordlar qo'shiluvi deb ulardagi tovushlarning birin-ketin va ravon harakatiga aytiladi. Bir necha akkordning birin-ketin harakati garmonik aylanma deyiladi:

a) C-dur T - D - S

b) C-dur T - S - T

v) a-moll t - d - t

g) a-moll t - s - t

d) C-dur T - S - D - T

I IV₆₄ V₆ I I₆ IV V₆₄ I₆ I₆₄ IV₆ V I₆₄

e) a-moll t - s - d - t

I IV₆₄ V₆ I I₆ IV V₆₄ I₆ I₆₄ IV₆ V I₆₄

Ladning yondosh uchtovushliklari

Asosiy uchtovushlik pogʻonalaridan (II, III, VI, VII pogʻonalari) dan tashqari barcha pogʻonalar yondosh pogʻonalardir. Ular ladning asosiy uchtovushliklariga nisbatan ikkinchi darajali ahamiyatga ega.

Tabiiy majorda uchta minorli va bitta kamaytirilgan uchtovushlik yondosh uchtovushlik boʻladi (VII pogʻonada).

Tabiiy minorda uchta minorli va bitta kamaytirilgan uchtovushlik yondosh uchtovushlik boʻladi (II pogʻona).

Garmonik majorda III pogʻonada – bitta minorli, II va VII pogʻonalarda – ikkita kamaytirilgan va VI pogʻonada – bitta orttirilgan uchtovushlik hosil boʻladi. Garmonik minorda: VI pogʻonada bitta minorli, II va VII pogʻonalarda – ikkita kamaytirilgan va III pogʻonada – bitta orttirilgan uchtovushlik hosil boʻladi.

Bularga misollar:

Tabiiy C - dur

Major uchtovushligi	Minor uchtovushligi	Kamaytirilgan uchtovushlik
I IV V	II III VI VII	
Asosiy uchtovushlik	Yondosh uchtovushlik	

Garmonik C – dur

Major uchtovushligi	Minor uchtovushligi	Kamaytirilgan uchtovushlik	Orttirilgan uchtovushlik
I V IV	III VII II VI		
Asosiy uchtovushlik	Yondosh uchtovushlik		

Tabiiy a – moll

Minor uchtovushligi Major uchtovushligi Kamaytirilgan uchtovushlik

I IV V III VI VII II

Asosiy uchtovushlik Yondosh uchtovushlik

Garmonik a – moll

Major uchtovushligi Minor uchtovushligi Kamaytirilgan uchtovushlik Orttilirilgan uchtovushlik

I IV V VI II VII III

Asosiy uchtovushlik Yondosh uchtovushlik

Shunday qilib, uchtovushliklarning umumiy soni quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1.Tabiiy major yoki minorda – uchta majorli va uchta minorli va bitta kamaytirilgan uchtovushlik bo‘ladi.

2.Garmonik major yoki minorda – ikkita majorli, ikkita minorli, ikkita kamaytirilgan va bitta orttirilgan uchtovushlik bo‘ladi. Orttilirilgan uchtovushlik tonika akkordiga yechiladi. Bu uchtovushlik tarkibidagi ikkita turg‘un tovush, tonika uchtovushligi tovushlari bilan bir xilda bo‘lganligi sababli o‘z o‘rnida qoladi, uchinchi noturg‘un tovush esa, turg‘un tovushga o‘tadi. Majorda pasaytirilgan VI pog‘ona kichik sekunda pastga harakatlanib, V pog‘onaga o‘tadi, minorning VI pog‘onasi esa kichik sekunda yuqoriga harakat qiladi va I pog‘onaga o‘tadi. Masalan:



C-dur a-moll



VI I₆₄ III I₆

Akkordlar ketma-ketliklari

Orttirilgan uchtovushliklar majorda tonika kvartsestakkordiga, minorda esa, tonika sestakkordiga o‘tadi. Kamaytirilgan uchtovushlik faqatgina tonika kvartsestakkord shaklida qo‘llanadi. Tabiiy major va garmonik minorning tertsiya bo‘yicha joylashgan barcha uchtovushliklari (umumiy tovushga ega


bo'lganliklari sababli) uchta funksional to'da yoki guruh hosil qiladi.

C-dur tonikasi to'dasi	Subdominanta to'dasi	Dominanta to'dasi
		
VI I III	II IV VI	III V VII

a-moll tonikasi to'dasi	Subdominanta to'dasi	Dominanta to'dasi
		
VI I III	II IV VI	III V VII

VI va III bosqich uchtovushliklari asosiy uchtovushliklar oralig'ida bo'lganligi uchun funksional ikkilanish xususiyatiga egadir.

C-dur



T S D T T S D T T S D T T S D T

Tayanch iboralar

Yondosh pog'onalar, major va minorning yondosh uchtovushliklari, tabiiy va garmonik major va minor pog'onalaridan tuzilgan uchtovushliklar, yondosh uchtovushlik, major va minorning asosiy uchtovushliklari, tonika uchtovushligi, subdominanta uchtovushligi, dominanta uchtovushligi, **T, S, D** belgilari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Ladning I, IV va V bosqichidan tuzilgan uchtovushliklarni qanday nomlar bilan ataladi? Ularning qaysi birlari mustaqil nomga ega ?
2. Uchtovushliklar ladda qanday ahamiyat kasb etadi ?
3. Tabiiy major uchtovushligi tarkibidagi tertsiyalarning joylashishini tushuntiring?
4. Minor uchtovushligi tarkibidagi tertsiyalarning joylashuvini aytib bering?
5. Garmonik major tarkibidagi uchtovushliklarni tushuntiring?

6. Tabiiy majorda ulari tushuntiring?
7. Yondosh uchtovushliklar deb qaysi bosqichlardan tuzilgan uchtovushliklarga aytiladi ?
8. Tabiiy va garmonik major yondosh uchtovushliklarining tuzlishi qanday bo‘ladi ?
9. Majorda orttirilgan uchtovushlik qaysi akkordga yechiladi ?
10. Minorda-chi?
11. Tabiiy major va garmonik minorda qaysi funksional to‘dalar uchtovushliklar hosil qiladi ?

12-MAVZU. SEPTAKKORD VA UNING TURLARI. DOMINANTSEPTAKKORD

Reja:

1. Septakkord tushunchasi va uning turlari.
2. Dominantseptakkord, uning tuzilishi
3. D₇ aylanmalari va yechilishi.




Septakkord tushunchasi va uning turlari

Tertsiya asosida joylashgan to'rtta tovushdan iborat akkord - **septakkord** deyiladi. Septakkordning ikki chetidagi tovushi oralig'i septima intervalida bo'ladi. Shuning uchun barcha septakkordlar dissonans akkord deb hisoblanadi. Musiqa amaliyotida septakkordlar xilma-xil ko'rinishlarda qo'llaniladi.

Masalan, majorli uchto'vushlik va katta septimadan tuzilgan akkord katta majorli septakkord deyiladi; minorli uchto'vushlik bilan katta septima - katta minorli septakkordni tashkil etadi; majorli uchto'vushlik va kichik septima - kichik majorli septakkordni tuzadi va hokazo.

Klassik musiqada keng tarqalgan va ko'p qo'llaniladigan septakkordlar bu kichik majorli, kichik minorli, kichik va kamaytirilgan septakkordlardir.

Kichik majorli septakkord majorli uchto'vushlik va kichik septimadan iborat.




Dominantseptakkord, uning tuzilishi

Major va garmonik minorning V pog'onasidan tuzilgan septakkord - **dominantseptakkord** deyiladi. Dominantseptakkord yuqori tomonidan kichik tertsiya qo'shilgan major uchto'vushligidan (kat.3+kich.3+kich.3) tuziladi. Dominantseptakkord tovushlari asosiy tovushdan boshlab sanalganda: prima (akkordning asosi), tertsiya, kvinta va septima (akkord cho'qqisi) lardan iborat.

Dominantseptakkord V7 yoki D7 bilan belgilanadi, har ikkalasini qo'llash ham xato bo'lmaydi.


V7-beshinchi bosqich septakkordi,

D7-dominanta septakkordi.



D₇ aylanmalari va yechilishi

Dominantseptakkord uchta aylanishga ega, bulardan birinchi aylanmasi – **kvintsektakkord**-6₅ raqam bilan belgilanadi, ikkinchi aylanmasi – **tertskvartakkord** 4₃ raqamlari bilan belgilanadi va uchinchi aylanmasi **sekundakkord** 2 raqami bilan belgilanadi. Shunday qilib dominantseptakkordning birinchi aylanmasi –kvintsektakkord, ikkinchi aylanmasi – tertskvartakkord, uchinchi aylanmasi –sekundakkord deb ataladi.



Dominantseptakkordning biror tovushidan yoki tonallikdan dominantseptakkord yoiniki uning aylanmalarini tuzush uchun, akkord tashkil qiluvchi intervallarning joylashuvi va tuziladigan bosqichlarning kelishi tartibini bilish zarur.


V₇ –kat.3+kich.3+kich.3: V pog‘onada

V6₅ –kich3+kich.3+kat.2; VII pog‘onada

V4₃ –kich.3+kat.2+kat.3; II pog‘onada

V₂ –kat.2+kat.3+kich.3; IV pog‘onada

Dominantseptakkord noohangdosh akkordlar sirasiga kiradi. Uning tarkibida ikkita noohangdosh interval bor, bular kichik 7 va kamaytirilgan 5 intervallaridir.



Dominantseptakkord aylanmalarida bu noohangdosh intervallar katta 2 va orttirilgan 4 ga aylanadilar. Dominantseptakkord va uning aylanmalari yechilishida noturg‘un tovushlarning turg‘un tovushlarga yechilishi qoidasiga asoslanadi.

Dominantseptakkord kvintasiz asosiy tovushi uchlantirilgan to‘liq bo‘lmagan tonika uchtovushligiga yechiladi. V, VII va II pog‘onalar I pog‘onaga

o'tadi, IV pog'ona esa III pog'onaga o'tadi, (V pog'ona kvarta yuqoriga ko'chadi).

Kvintsextakkord primasi juftlantirilgan to'liq bo'lmagan tonika uchtovushligiga yechiladi. VII va II pog'onalar I pog'onaga, IV pog'ona III pog'onaga o'tadi, V pog'ona o'z o'rnida qoladi.

Tertskvartakkord asosiy tovushi oktavaga juftlantirilgan, to'liq tonika uchtovushligiga yechiladi. II pog'ona I pog'onaga, IV pog'ona III pog'onaga o'tadi, V pog'ona o'z o'rnida qoladi. VII pog'ona esa oktavaga juftlantirilgan I pog'onaga o'tadi.

Sekundakkord primasi juftlantirilgan tonika sextakkordiga yechiladi. VI pog'ona III pog'onaga o'tadi, V pog'ona o'z o'rnida qoladi, VII va II pog'onalar I pog'onaga o'tadi.

C-dur

D₇ T D₇ T D₆₅ T D₄₃ T D₂ T₆

a-moll

D₇ t D₇ t D₆₅ t D₄₃ t D₂ t₆

Dominantseptakkordning asosiy ko'rinishi dominantseptakkord bilan tonika uchtovushligida umumiy tovush V pog'ona sakrash yo'li bilan I pog'onaga yechiladi. Bu hol tonika uchtovushligi asosiy tovushining pastda turishi bilan bog'liq bo'ladi.

Tayanch iboralar

Septakkord, dominantseptakkord va uning aylanmalari, kvintsextakkord, tertskvartakkord, sekundakkord, noohangdosh akkord, to'liq bo'lmagan tonika uchtovushligi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Septakkord nima ?
2. Septakkordlarning ko'p qo'llanadigan xillarini ayting?
3. Dominantseptakkordning aylanmalari va yechilishini tushuntiring ?
4. Septakkord tovushlari nima deb ataladi ?
5. Majorda va garmonik minorda V bosqichdan tuziladigan septakkordlar nima deyiladi ?
6. Dominantseptakkord aylanmalarining nomlari nimaga asoslanadi ?
7. Dominantseptakkord va uning aylanmalari, yechilishlari qoidasini tushuntiring ?

13-MAVZU. YETAKCHI SEPTAKKORD. SUBDOMINANTSEPTAKKORD

Reja:

- 1.Yetakchi septakkord tushunchasi, uning turlari, tuzilishi, aylanmalari va yechilishi.
- 2.Subdominantseptakkord tushunchasi, uning turlari, tuzilishi, aylanmalari va yechilishi.




Yetakchi septakkord tushunchasi, uning turlari, tuzilishi, aylanmalari va yechilishi


Septakkordlar orasida dominantseptakkorddan tashqari yetakchi septakkord ham ko'p qo'llaniladi. Ular tabiiy va garmonik majorning, shuningdek garmonik minorning VII pog'onasida tuziladi va **yetakchi septakkord** deyiladi.

Yetakchi septakkordning ikki chetidagi tovushlar tabiiy majorda kichik septima intervalini hosil qiladi va **kichik yetakchi septakkord** deyiladi. Kichik yetakchi septakkord ustki tomondan katta tertsiya qo'shilmali kamaytirilgan uchtovushliklardan tuziladi (kich.3+kich.3+kat.3);

Yetakchi septakkordning ikki chetidagi tovushlari garmonik major va minorda kamaytirilgan septimani tashkil qiladi. Shuning uchun ham u **kamaytirilgan yetakchi septakkord** deyiladi. Kamaytirilgan yetakchi septakkord kamaytirilgan uchtovushlikdan iborat bo'lib, ustki tomondan kichik tertsiya qo'shiladi, (kich.3+kich.3+kich.3); Yetakchi septakkord quyidagicha yoziladi-DVII₇.



Yetakchi septakkordlar tertsiya tovushi juftlantirilgan tonika uchtovushligida yechiladi:



Yetakchi septakkordlar ham uchta aylanmaga ega bo‘lib, ular asosiy va aylanma septakkordlar tarzida qo‘llaniladi:

The image displays four rows of musical notation, each representing a primary triad and its three secondary triads. The triads are labeled as VII7, VII6/5, VII4/3, and VII2. The rows are: C-dur, G-dur, D-dur, A-dur, E-dur, H-dur, Fis-dur, and Cis-dur. Each triad is shown in a specific key signature and is labeled with its Roman numeral and degree.

Subdominantseptakkord tushunchasi, uning turlari, tuzilishi, aylanmalari va yechilishi

Musiqada II pog‘ona septakkordlari ham qo‘llanadi. Bu septakkord funksional jihatdan subdominanta akkordlari to‘dasiga kiradi va shuning uchun ham **subdominantseptakkord** nomini olgan. U majorda II pog‘onadan kichik minor septakkordi hosil qiladi:

The image shows a musical staff with a treble clef and a key signature of one sharp (F#). The notes are G, A, B, C, D, E, and F#. The chord is labeled 'C-dur kich. min. II₇ kich.7' and 'minor uchtovushligi'.

Minorda II pog‘onadan kichik septakkord tuziladi:

The image shows a musical staff with a treble clef and a key signature of two flats (Bb, Eb). The notes are G, Ab, Bb, C, D, Eb, and F. The chord is labeled 'c-moll kamaytirilgan uchtovushlik' and 'kich. II₇ kich.7'.

Subdominanta to‘dasidagi II₇ pog‘ona septakkordi aylanmalaridan subdominanta to‘laroq ifodalangan II (basda IV) aylanmasi ko‘proq qo‘llaniladi:



Akkordlar musiqasida faqat kuyiga jo‘rovgina bo‘lib qolmasdan, balki kuyning o‘ziga ham uchrashlari mumkin. Bu hol kuyning akkord tovushlari harakatiga (garmonik figuratsiya tovushlariga) ham bog‘liq bo‘ladi.

Tayanch iboralar

Yetakchi septakkord va aylanmalari, ikkinchi pog‘ona septakkordi, kichik yetakchi septakkord, kamaytirilgan yetakchi septakkord.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar


1. Yetakchi septakkordlarni aytib bering?
2. Major va minorda qanday yetakchi septakkordlar hosil bo‘ladi ?
3. Kichik va kamaytirilgan yetakchi septakkordning tuzilishini tushuntiring?
4. Yetakchi septakkordning yechilishini aytib bering?
5. Subdominanta septakkordi nechanchi pog‘onadan tuziladi ?

14-MAVZU.

TONALLIKLAR POG‘ONADOSHLIGI. ALTERATSIYA VA XROMATIZM. TRANSPOZITSIYA. MODULYATSIYA

Reja:

1. Tonalliklar pog‘onadoshligi haqida tushuncha.
2. Alteratsiya va xromatizm.
3. Xromatik gamma tuzilishi.
4. Asar tonalligini aniqlash.
5. Transpozitsiya.
6. Modulyatsiya va og‘ishma.




Tonalliklar pog‘onadoshligi haqida tushuncha

Barcha major va minor tonalliklari o‘zaro garmonik munosabatdagi o‘xshash tonalliklar guruhini hosil qiladi. Tonika uchtovushliklari tabiiy va garmonik tonalliklarning pog‘onalaridan hosil bo‘lgan tonalliklar **pog‘onadosh tonalliklar** deb ataladi. Musiqa asarida ilk tonallik **bosh tonallik**, musiqaning rivojlanish jarayonida uni almashtiruvchi tonallik esa **yondosh tonallik** deyiladi.

Major va minor tonalliklari u yoki bu tomondan o‘xshashlik darajasiga ega. O‘xshashlik turli-tuman ladlarga qarashli tonalliklarda ham bo‘lishi mumkin.

Tonalliklar o‘xshashligi ularida umumiy (o‘xshash) tovushlarning mavjudligiga qarab aniqlanadi. Shuning uchun ham major va minor eng yaqin bo‘lgan ladlardir, chunki ularning barcha tovushlari o‘xshash (bir xil) dir. Bitta kalit belgisi bilan farq qiladigan tonalliklar birinchi darajali o‘xshash tonalliklar deyiladi, chunki ularning oltita tovushi o‘xshash. Bu tonalliklar bitta diyez bilan bir-biridan farq qiladigan sol major va re minor bir ladga, shuningdek, bitta diyez bilan farq qiladigan sol major va si minor boshqa bir ladga qarashli bo‘lishi mumkin.

Birinchi darajali o‘xshash tonalliklar guruhi bosh major tonalligi bilan munosabatda u tonallik uchtovushliklari bosh tonallikning barcha pog‘onasida joylashadi. Har bir tonallik oltitadan pog‘onadosh tonallikka ega. Masalan:




VII pog‘onasi kamaytirilgan (si, re, fa) uchtovushlik hosil qiladi. Shu sababli u major yoki minorning tonikasi bo‘la olmaydi. II III IV V va VI pog‘onalarida

joylashgan akkordlar shu tonallikning tonikasi bo'lishi mumkin, ular bosh tonallikdan bitta kalit belgisi bilan farq qiladi (do major misolida).

- | | |
|-------------|--|
| II pog'ona | -re minor, bitta bemolga ega : |
| III pog'ona | -mi minor, bitta diyezga ega; |
| IV pog'ona | -fa major, bitta bemolga ega ; |
| V pog'ona | -sol major, bitta diyezga ega ; |
| VI pog'ona | -lya minor do major kabi kalit belgisiga ega emas; |




Shunday qilib, birinchi darajali o'xshash tonalliklar guruhi parallel minor tonalliklarning, ya'ni dominant tonalligi va uning parallel minorini, shuningdek, subdominanta tonalligi va uning parallel minorini hosil qiladi. Birinchi darajali o'xshash tonalliklar guruhi u yoki bu minor tonalliklari bilan munosabatda u tonallikning uchtovushliklari bosh minor uchtovushligining (kamaytirilgan uchtovushlik hosil qiluvchi II pog'onasidan tashqari) pog'onalarida joylashadi.



- | | |
|-------------|--|
| III pog'ona | -do major, lya minor bilan hamma tovushlari bir xil; |
| IV pog'ona | -re minor, bitta bemolga ega; |
| V pog'ona | -mi minor, bitta diyezga ega; |
| VI pog'ona | -fa major, bitta bemolga ega; |
| VII pog'ona | -sol major, bitta diyezga ega; |

Birinchi darajali o'xshash tonalliklar guruhi parallel major, tabiiy dominant tonalligi va uning parallel major tonalligi, shuningdek tabiiy subdominanta tonalligi va uning parallel majorini hosil qiladi.

Shunday qilib, har qanday major va tabiiy minor beshta birinchi darajali o'xshash tonallikka ega. Birinchi darajali o'xshash tonalliklarning alomati ularda ayrim tovushlarning o'xshashligi bilan birga uchtovushliklarining ham o'xshashligidir. Parallel tonalliklarining barcha uchtovushliklari umumiy bo'lishlari bilan birga ularning tovushlar tarkibi ham bir xil. Boshqa tonalliklarda to'rtta uchtovushligi umumiy, boshqa farqlanuvchi tonalliklarda esa ular bo'lmaydi.



O'xshash tonalliklarning har xil pog'onalarida joylashgan to'rtta umumiy uchtovushlik mavjudligi, farqlanuvchi tonalliklarda ularning yo'qligi tonalliklar farqini ko'rsatadi.

Xromatizm va al'teratsiya

Diatonik lادلarning asosiy pog'onalarini yarim ton ko'tarilishi yoki yarim ton pasaytirilishi yo'li bilan o'zgartirilishi **xromatizm**⁵ deb ataladi. Mana shu xilda hosil bo'lgan yangi xromatik pog'ona hosila bosqich bo'ladi. Shu sababli yonida al'teratsiya belgisi qo'yilgan asosiy pog'ona sifatida yoziladi. Ladning istalgan pog'onasiini xromatik tarzda o'zgartirish mumkin. Majorda IV pog'onaning pasaytirilishi, minorda VI va VII pog'onalarining ko'tarilishi-bu

⁵ Xromatizm yunoncha so'zdan olingan bo'lib chrom-rang degan ma'noni bildiradi.

pogʻonalarning xromatik oʻzgarishiga kiradi. Shuning uchun ham bu oʻzgarishni ifodalovchi belgilar kalit yoniga, oʻzgaruvchi nota yoniga qoʻyiladi. Koʻrsatilgan hollarda xromatik tarzda asosiy pogʻonalar mustaqil oʻzgartiriladi va buning natijasida mustaqil koʻrinishli ladlar hosil boʻladi. Bundan tashqari xromatizm tasodifiy, oʻtkinchi, yaʼni tortilishini keskinlashtiruvchi biror pogʻonani vaqtincha oʻzgartiruvchi sifatida ham uchraydi. Noturgʻun tovushlarning turgʻun tovushlarga tortilishini keskinlashtiruvchi xromatik oʻzgarishlar **al'teratsiya** deyiladi. Asosiy pogʻonadan katta sekunda oraligʻida turgʻun pogʻonalarnigina al'teratsiya qilish mumkin. Bunda majorda quyidagi oʻzgarishlar boʻladi:

II pogʻona koʻtariladi va pasaytiriladi;

IV pogʻona koʻtariladi;

VI pogʻona pasaytiriladi;

Minorda esa:

II pogʻona pasaytiriladi;

IV pogʻona koʻtariladi va pasaytiriladi;

VII pogʻona koʻtariladi;

Melodik minorda VI pogʻonaning koʻtarilishi va melodik majorda VII pogʻonaning pasaytirilishi boshqacha xarakterda boʻladi.

Major va minor al'teratsiya sxemasi:

C-dur



Al'teratsiya natijasida major va minor ladlarida bir qator xromatik intervallar hosil boʻlaveradi. Bular orasida kamaytirilgan 3, va orttirilgan 2 koʻproq uchraydi.

Kamaytirilgan 3 – sof 1 ga , orttirilgan 6 – sof 8 ga yechiladi.

Kam.3

VII pogʻona koʻtarilgan II pogʻona koʻtarilgan IV pogʻona koʻtarilgan
 II pogʻona pasayishidan II pogʻona koʻtarilishidan IV pogʻona koʻtarilishidan

Ort. 6

II pogʻona pasayishi IV pogʻona pasayishi

Kam.3

VII pog'ona ko'tarilgan
II pog'ona pasayishidan

IV pog'ona pasayishidan

IV pog'ona ko'tarilgan
IV pog'ona ko'tarilishidan

Ort. 6

II pog'ona pasayishi

IV pog'ona pasayishi

Xromatik gamma. Xromatik gammaning tuzilishi

Xromatik gamma birin-ketin keladigan yarim tonliklardan hosil bo'ladi. Xromatik gamma mustaqil ko'rinishli ladlarni hosil qila olmaydi, chunki uning negizi tabiiy major yoki tabiiy minor gammasi hisoblanadi. Xromatik gamma bularning murakkablashtirilgan ko'rinishidir. Xromatik gamma major yoki minor tabiiy gammalaridagi katta sekundalarning xromatik tovushlar yordami bilan to'ldirilishidan hosil bo'ladi. Xromatik gammalarning yozilishi qoidasi tonalliklar o'xshashligiga asoslanadi. Majorda bu qoidalar quyidagi tartibda bo'ladi. Gammaning barcha asosiy pog'onalari o'zgarmaydi, katta sekundalar yuqoriga tomon I, II, IV va V pog'onalarining ko'tarilishi bilan to'ldiriladi, pastga tomon VI pog'onaning ko'talishi o'rniga VII pog'ona pasaytiriladi. Pastga tomon harakat qilinganda, katta sekundalar VII, VI, III va II pog'onalar pasaytirilishi bilan to'ldiriladi, V pog'onani pasaytirish o'rniga IV pog'ona ko'tariladi. Masalan:


C-dur

I → II → IV → V → ← VII

VII → VI → ← IV → III → II → I

Yuqoriga tomon harakat qilganda III pog'onani pasaytirish va pastga tomon harakat qilinganda IV pog'onani ko'tarish vaqtida o'zgartirilgan barcha pog'ona tovushlari tabiiy yoki major ko'rinishidagi pog'onadosh tonalliklar pog'onalariga teng bo'lishi lozim. Masalan, Iya # va sol bemol tovushlari do majorga pog'onadosh tonalliklarda uchramaydi. Shuning uchun xromatik gamma bo'ylab yuqoriga tomon harakat vaqtida VI pog'ona ko'tarilmasligi va pastga tomon harakat vaqtida V pog'ona pasaytirilmasligi lozim:

Minor xromatik gammasining yuqoriga tomon harakatini yozish qoidasi parallel majorga oʻxshash boʻladi. Shuni ham esda tutish kerakki, minorning I pogʻonasi unga parallel boʻlgan majorda VI pogʻona boʻladi, buning natijasida I pogʻona koʻtarilmaydi, aksincha uning oʻrniga II pogʻona pasaytiriladi. Pastga tomon harakat vaqtida minor xromatik gammasi nomdosh major gammasi kabi yoziladi. Masalan:



Musiqadabiyotida ayrim vaqtlarda xromatik gammalarni koʻrsatilishicha yozish qoidasidan chekinish hollari ham uchraydi. Masalan, tertsiyalar bilan xromatik harakat qilingan vaqtda oʻqilishi qulay boʻlishi va tertsiyalarni boshqa intervallar bilan engarmonik tartibda almashtirmaslik uchun shunday qilinadi.

Asar tonalliklarini aniqlash

Berilgan biror kuyning lad va tonalligini belgilashda kalit va tasodifiy alteratsiya belgilari, kuyning tuzilishi, uning tonikasi, uchtovushligini belgilovchi asosiy va tayanch tovushlar asosiy vositalar boʻlib hisoblanadi. Kuyning soʻnggi tovushidan ham tonallikni aniqlash mumkin, ammo hamma vaqt ham bu mumkin boʻlavermaydi, chunki baʼzi asarlarda, koʻproq xalq qoʻshiqlarida kuy oxirida birinchi pogʻonadan tashqari boshqa pogʻonalar ham uchrab turadi. Kuyning boshlangʻich tovushi ham birinchi pogʻona boʻlmasligi mumkin, masalan:

Yallama yorim



Yuqorida keltirilgan o‘zbek xalq qo‘shig‘i kuyi II pog‘onadan boshlangan. Kuyning birinchi ikkinchi qismida uchraydigan Iya tovushi tayanch tovushi, u kuyning boshqa bir tayanch tovushi fa (III pog‘ona) bilan almashinib turadi. Qo‘shiqning ikkinchi qismida tonika uchtovushligi (sof kvinta re-Iya) sezila boshlaydi, qo‘shiq kuyi III pog‘ona bilan tugallanadi, demak bu qo‘shiq kuyi re major tonalligida yozilgan. Quyidagi misol ham minor tonalligida yozilgan, kuy Iya tovushidan boshlangan va Iya tovushiga tugallangan, kuyning tuzilishiga qarab u Iya minor tonalligida ekanligi shundoqqina ko‘rinib turibdi.

Quyoni

O‘zbek xalq o‘yini



Transpozitsiya

Musiqaviy asar yoki kuyning biror tonallikdan boshqa bir tonallikka ko‘chirilishi – **transpozitsiya**⁶ deyiladi.

Transpozitsiya ayniqsa, vokal ijrochiligidagi keng qo‘llaniladi. Vokal asarini ashulachilar ovoz diapazoniga (pardalar oralig‘iga) qulay keladigan tonallikda ijro etaveradilar. Bir qo‘shiq yoki romans ashulachilar ovoz diapazonlariga asoslanib xilma-xil tonalliklarda yozilishi mumkin. Transpozitsiya biror musiqa asarini asl ko‘rinishidan boshqa bir cholg‘u asbobga, masalan, g‘ijjak uchun yozilgan kuyni alt g‘ijjagiga yoki bas g‘ijjagiga moslab yozishda ham qo‘llaniladi. Transpozitsiya uch xil usul bilan amalga oshiriladi:

1. Mazkur intervalda o‘zgarish yasash bilan:
2. Kalit belgilarini o‘zgartirish bilan:
3. Kalitning o‘zini o‘zgartirish yo‘li bilan.

Musiqa asarini biror intervalda transpozitsiya qilish lozim bo‘lganda, transpozitsiya qilinadigan tonallik aniqlanadi, masalan, Iya majordan kichik tertsiya yuqoriga transpozitsiya qilinsa, yangi do major tonalligi hosil bo‘ladi, agar Iya major tonalligida uchta diyez bo‘lsa, transpozitsiyadan so‘ng hosil bo‘lgan yangi tonallikda kalit oldida belgi bo‘lmaydi, barcha notalar original tonallikda

⁶ Transpozitsiya lotincha transponire so‘zidan olingan bo‘lib – joyni o‘zgartirmoq degan ma‘noni bildiradi.

qaysi pog‘ona va akkordlarga mos kelishi oldindan aniqlanib, do major tonalligiga ko‘chiriladi. Masalan:

Polka

M.Glinka


d-moll



Polka

M.Glinka

a-moll



Ikkinchi usul xromatik yarim ton yuqoriga yoki pastga qarab yarim tonga transpozitsiya qilinadi. Bunday hollarda kalit yonidagi belgilar o‘zgaradi, notalar esa o‘z holicha qoladi, tasodifiy belgilar esa yangi kalit belgisining ko‘tarilishi yoki pasaytirilishiga qarab o‘zgarib turadi, masalan: Iya bemol major tonalligidan Iya major tonalligiga transpozitsiya qilinsa;

- a) Kalit yonidagi to‘rtta bemolni uchta diyez bilan almashtiriladi;
- b) Tasodifiy belgilar uchrasa, bekarlarni diyezlar bilan, bemollarni esa bekarlar bilan almashtiriladi;

Xromatik yarim tonni yuqoriga transpozitsiya qilish bilan yangi tonallik hosil qilishga misol;



Uchinchi usul shundan iboratki, unda nota yo‘liga yangi kalit tanlanadi, original tonallik tonikasi qayerda yozilgan bo‘lsa, yangi tonallik tonikasi ham aynan o‘sha joyda yoziladi. Bu usul yuqorida aytilgan ikki usulga nisbatan ancha kam qo‘llaniladi, chunki bunda notalarni barcha kalitlarda erkin o‘qiy olish malakasi talab qilinadi.

Modulyatsiya va og‘ishma

Musiqada tonalliklarni o‘zgartirishning uch usuli mavjud, ular: modulyatsiya, og‘ishma, va taqqoslash nomlari bilan ataladi.

Musiqaviy asarning biror bir yangi tonallikka o‘tishi va shu tonallik bilan tugallanishi - **modulyatsiya**⁷ deyiladi.

Musiqaviy asarning vaqtincha yangi tonallikka o‘tishi va yana dastlabki tonallik bilan tugallanishiga - **og‘ishma** deyiladi.

Ikki musiqiy tuzim chegarasida, sezuradan keyin, yangi tonallik paydo bo‘lgach, modulyatsiya qiluvchi ko‘chmasiz, og‘ishmasiz (modulyatsiya qiladigan bir ovozli bog‘lamasiz) hosil bo‘lishiga - **taqqoslama** deyiladi. Yuqorida qayd etilgan modulyatsiya, og‘ishma va taqqoslama bir modulyatsiya tushunchasiga birlashishlari mumkin.

Modulyatsiyaga misol:



⁷ Modulyatsiya lotincha modulatio-rioya qilish degan ma‘noni, hamda, italyancha modulazione-ovozni mavj urdirish, tovlash degan ma‘nolarni bildiradi.

O'n olti yosh

A.Dargomijskiy



Yangi tonallikka o'tish ko'pchilik hollarda tasodifiy belgilarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'ladi, modulyatsiya bo'lgan bo'lmaganligini ayrim vaqtlarda jo'r bo'luvchi akkordlarga qarab ham belgilash mumkin, chunki tasodifiy belgilar faqat pastki tovushlargagina qo'yiladi. Masalan:

Ovchi qo'shig'i

Bardam, Shodiyona

R.Shuman



Og'ishmaga misol:

Kichkintoymiz-gijingtoymiz

K.Kenjayeov musiqasi

P.Mo'min she'ri



O'xshash tonalliklarga modulyatsiya qilish

Modulyatsiya musiqa asarlarida juda keng qo'llaniladi. U tasvirlash vositasi sifatida chuqur badiiy ahamiyatga ega va musiqa asarining rang-barang ohanglarda eshitilishiga hamkorlik qiladi, yordam beradi. O'xshash tonalliklar

tovush tarkibida birlashganlaridan shu o'xshash tonalliklardagi modulyatsiyalar yoqimli va ravon bo'ladi. Dominanta va uning parallel tonalligiga qilingan modulyatsiyalar musiqada juda ko'p uchraydi.

Subdominanta va uning parallel tonalliklariga qilingan modulyatsiya, odatda og'ishmaga o'xshash bo'ladi.

O'xshash tonalliklarga qilingan modulyatsiyalarga misollar :

A) mi bemol majordan dominanta tonalligiga:

Andantino

Andantino V.Motsart

Re minordan parallel tonallikka:

Shamol qo'shig'i

Andante R.Shuman

Tayanch iboralar

Xromatik gamma, yarim tonlik, asosiy pog'onalar, yuqoriga tomon harakat, pastga tomon harakat qilish, tonalliklarni aniqlash usullari, transpozitsiya, kuyning tuzilishi, boshlanishi va tugash bosqichi, uning tonikasi va uchtovushligini belgilovchi asosiy hamda tayanch tovushlar, oxirgi akkord xususiyatlari, kalit oldi belgilari, boshlanish va tugash tovushlari, asarni ijro etib yoki ijroni tinglab tonallikni aniqlash, modulyatsiya, og'ishma.


Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. O'xshash tonalliklarni ta'riflang?
2. a) Berilgan major tonalliklariga qaysi tonalliklar o'xshash bo'ladi?
b) Minor tonalliklarining o'xshash tonalliklarini sanab bering?
3. Xromatizm nima?
4. Xromatik bosqichlar qanday ifodalanadi?
5. Al'teratsiyani ta'riflang?
6. Al'teratsiya qilish natijasida qanday intervallar hosil bo'ladi?
7. Xromatik gammani tushuntiring va qanday tuziladi?
8. Xromatik gammalarning yozilishi qoidalarini nimaga asoslanadi?
9. Major va minor gammalarining yozilish qoidalarini aytib bering?
10. Kuylarning lad va tonalliklarini aniqlash yo'llarini aytib bering?
11. Transpozitsiya nima o'zi?
12. Musiqa asarini transpozitsiya usuli bilan boshqa tonallikka o'tkazishni tushuntirib bering?
13. Transpozitsiya qilishning qanday usullaridan ko'proq foydalaniladi?
14. Musiqa asarining bir tonallikdan ikkinchi bir tonallikka ko'chirilish hodisasi nima deyiladi?
15. Og'ishma nima va u modulyatsiyadan qanday farqlanadi?
16. Musiqada modulyatsiya nima uchun ishlatiladi?
17. Ko'pincha modulyatsiyaning qaysi xillari ko'proq qo'llaniladi?

15-MAVZU.
KUY TUZILISHI. MELIZMLAR
VA IJRO ETISHNING AYRIM USULLAR BELGILARI

Reja:

1. Musiqa asarida kuyning ahamiyati.
2. Kuy harakati turlari.
3. Kuy tuzilishi va tarkibiy qismlari haqida.
4. Musiqadagi kuy bezaklari.
5. Ijrochilik uslublarining yozma belgilari.



Musiqa asarida kuyning ahamiyati

Tovushlarning bir ovozli shaklda ma'lum lad va metr hamda ritm jihatidan uyushib kelishiga **kuy** deyiladi.


Bir ovozli musiqa asarlari matnli va matnsiz holda bo'lishi mumkin. Matnli kuylar mazmunan ancha yorqin va tushunarli bo'ladilar. Bunga bir ovozli kuylar bo'lgan xalq qo'shiqlari va raqslari misol bo'la oladi. Ularning mazmuni xilma-xil bo'lib, xalqning orzu-istaklari va hayoti aks ettirilgan bo'ladi. O'tmish va hozirgi zamon bastakorlari hamisha kuyga eng muhim tasviriy vositalar sifatida qaraganlar. Musiqiy fikr jo'rsiz, yakka ohang orqali ham tasvirlanishi mumkin. Xalq musiqasida ikki ovozli va ko'p ovozli asarlar ham uchraydi. Ammo bunday asarlarda kuy nechta ovoz bo'lishidan qat'iy nazar, asosiy kuy yo'nalishi barcha tovushlarni qo'shib eshitalishidan tashkil topadi.

Ko'p millatli mamlakatimiz xalqlarining qo'shiqlari kuyga juda ham boydir. Bu qo'shiqlarning kuy tarkibi ularning xilma-xil mazmuniga mosdir. Bundan tashqari turli xalqlarning qo'shiqlari ham, raqs kuylari ham o'ziga xos kuy tuzilmalariga ega bo'lishi bilan bir-biridan farq ham qiladi. Har qaysi millatning qo'shig'ida shu xalqning o'ziga xos milliylik xususiyati mavjud bo'ladi:

Chamanda gul

O'zbek xalq qo'shig'i

Allegro



Bog' - da - gi o's - ma - mi - kan (ye!) Cha-man - da gul o - chi - lib - di - (ya)

chak- kang - ga taq, chak-kang- ga! Cha-man - da gul o - chi-lib-di

Светит месяц (Rus xalq kuyi)

V.Andreyev qayta ishlagan

Allegro

p

Qari Navo

O'zbek xalq kuyi

Marsh sur'atida

Kompozitorlarning asarlarida xalq qo'shiqlari o'zining yorqin ifodasini topdi. Mumtoz musiqa, xalq qo'shig'i, raqs kuylari ohanglaridan boy musiqa sifatida foydalanib kelinmoqda. Kompozitorlar ijodi xalq kuylari ruhida yozilgan mustaqil kuy mavzularini uchratish ham mumkin. Farg'ona vodiysida mashhur bo'lgan xalq kuy ohanglaridan:

Ra'nolanmasun

Yunus Rajabiy musiqasi

G'oziy g'azali

A.Mutalov cholg'ulashtirgan

O'rtacha tez

The musical score is written on four staves in 3/4 time. The first staff begins with a treble clef, a key signature of one flat (B-flat), and a common time signature. It starts with a mezzo-forte (*mf*) dynamic, followed by a crescendo leading to a forte (*f*) dynamic. A dashed line labeled *8va* indicates an octave shift. The lyrics are written below the notes: Bog'a - ro kir-gil ku-lib, gul-cheh-ra ra' - - no- lan - ma-sun, G'un-cha tu - , -mo-ring yo-zib noz i - la Ze - - bo- lan-ma-sun.

Kuy harakati turlari

Kuy harakati o'zining rivojlanish jarayonida xilma-xil shakllar hosil qiladi. Kuy harakatining shakli turli yo'nalmalardan tashkil topadi, ularning eng asosiylari quyidagilar:

- a) ko'tariluvchi kuy harakatlari;
- b) pasayuvchi kuy harakatlari;
- v) ko'tariluvchi va pasayuvchi kuy harakatining bir tekis almashinib turishidan hosil bo'ladigan to'lqinsimon harakat;
- g) tovushning takrorlanishidan hosil bo'ladigan gorizontalar harakat.

Dastlabki uchta harakat pog'onama-pog'ona, intervalma-interval sakrama yoki aralash bo'lishi mumkin. To'lqinsimon harakat u qadar katta bo'lmagan diapazonda yoki sekin-asta ko'tarilishi yoki quyilanish yo'li bilan hosil bo'ladi. Harakat gammaning turli bosqichlarida sekin-asta ko'tarilishi yoki pasayishi yo'li bilan borsa, kuy ohangda takrorlanib turadi. Kuyning bu xildagi tuzilmasi **sekvensiya** deyiladi. Kuyning eng yuqori nuqtasi, yoki cho'qqisi **avj** deyiladi.

Kuy harakatiga misollar:

Gorizontol harakat:

Guldasta

Sh.Yormatov

Allegro moderato



Sekin-asta ko'tariluvchi harakat:

Boysun mavrigi

O'zbek xalq kuyi

Allegro moderato



Sakrama harakat:

Vals

(“Mahallada duv-duv gap” kinofilmidan)

M.Liviyev



Balandlik jihatidan farq qiladigan tovushlar oralig'i kuy harakatining **diapazoni** deyiladi. Kuyda tovushlarning ravon harakat vaqtida akkord bo'yicha joylashgan tovushlar oralig'i akkord tarkibiga kirmaydigan tovushlar bilan

to'ldiriladi, bu xildagi tovushlar **o'tuvchi tovushlar** deyiladi. O'tuvchi tovushlar diatonik holda ham, xromatik holda ham uchraydilar.

Oy, za gaem, gaem

Ukrain xalq kuyi



Akkord tarkibidagi tovushlardan sekunda yuqori, yoki pastda joylashgan va harakat vaqtida yana akkord tovushiga qaytuvchi tovushlar **yordamchi tovushlar** deyiladi. Yordamchi tovushlar ham diatonik va xromatik holda uchraydi va diatonik hamda xromatik pog'ona bilan yonma-yon joylashadi:



Kuy tuzilishi va tarkibiy qismlari haqida. Tuzilma.

Sezura. Davriya. Jumla. Kadensiya. Ibora. Motiv

Kuy tarkiblarga bo'linadi. Kuy yoki musiqiy asarning tarkiblari **tuzilma** deyiladi, ularning cho'zimi ham turlicha bo'ladi. Tuzilmalar chegarasi oralig'iga **sezura** deyiladi. Sezura v belgisi bilan yoziladi. Bu belgi odatda darsliklarda qo'llaniladi.

Tuzilmalar musiqaviy fikrning tugallanish darajasi bilan bir-biridan farq qiladi. Tugallangan musiqaviy fikrni ifodalovchi musiqaviy tuzilmaga **davriya** deyiladi. Gapda so'z orqali tugal bir fikr bayon etilsa, musiqadagi davriyada esa tugallangan bir fikr ohanglar orqali ifodalanadi.

Musiqada eng ko'p uchraydigan davriya bu sakkiz taktli, kvadrat davriyadir, bu xildagi davriyalar **oddiy davriya** deyiladi.

Davriya ikki qismga bo'linadi, ular **jumla** deyiladi.

Musiqiy tuzilmaning tugallanishiga **kadensiya**⁸ deyiladi. Kuyda kadensiya ikki va undan ortiq tovushlarning birin-ketin tugallanishi bilan ifodalanadi. Bu tovushlar tuzilmani turg'un yoki noturg'un holda tugallanishiga olib keladi. Kadensiya quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:

1. **To'liq o'rnashgan** kadensiya—bu xildagi kadensiya kuyda tonika uchtovushligining prima tovushi bilan tugaydi;

⁸ Kadensiya italiyancha “cadenza”, lotincha “cadare” iboralaridan olingan bo'lib “yig'ilaman”, “tugallanaman” degan ma'nolarni bildiradi.

2.**To‘liq o‘rnashmagan** kadensiya–bu kadensiya tonika uchtovushligining tertsiyasi yoki kvinta tovushi bilan tugaydi;

3.**Yarim kadensiya**–noturg‘un tovush bilan tugaydi, u dominanta uchtovushligining yoki dominantakkordi primasi bo‘lgan V pog‘ona bilan ham tugashi mumkin.

Davriyaning birinchi jumlası yarim kadensiya yoki to‘liq o‘rnashmagan kadensiya bilan tugallanadi va u tugallanmagan asar taassurotini qoldiradi. Davriyaning ikkinchi jumlası esa, doim to‘liq o‘rnashgan kadensiya bilan tugaydi. Agar davriya o‘zining dastlabki tonalligi bilan tugasa, **yagona tonallik** deyiladi.

Ko‘rmadim

(romans)

D.Zokirov musiqasi

Andante



Davriyaning tugallanishi vaqtida modulyatsiya hosil bo‘lsa, **modulyatsiyali davriya** deyiladi.


Jumla **ibora** deb ataladigan ikkita kichik tuzilmaga bo‘linadi. Musiqada shunday jumlar ham uchraydiki, ularda iboralar sezura bilan ajratilgan bo‘ladi, yana boshqa jumlar ham uchraydiki, ularda iboralar butun bir kuyga ulanib ketadi.

Qo'shig'imiz avjida

Tursun Azimov musiqasi

G'iyos Komilov she'ri

O'rtacha tez



Ikki taktli ibora bir butun tuzilmadan iborat bo'ladi yoki bir taktli motivlarga ajralib ketadi. Bitta asosiy metrik zarbni o'z ichiga olgan tuzilma **motiv** deyiladi. Motivning kuchsiz davri bir yoki bir necha tovushlar bilan ifodalanishi mumkin. Motivning boshlanishi yoki tugallanishi birgina takt chegaralarida bo'lishi shart emas, u takt oldidan boshlanishi va navbatdagi taktning yarmida tugallanishi ham mumkin. Bir taktdan kichik bo'lgan motivlar ham uchraydi.

Musiqadagi kuy bezaklari (Melizm)

Kuydagi milliylik xususiyatlarini yaqqol ifodalovchi, tovushning ohangdorligini ta'minlovchi tovushlarga **musiq** **bezaklari** deyiladi. Kuyni bezash uchun ishlatiladigan turlicha melodik figuralar **melizm**⁹ deb ataladi. Melizm dastlab vokal musiqasida tarkib topgan, cholg'u musiqasida esa asosan XVII-XVIII asrlarda tarqalganligi manbalarda qayd etiladi. Turli davrlarda melizmning juda ko'p va xilma-xil turlari qo'llaniladi, ular shartli belgilar bilan yoki mayda notalar bilan belgilangan. Musiqada melizmlar o'zlaridan oldin keladigan cho'zimlar yoki bezatuvchi tovush cho'zimiga teng keladi, shu sababli ularning o'lchov hissalarini mazkur taktning asosiy hissalarini yig'indisiga qo'shilmaydi. Melizmlar asosiy tovushdan sekunda oralig'ida joylashadigan yordamchi tovushlar hosil qiladi. Ular nota yozuvida maxsus belgilar yoki kichik shriftli notalar bilan ko'rsatiladi. Musiqada asosan quyidagi musiq

bezaklari qo'llaniladi: Forshlag, mordent, gruppetto, trel', nola, molish va h.k.

1. Forshlag¹⁰ – ikki xilda uchraydi: uzun va qisqa forshlag.

Uzun forshlag bir tovush yordami bilan yonma-yon turgan tovush cho'zimi o'lchovida ijro etiladi. Uzun forshlag mayda nota bilan belgilanadi va asosiy tovushning oldidan qo'yiladi.

Uzun forshlag qanday cho'zimda belgilangan bo'lishiga qaramay ijro etishda odatda uning cho'zimi asosiy tovushning yarmiga teng bo'ladi. Ko'pincha

⁹ Melizm lotincha "melismos" so'zidan olingan bo'lib, qo'shiq, "kuy" maxsus kuylash usuli ma'nosini bildiradi.

¹⁰ Forshlag nemis tilidan olingan bo'lib, vor-old - oldingi urg'u ma'nosini bildiradi.

uzun forshlag xuddi asosiy tovush cho‘zimidek belgilanadi. Forshlagning shtili hamma vaqt yuqorida bo‘ladi. Masalan:



Sonata 1-qism (D-dur)

V.Motsart

Allegro con spirito

Yozilishi

Ijro etilishi

f *p*


f *p*

a) Agar uzun forshlag nuqtali nota yonida qo‘yilsa, forshlagning cho‘zimi notaning $\frac{2}{3}$ (uchdan ikki) cho‘zimi hissasiga teng bo‘ladi, ya’ni forshlag tovushi notaning cho‘zimiga teng, keyingi tovush cho‘zimi esa nuqtaga teng bo‘ladi:



Hozirgi zamon musiqasida uzun forshlag qo‘llanilmaydi, uning o‘rniga kerak bo‘lgan cho‘zim oddiy nota bilan yoziladi.

b) **Qisqa forshlag** bir yoki bir necha tovushdan tuzilib, yonma-yon joylashgan tovush cho‘zimi hisobidan juda qisqa ijro etiladi. Qisqa forshlag shtili ilmagiga bir chiziq tortilgan mayda nota bilan ifodalanadi. (U uzun forshlagdan farqlanishi uchun shunday belgilanadi). Qisqa forshlagni ikki usulda ijro etish mumkin:



Sonata I

L.Betxoven

Allegro

Yozilishi:

Ijro etilishi:

The image displays two systems of musical notation for the first movement of Sonata I by Beethoven. The first system is labeled 'Yozilishi:' and the second 'Ijro etilishi:'. Both systems show a piano part in 6/8 time, marked 'Allegro'. The notation includes a treble clef, a key signature of one flat (B-flat), and a 6/8 time signature. The first system shows the first four measures, and the second system shows the next four measures. The notation is written in a way that demonstrates the difference between the written notation and the actual performance of the trills.

Qisqa forshlag faqat bir tovushdan emas, balki ikki va undan ortiq tovushlardan ham iborat bo‘lishi mumkin.



2. **Mordent**¹¹ yordamchi tovush asosiy tovushning ostki tomonidan chalinishi kerakligini bildiradi. Oddiy mordent asosiy kuyning tovushi, yordamchi tovushi (sekunda yuqorida yoki pastda joylashgan) va yana asosiy tovushning takrorlanishidan hosil bo‘lgan uchta tovushdan iborat bo‘ladi. Oddiy mordent ikki xil yoziladi:

- ustiga chiziqcha tortilmagan ♬ ishorali oddiy mordent,
- ustiga tik chiziqcha tortilgan ♪ ishorali oddiy mordent.

Agar nota ustiga ♬ ishorali oddiy mordent qo‘yilsa, yuqori yordamchi tovush olinadi, nota ustiga ♪ ishorali oddiy mordent qo‘yilsa pastki yordamchi

¹¹ Mordent italiyancha so‘zdan olingan bo‘lib – uchi o‘tkir degan ma‘noni anglatadi.

tovush olinadi. Imkoniyati boricha ustiga mordent ishorasi yozilgan tovush hisobidan juda qisqa ijro etiladi:



Invensiya (C-dur)

I.Bax

Allegro

Yozilishi:

Ijro etilishi:

Qo'sh mordent-oddiy mordentga o'xshash bo'ladi, biroq oddiy mordentning ikkitasiga teng, ya'ni cho'ziqroq bo'lib,  ishorasi bilan belgilanadi. U ham oddiy mordent kabi chiziqchasiz va chiziqchali bo'ladi. Agar nota ustiga chiziqchali qo'sh mordent tursa, pastki yordamchi tovush olinadi. Qo'sh mordent oddiy mordent kabi mordent ishorasi qo'yilgan tovush cho'zimi hisobidan ijro etiladi.

Yozilishi

Ijro etilishi

Yozilishi

Ijro etilishi

Agar yordamchi tovushni ko'tarish yoki pasaytirish lozim bo'lsa, unday holda o'sha yordamchi tovushga muvofiq al'teratsiya belgisi mordentning ostiga yoki ustiga qo'yiladi.



3. **Gruppetto**¹² kuydagi asosiy tovushni yuqori va pastki yordamchi tovushlar bilan almashishidan iborat melizmatik figura. Ba'zida undagi tovushlar quyidagicha joylashishi mumkin: yuqorida yordamchi tovush, asosiy tovush, pastki yordamchi tovush va yana asosiy tovushlar kabi bir necha tovushlardan tuziladi:



Gruppetto ∞ ishorasi bilan ifodalanadi va u notaning ustiga yoki orasiga qo'yiladi. Notaning ustiga yozilgan gruppetto o'sha belgi yozilgan nota hisobidan ijro etiladi:



Gruppetto shakli uchun oldingi cho'zimning ikkinchi yarmi, oldingi cho'zimning choragi yoki oldingi cho'zimning hammasi ishlatilishi mumkin:



Agar gruppetto notalar oralig'ida tursa va ulardan birinchisi nuqtali bo'lsa, odatda bunday holda u trel' ko'rinishda ijro etiladi.

¹² Gruppetto italyancha so'zdan olingan bo'lib - "kichik guruh" yoki kichik to'da ma'nosini bildiradi.



Agar gruppettoga kirgan bir yoki ikkala yordamchi tovushni ham ko'tarish yoki pasaytirish lozim bo'lsa, u gruppetto ustiga (yuqori yordamchi tovush uchun) va ostiga (pastki yordamchi tovush uchun) muvofiq keluvchi alteratsiya belgilari bilan ifodalanadi. Masalan:



4. Bir tekisda ravon almashinib turadigan ikkita (asosiy va yordamchi) tovushdan tuzilgan kuy figurasi **trel**¹³ deb ataladi. Bu melizmatik shakl ham asosiy tovushga ijro beruvchi o'ziga xos bezak bo'lib, asosiy tovush bilan yuqori yordamchi tovushning eng yuqori tezlikdagi almashinuvidan tarkib topadi. Trel' tr harflariga to'liqlik yotiq chiziq qo'shimcha qilinadi. Trelning cho'zimi trel yozilgan nota cho'zimiga mos bo'ladi:



Agar trel bir necha tovushdan hosil bo'lgan yuqorigi yoki pastki yordamchi tovushdan yoki bo'lmasa shakldan boshlanishi lozim bo'lsa, bu tovushlar qisqa forshlag kabi asosiy nota oldida yoziladi va ijro etayotganda trel tarkibiga kiritiladi, masalan:



Trel ustiga qo'yilgan al'teratsiya belgisi yordamchi tovushga ya'ni tovush qatorning keyingi yuqori bosqichiga tegishli bo'ladi:

¹³ Trel-italiyancha "trillare" iborasidan olingan bo'lib, "tebranmoq", "dirillamoq" ma'nolarini bildiradi.



Ijrochilik uslubining ayrim belgilari

Musiqqa amaliyotida nota belgilaridan tashqari yana boshqa belgilar ham borki, ular odatda ijrochilik uslubini ko'rsatishda qo'llaniladi. Bularga: legato, stakkato, portamento va arpedjiatolar kiradi.

Legato¹⁴ uslubi ma'lum tovushlarni bir-biriga bog'lagan holda ijro etilishini bildiradi va bog'lanadigan tovushlar yoysimon chiziq bilan birlashtiriladi. Bu belgi bir tovushdan ikkinchi tovushga to'xtovsiz o'tish lozimligini anglatadi. Legato belgisi bog'lanma ijro etiladigan notalarning ustiga ostidan qo'yiladi. Ushbu belgi bog'langan turli balandlikdagi tovushlar uzilmay, bog'lanib ijro etiladi. Legato belgisini tovushlar cho'zimini uzaytiruvchi **liga** belgisi bilan almashtirmaslik kerak. Liga bir xil balandlikdagi tovushlar cho'zimini bog'lasa, legato esa har xil balandlikdagi tovushlarni bog'laydi:



Stakkato¹⁵ uslubi kuy tovushlarini, akkordlarni qisqa-qisqa va chertib ijro etish kerakligini ifodalaydi. Stakkato uslubi nota doirachalari ustida yoki ostida qo'yiladigan nuqtalar bilan ko'rsatiladi.

Etyud

Allegro



Portamento¹⁶ yoki **glissando** uslubi xromatik gamma (fortepianoda diatonik gamma) bo'ylab pastga yoki yuqoriga tomon sirg'anish kerakligini bildiradi. Bunda bir-biridan keng intervalda joylashgan ikki tovush oralig'i to'ldiriladi.

Portamento natijasida kuyning ohangdorligi mukammallashadi, bu uslub musiqa asarini badiiy ijro etishda muhim ahamiyat kasb etadi, asarning

¹⁴ Legato-italyancha "legato" so'zidan olingan bo'lib, bog'lab, "silliqlab" degan ma'nolarni anglatadi.

¹⁵ Stakkato – italiyancha "staccato" so'zidan olingan bo'lib "ajratilgan", "alohida" degan ma'noni bildiradi.

¹⁶ Portamento - italiyancha so'zidan olingan bo'lib "ko'chirmoq" degan ma'noni ifodalaydi.

ta'sirchanligini kuchaytiradi. Portamento ko'pincha ashula (vokal) ijrochiligi uchun xosdir. Musiqa asarini ritmik va dinamik bir tekis va cho'zib ijro etishni ko'rsatuvchi belgi bo'lib, notaning ostiga yoki ustiga kichik chiziqcha bilan ko'rsatiladi, masalan:



Glissando¹⁷ bir tovushdan ikkinchi bir tovushga sirg'anib o'tish. Glissando asosan torli cholg'u asboblari ijrosida uchraydi, fortepianoda esa klavishlar ustidagi barmoqlarni tez yurg'izish bilan yuzaga keltiriladi. Portamento belgisi to'ldirilishi lozim bo'lgan ikki notani birlashtiruvchi to'liqinsimon chiziqdan iborat bo'ladi:



Portamento belgisi fortepiano ijrochiligida u ayrim tovushlar yoki akkordlarni birlashtirib chalinadigan "non legato" va stakkato belgilari qo'shilishini bildiradi va quyidagicha yoziladi:



Arpedjiato uslubi akkordlarni alohida-alohida olish kerakligini bildiradi, bunda akkord tuzuvchi tovushlar tez harakat bilan pastdan yuqoriga qarab chalinadi. Arpedjiato cho'zimi chalinadigan akkord cho'zimiga teng bo'ladi. Arpedjiato belgisi chalinishi lozim bo'lgan akkord oldidan qo'yiladigan to'liqinsimon vertikal chiziqdan iborat bo'ladi, masalan:

Oydin kechalar



¹⁷ Glissando italyancha so'zdan olingan bo'lib "sirg'anib" degan ma'noni anglatadi.

Tayanch tushunchalar

Kuy, kuyning tarkiblarga bo‘linishi, tuzilma, sezura, davriya, jumla, to‘liq o‘rnashgan va o‘rnashmagan kadensiya, yarim kadensiya, yagona tonallik, modulyatsiyali davriya, ibora, motiv, musiqa bezaklari, forshlag, mordent, gruppetto, trel’, nola, molish, qisqa forshlag, uzun forshlag, legato, liga, stakkato, portamento, glissando, arpedjiato.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Kuyni ta’riflang? Musiqada kuyning qanday ahamiyati bor?
2. Kuy qanday harakat shakllariga ega?
3. Sekvensiyani tushuntiring?
4. Kuyning yuqori cho‘qqisi nima deyiladi?
5. Kuy tovushlari balandligi oralig‘ini nima deyiladi?
6. O‘tuvchi va yordamchi tovushlarni tushuntiring?
7. Sezura musiqiy tuzilmada qaysi o‘rinda qo‘yiladi?
8. Davriyani tushuntirib bering va misol keltiring?
9. Davriya tarkibidagi har ikkala jumlani misol bilan aytib bering?
10. Kadensiyaning ta’riflang va uning davriya tarkibidagi o‘rnini ayting?
11. Kadensiya turlarini aytib bering?
12. Davriya uchun qaysi ko‘rinishdagi kadensiya xarakterli?
13. Musiqaning xilma-xil balandlik darajasi nima deyiladi? Uni tushuntiring?
14. Melizm nima? Musiqada uning qanday ahamiyati bor?
15. Melizmning qanday xillarini bilasiz?
16. Forshlagni tushuntiring, uning qanday turlari bor?
17. Uzun va qisqa forshlaglarning farqini ayting?
18. Mordent nima va uning ijro usullarini tushutiring?
19. Gruppetto nima, u qanday ijro etiladi?
20. Trel qanday ijro etiladi?
21. Trel qanday yoziladi?
22. Legato nima, u ligadan qanday farq qiladi?
23. Stakkatoni tushuntiring va nota yozuvida qanday ifodalanadi?
24. Portamento nima?
25. Glissando va arpedjiatoni tushuntiring?

MUSIQANING ELEMENTAR NAZARIYASI FANIDAN TEST SAVOLLARI

1. Musiqiy tovushning necha xil fizik xususiyati bor?
A) 1 xil B) ikki xil *C) 4 xil D) 3 xil

2. Temperatsiyalangan soz bu...?
A) Balandlikka asoslangan soz B) Qattqlikka asoslangan soz
C) Tembrga asoslangan soz *D) Teng yarim tonliklardan iborat bo'lgan 12 pog'onali lad

3. Asosiy pog'onani yarim tonga ko'tarish bu...?
A) Bemol *B) diyez C) Dubl diyez D) Bekar

4. Tovushlar engarmonizmi deb nimaga aytiladi?
A) Balandligi har xil lekin nomi va yozilishi bir xil
B) Balandligi va yozilishi har xil lekin nomlanishi bir xil
*C) Balandligi bir xil lekin nomi va yozilishi har xil
D) Balandligi va yozilishi bir xil, nomi ham bir xil

5. ISIS – nima degani?
A) Dubl – bemol B) Bemol C) Diyez *D) Dubl-diyez

6. Dubl – diyez belgisi tovushga qanday ta'sir qiladi?
A) Tovushni 1 tonga pasaytiradi *B) Tovushni 1 tonga ko'taradi
C) Tovushni 0,5 tonga ko'taradi D) Tovushni 0,5 tonga pasaytiradi

7. Nuqta tovush cho'zimiga qanday ta'sir etadi?
*A) Tovush cho'zimini teng yarmiga uzaytiradi
B) Tovush cho'zimini uzaytiradi
C) Tovush cho'zimini qisqartiradi
D) Tovush cho'zimini yarmiga qisqartiradi

8. Takt oldi – nima?
A) Musiqa asarining kuchli hissadan boshlanishi
B) Musiqa asarining hoxlagan hissadan boshlanishi
C) Musiqa asarining kichik hissadan boshlanishi
*D) Musiqa asarining kuchsiz hissadan boshlanishi

9. “Temp”lar nechta guruhga bo‘linadi?

- A) 4 B) 2 *C) 3 D) 5

10. Largo qaysi tempga kiradi?

- *A) Og‘ir B) Yengil C) Tez D) O‘rtacha

11. Melodik interval deb nimaga aytiladi?

- A) Bir oktavada ijro etiladigan ikki tovush
B) Bir oktavada eshitiladigan tovushlarga
C) Birin ketin eshitiladigan tovushlarga
*D) Birin ketin eshitiladigan ikki tovushga

12. Oddiy intervallarning soni nechta?

- A) 4 B) 12 *C) 8 D) 3

13. Septima intervali qaysi tovushlar oralig‘ida tuziladi?

- A) 1 va 6 *B) 1 va 7 C) 1-2 D) 1 va 3

14. Tertsiya intervali qaysi tovushlar oralig‘ida tuziladi?

- *A) 1 va 3 B) 1 va 4 C) 1 va 5 D) 1 va 7

15. Dominantseptakkord qanday akkordlarga kiradi?

- *A) Noohangdosh B) Ohangdosh
C) Nomukammal ohangdosh D) Mukammal ohangdosh

16. Dominantseptakkord qanday intervallardan iborat bo‘ladi?

- A) kat -3 kat- 3 kich – 3 B) Kich -3 kat -3 kich 3
*C) kat -3 kich – 3 kich -3 D) kich -3 kat -3 kat- 3

17. Minor yoki kichik uchto'vushlik qanday tuziladi?

- A) kat -3 va kich 3 B) ort-3 va ort-3
*C) kich 3 va kat-3 D) kam-3 va kam – 3

18. Uchto'vushlikning eng pastgi tovushi qanday nomlanadi?

- A) Tertsiya B) Kvinta C) Seksta *D) Prima

19. Uchtovushlikning birinchi aylanmasi qanday nomlanadi?

- *A) Sekstakkord B) Kvartsektakkord
- C) Tertskvartakkord D) Kvintsektakkord

20. Tabiiy major va tabiiy minor ladining birinchi pogʻonasidan tuzilgan uchtovushlikni qanday nomlaymiz?

- A) Subdominanta uchtovushligi B) Dominanta uchtovushligi
- C) Medianta uchtovushligi *D) Tonika uchtovushligi

21. I-IV-V pogʻonadan tuzilgan minor uchtovushliklari harfiy sistemada qanday yoziladi?

- *A) t,s,d B) s,f,g C) d,a,h D) y,s,d

22. Asosiy pogʻona nechta?

- *A) 7 ta B) 3 ta C) 8 ta D) 5 ta

23. Asosiy pogʻonani yarim tonga koʻtarish bu...?

- A) Bemol B) Dubl – diez C) Bekar *D) Diyez

24. Tovushlarning harfiy sistemada yozilishi qaysi qatorda toʻgʻri koʻrsatilgan?

- *A) C,D,E,F,G,A,H B) C,D,F,A,H,E,G
- C) D,E,F,A,H,G,C. D) F,A,D,C,H,E,G,

25. Dubl – diyez belgisi tovushga qanday taʼsir qiladi?

- A) Tovushni 1 tonga pasaytiradi B) Tovushni 0,5 tonga koʻtaradi
- C) Tovushi 0,5 tonga pasaytiradi *D) Tovushni 1 tonga koʻtaradi

26. Uch hissali metrlar deb nimaga aytiladi?

- *A) Kuchli hissasi har 3 hissadan keyin takrorlanib turadi
- B) Kuchli hissasi har 4 hissadan keyin takrorlanib turadi
- C) Kuchli hissasi har 2 hissadan keyin takrorlanib turadi
- D) Kuchli hissasi har 5 hissadan keyin takrorlanib turadi

27. Allegro qaysi tempga kiradi?

- *A) Tez B) Yengil C) Oʻrtacha D) Ogʻir

28. Qanday intervallarga oddiy intervallar deyiladi?

- A) Ikki tovush oraligʻida hosil boʻlgan

B) Prima, kvarta, kvinta, oktava

C) Barcha intervallarga

*D) Bir oktava oralig'ida hosil bo'lgan

29. Intervalning nomi qaysi tildan olingan?

*A) Italian B) Lotin C) Ingliz D) Fransuz

30. Oddiy intervallarning ichida nechitasi sof?

A) 3 B) 5 *C) 4 D) 2

31. Dominantseptakkordning asosiy tovushi qaysi hisoblanadi?

A) Septima B) Kvinta *C) Prima D) Tertsiya

32. Tabiiy majordan pentatonika tuzilganda qaysi pog'onalar qatnashmaydi?

*A) IV va VII B) IV-VI C) VII-III D) V va II

33. Major 3 tovushligining pastgi va yuqorigi tovushlar oralig'i qanday intervallardan iborat bo'ladi?

*A) Sof 5 B) Kam.5 C) Ort.5 D) Ort. 4

34. Kuyni eng yuqori nuqtasi nima deyiladi?

A) Koda *B) Avj C) Volta D) Fermata

35. Transpozitsiyaning nechta usuli bor?

*A) 3 B) 2 C) 1 D) 4

36. "Oktava" deb nimaga aytiladi?

A) Har xil pog'onadagi tovushlar oralig'i

B) Ikki xil pog'onadagi tovushlar oralig'i

*C) 8 ta tovush oralig'i

37. Asosiy pog'onani yarim tonga pasaytiradi bu....?

A) Diyez *B) Bemol C) Dubl-bemol D) Dubl diyez

38. IS nima degani?

A) Dubl bemol B) Dubl diyez *C) Diyez D) Bemol

39. Interval nechta turga bo'linadi?

- *A) 2 ta B) 3 ta C) Bo'linmaydi D) 8 ta

40. Garmonik interval deb nimaga aytiladi?

- *A) Bir vaqtda eshitilgan 2 tovushga
B) Birin ketin eshitilgan ikki tovushga
C) Bir vaqtda eshitilgan 3 tovushga
D) Birin ketin eshitilgan tovushlarga

41. Prima intervali qaysi tovushlar oralig'ida tuziladi?

- *A) 1 va 1 tovush oralig'i B) 1 va 8 tovushlar oralig'i
C) 1 va 3 tovush oralig'i D) 1 xildagi ikki tovushing unison bo'lib
eshitilishi

42. Dubl bemol belgisi tovushga qanday ta'sir qiladi?

- A) Tovushni 1 tonga ko'taradi B) Tovushni 0,5 tonga pasaytiradi
C) Tovushni 0,5 tonga ko'taradi *D) Tovushni 1 tonga pasaytiradi

43. Sekunda intervali qaysi tovushlar oralig'ida tuziladi?

- *A) 1 va 2 B) 1 va 6 C) 1 va 3 D) 1 va 4

44. Qanday intervallar engarmonik teng interval deyiladi?

- A) Son miqdori bir xil va eshitilishi har xil
B) Son miqdori turlicha va eshitilishi turlicha
C) Sifat miqdori turlicha va eshitilishi turlicha
*D) Yozilishi va aytilishi har xil, eshitilishi bir xil

45. Asosiy pog'onani 2 ta yarim tonga ko'tarish.....?

- A) Diyez B) Dubl-bemol C) Bemol *D) Dubl-diyez

46. ESES – nima degani?

- A) Dubl diyez B) Bemol C) Diyez *D) Dubl-bemol

47. Skripka kaliti nota yo'lining qaysi chizig'ida joylashadi va shu chiziqda qaysi oktavaning qanday tovushi joylashadi?

- A) 1 oktava do tovushi uchinchi chizig'ida
B) Katta oktava sol tovushi 4 chizig'ida

- *C) 1 oktava sol tovushi 2 chizig'ida
- D) katta oktava fa tovushi chizig'ida

48. Diyez belgisi tovushga qanday ta'sir qiladi?

- A) Tovushni 1 tonga ko'taradi
- B) Tovushni 1,5 tonga pasaytiradi
- C) Tovushni 0,5 tonga pasaytiradi
- *D) Tovushi 0,5 tonga ko'taradi

49. Bekar belgisi tovushga qanday ta'sir qiladi?

- A) Tovushni pasaytiradi
- B) Tovushni ko'taradi
- *C) Tovushga qo'yilgan belgini bekor qiladi
- D) Tovushni tozalaydi

50. Kvarta intervali qaysi pog'ona tovushlari oralig'ida tuziladi?

- *A) 1 va 4
- B) 1 va 6
- C) 1 va 5
- D) 1 va 7

51. Kvinta intervali qaysi pog'ona tovushlari oralig'ida tuziladi?

- A) 1 va 6
- B) 1 va 4
- *C) 1 va 5
- D) 2 va 5

52. Tovush cho'zimi bu...

- *A) Tebranishning davomiyligi
- B) Tebranishning qisqaligi
- C) Tebranishning qattiqligi
- D) Tovushning balandligi

53. Asosiy pog'onani ikkita yarim tonga pasaytirish?

- A) Dubl – diyez
- B) Bemol
- C) Diyez
- *D) Dubl – bemol

54. Bas kaliti nota yo'lining qaysi chizig'ida joylashadi va shu chiziqda qaysi oktavaning qaysi tovushi joylashadi?

- A) 3 – chizig'ida 2 oktavaning fa tovushi
- B) 4 – chizig'ida katta oktavaning do tovushi
- *C) 4 – chizig'ida kichik oktavaning fa tovushi
- D) 1 oktava sol tovushi 2 – chizig'ida

55. Ikki hissali metrlar deb nimaga aytiladi?

- *A) Kuchli hissalar har 2 hissadan keyin bir tekis takrorlanib turadi
- B) Kuchli hissalar har 3 hissadan keyin bir tekis takrorlanib turadi

- C) Kuchli hissalar har 1 hissadan keyin bir tekis takrorlanib turadi
D) Kuchli hissalar har 4 hissadan keyin bir tekis takrorlanib turadi

56. Temp guruhlarining nomlari ketma-ketligi qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?

- A) O'rtacha vazmin, sust B) Sust, tez, vazmin
C) Tez, jadal, og'ir *D) Vazmin o'rtacha, tez

57. Andante qaysi tempga kiradi?

- A) Yengil B) Tez C) O'rtacha *D) Og'ir

58. Intervallarning sifati qanday anqlanadi?

- *A) Ton va yarim tonlardan B) Rangiga qarab
C) Tembriga qarab D) Past balandligiga qarab

59. Seksta intervali qaysi pog'ona tovushlari oralig'ida tuziladi?

- A) 1 va 7 *B) 1 va 6 C) 1 va 3 D) 1 va 5

60. Oktava intervali qaysi pog'ona tovushlari oralig'ida tuziladi

- A) 1 va 2 B) 1 va 5 *C) 1 va 8 D) 1 va 6

61. Dominant septakkord tovushlari qanday nomlanadi?

- A) 1,2,3,4 B) Septima, kvinta, tertsiya, prima
C) Kvinta, septima, prima, tertsiya *D) Prima, tertsiya kvinta va septima

62. Sekundakkord qanday intervallardan iborat bo'ladi?

- A) Kat.2 kich.3. kat.3. *B) kat.2.kat.3.kich.3
C) kich.2. kat.3. kat3 D) kich.2. kich 3 kat.3

63. Orttirilgan uch tovushlik qanday tuziladi?

- A) Ort.3 va kat.3 B) kat.3 va kam 3.
*C) kat.3. va kat.3 D) ort.3. va ort.3

64. Uchtovushlik nechta aylanmaga ega?

- *A) 2 B) 3 C) 4 D) 1

65. Uchtovushlik ikkinchi aylanmasi qanday nomlanadi?

- *A) kvartsektakkord B) Sekstakkord
C) tertskvartakkord D) kvintsektakkord

66. Tabiiy major va tabiiy minor ladining V pogʻonasidan tuzilgan uchtovushlikni qanday nomlaymiz?

- *A) dominant uchtovushligi B) Subdominanta uchtovushligi
C) Submedianta uchtovushligi D) Tonika uchtovushligi

67. I-IV-V pogʻonadan tuzilgan major uchtovushliklari harfiy sistemada qanday yoziladi?

- *A) T,S,D B) S,F,G C) D,A,H D) E,C,D

68. Tovushlarning bir ovozi shaklida, maʼlum lad va metr hamda ritm jihatdan uyushib kelishiga nima deyiladi?

- A) Ohang *B) Kuy C) Musiqa D) Musiqiy asar

69. Dominant septakkordning birinchi aylanmasi qanday nomlanadi?

- A) Tertskvartakkord B) Sekundakkord
*C) kvintsektakkord D) Sekstakkord

70. Dominant septakkordning ikkinchi aylanmasi qanday nomlanadi?

- A) Kvintsektakkord B) Sekstakkord
*C) Tertskvartakkord D) Kvartsektakkord

71. Uchtovushlik deb nimaga aytiladi?

- A) 3 ta tovushdan iborat tertsiya boʻyicha joylashgan tovushlar ketma-ketligi?
*B) Uchta tovushning bir vaqtda eshitalishi
C) Uchta tovushning birin ketin ijro etilishi
D) Uchta tovushning tertsiya intervali boʻyicha birin ketin eshitalishi

72. Tabiiy major ladidagi qaysi pogʻonalardan asosiy major uchtovushliklari tuziladi?

- A) II-III-VI B) IV-V-VI *C) I-IV-V D) V-VI-VII

73. Tugallangan musiqaviy fikrni ifodalovchi musiqaviy tuzilmaga nima deyiladi?

- *A) Davriya B) Sezura C) Tuzilma D) Jumla

74. Musiqaviy sistemada nechta toʻliqsiz oktava bor?

- A) 5 ta B) 9 ta *C) 2 ta D) 10 ta

75. Nota yozuvini qisqartiruvchi belgini aniqlang?
 *A) Repriza, segno B) nuqta ikki nuqta
 C) Sinkopa D) Akkolada
76. Katta tertsiyalar necha ton bo'ladi?
 A) 4 ton *B) 2 ton C) 5 ton D) 1,5 ton
77. Musiqa asarining ijro harakati tezligi qanday ataladi?
 A) Metr B) Zarb *C) Sur'at D) Ritm
78. Mi va fa tovushlari oralig'i qanday intervalni tashkil qiladi?
 A) Sof kvarta B) Katta sekunda
 C) Kichik tertsiya *D) Kichik sekunda
79. Garmonik majorda nechanchi bosqich 0.5 ton pasaytiriladi?
 A) I bosqich B) VII bosqich *C) VI bosqich D) IV bosqich
80. Do major tonalligida nechta diyez bor?
 A) 4 ta B) 1 ta *C) Belgi yo'q D) 6 ta
81. Tonika deb nomlangan bosqich nechanchi bosqich?
 A) III bosqich B) IV bosqich C) VII bosqich *D) I bosqich
82. Tovush qatorining IV bosqichi nomini aniqlang?
 A) Medianta B) Tonika *C) Subdominanta D) Dominanta
83. Sof primalar necha tonga teng?
 A) 1,5 ton *B) 0 ton C) 3 ton D) 4,5 ton
84. V-bosqichdan tuzilgan uchtovushlik qanday nomlanadi?
 *A) Dominanta B) Minor uchtovushligi
 C) Tonika uchtovushligi D) Yordamchi uchtovushlik
85. Notalarning harfiy sistemasida A harfi qaysi tovushni bildiradi?
 A) Do tovushini B) Si tovushini
 *C) Iya tovushini D) Re tovushini
86. Butun nota necha sanoqda sanaladi?

A) 2 i B) 3i *C) 4i D) 5 i

87. Dominantseptakkordning 3 aylanmasi qanday nomlanadi?

A) Tertskvartakkord B) kvintsestakkord
*C) Sekundakkord D) Sekstakkord

88. Kvintsestakkord qanday intervallardan iborat bo'ladi?

*A) kich.3 kich.3 kat.2 B) kich.3. kat.3. kat.2
C) kat.3. kich.3. kich.2. D) kat.3. kat.3. kat.

89. Yarim nota necha sanoqda sanaladi?

*A) 2 i sanog'iga B) 4 i sanog'iga
C) 3 i sanog'iga D) 1 i sanog'iga

90. Major yoki katta uchto'vushlik qanday tuziladi?

A) kich.3. va kat.3 B) ort.3. va kam.3
*C) kat.3. va kich.3 D) kam.3 va ort.3

91. Uchto'vushlikning o'rta to'vushi qanday nomlanadi?

A) Prima B) Kvinta *C) Tertsiya D) Septima

92. Chorak nota necha sanoqda sanaladi?

A) 4 iga B) 2 iga *C) 1 iga D) 3 iga

93. Uchto'vushlikning yuqorigi to'vushi qanday ataladi?

*A) Kvinta B) Prima C) Tertsiya D) Oktava

94. Yarim pauza necha sanoqqa teng?

A) 4iga B) 3 iga *C) 2 iga D) 1 iga

95. Tabiiy minor ladining qaysi pog'onalaridan minor uchto'vushliklari tuziladi?

A) I,II,III B) II,III,IV C) II,III,VI
*D) I-IV-V

96. Davriyaning yarmiga nima deyiladi?

*A) Jumla B) Kadensiya C) Tuzilma D) Sezura

97. Pentatonika necha bosqichdan iborat?

- A) 7 bosqichdan *B) 5 bosqichdan C) 4 bosqichdan
D) 6 bosqichdan

98. Musiqaviy asarning vaqtincha yangi tonallikka o'tib yana dastlabki tonallik bilan tugallanishi qanday nomlanadi?

- A) Modulyatsiya B) Kuy *C) Og'ishma D) Pog'onadosh tonallik

99. Musiqaviy tuzilmani tugallanishiga nima deyiladi?

- *A) Kadensiya B) Jumla C) Davriya D) Sezura

100. Beshta tovushdan iborat lad nima deb ataladi

- A) Major B) Minor *C) Pentatonika D) Garmonik major

101. «Sekstakkord»ning ikki chetidagi tovushlar oralig'i qanday intervalni tashkil etadi?

- A) Septima *B) Seksta C) Kamaytirilgan oktava D) Barcha javoblar to'g'ri

102. Dominantsekundakkord nimaga yechiladi?

- A) Tonikaga B) Dominantaga *C) Tonika sekstakkordiga
D) Toliqsiz tonikaga

GLOSSARIY

Voice amplitude	Tovush amplitudasi	Tebranish harakatlari amalga oshiriladigan fazo doirasi, tebranish amplitudasi (kengligi) deyiladi.
High voice	Oberton	Tovush to‘lqinlarining murakkab shakli natijasida yuzaga keladi. Musiqaning elementar nazariyasi fani musiqaning tembr xususiyatlarini keng o‘rganmaydi, bu borada cholg‘ushunoslik va orkestrrovka fanlari doirasida bahs yuritiladi.
Voice timbre	tovush tembri,	Tovushning sifat xususiyati, uning rang-barangligiga
Highly voice	tovushning balandligi,	Tebranayotgan egiluvchan jismning tebranish tezligi, ya’ni chastotasiga bog‘liqdir.
Hard of voice	tovushning qattiqligi (kuchi).	Tebranish harakatining kuchiga, ya’ni, tovush manbai bo‘lgan jismning tebranish kengligiga bog‘liqdir.
Musical chain	musiqiy tizim,	Balandlik bo‘yicha muayyan o‘zaro munosabatlarda bo‘lgan tovushlar qatoridan iborat.
Musical instrument	Musiqaviy soz	Musiqaviy tuzilmadagi tovushlar mutloq balandligining muayyan o‘zaro ta’sir etishi.
registrar	Registr	Ovoz yoki cholg‘u sozining alohida xarakterga ega bo‘lgan tovush tusi bilan ajralib turadigan qismi.
Complete tone	butun ton	Ikkita yarim tonlikdan hosil bo‘lgan oraliq.

diyez	diyez	Tovush yarim tonga ko‘tarilishi
Dubl-diyez	dubl-diyez	Tovush ikkita yarim tonga ko‘tarilishi.
Musical diapason	musiqiy diapazon	Musiqiy tovushqatorning eng past tovushdan eng yuqori tovushgacha bo‘lgan umumiy hajmi
Derived step	Hosila pog‘onalar	Tovushqatorning har bir asosiy pog‘onasini ko‘tarish yoki pasaytirish mumkin. Bunda ko‘tarilgan yoki pasaytirilgan pog‘onalar.
Note script	Nota yozuvi	Tovushlarni nota deb ataluvchi yozma belgilar yordamida ifodalashga qaratilgan tizimdir.
Note	Nota	Lotincha so‘z bo‘lib belgi, yozuv ma’nosini bildiradi
Key	Kalit	Kalit nota yo‘lining boshida asosiy chiziqlarning biriga qo‘yiladi.
Pause	Pauza	Musiqi tovushi yangrashining vaqtincha to‘xtalishi.
Point	Nuqta	Biror tovush cho‘zimini yarim baravar uzaytiradi, bu belgi nota doirachasining o‘ng tomonidan qo‘yiladi.
Note way	Nota yo‘li	Nota yo‘li beshta gorizontal parallel chiziqlar.
Power of voice	Tovush kuchi	Tovushning qattiq eshitishtirish darajasi.
Dynamic signs	Dinamik belgilar	Musiqaning eshitishtirish kuchi turli darajalarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.
Reprise	Repriza,	Qaytarish belgisi – asarning ma’lum bir qismini yoki uni boshdan oxirigacha qaytarish uchun qo‘yiladi.

Chord	Akkordlar	Uch yoki undan ortiq tovushlarning birga eshitilishi.
Akkolada	Akkolada	Fortepiano musiqasi chap tomondan maxsus qavs bilan birlashtirilgan ikkita nota yo‘liga yoziladi.
Score	Partitura	Xilma-xil ansambllar, orkestrlar, xor, va torli kamer ansambllari (masalan kvartet) mo‘ljallangan musiqa yozish shakli.
Power of voice	Tovush kuchi	Tovushning qattiq eshitilish darajasi.
Dynamic signs	Dinamik belgilar	Musiqaning eshitilish kuchi turli darajalarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.
Reprise	Repriza,	Qaytarish belgisi – asarning ma’lum bir qismini yoki uni boshdan oxirigacha qaytarish uchun qo‘yiladi.
Chord	Akkordlar	Uch yoki undan ortiq tovushlarning birga eshitilishi.
Akkolada	Akkolada	Fortepiano musiqasi chap tomondan maxsus qavs bilan birlashtirilgan ikkita nota yo‘liga yoziladi.
Score	Partitura	Xilma-xil ansambllar, orkestrlar, xor, va torli kamer ansambllari (masalan kvartet) mo‘ljallangan musiqa yozish shakli.
Sincope	Sinkopa	Musiqa ijrosida ritm va metr urg‘ulari orqali ma’lum izchillik o‘zgarishi.
Tempo	Temp	Musiqa ijrosidagi tovushlar harakatining tezligi.
Very soft	Pianissimo	Juda sekin
Loud	Forte	Baland

Gradually increase	Crescendo	Sekin asta balandlashish
Gradually decrease	Decrescendo	Sekin asta pastlashish
Gradually faster	Accelerando	Ijro etilayotgan asar sur'atini yanada tezlatib.
Gradually slower and softer	Rallentando	Asar sur'atini sekinlatib.
Gradually slower	Ritartando	Kechikibroq.
Return to original tempo	A tempo	O'z tempida ijro etish.
Interval	Interval	Musiqi ijrosi jarayonida bir vaqtda yoki birin-ketin eshitilgan ikki tovush qo'shilmasi.
Melodic interval	Melodik interval	Birin-ketin eshitilgan tovushlar intervali.
Harmonic interval	Garmonik interval	Baravariga (bir vaqtda) eshitilgan tovushlar.
Adjective degree of intervals	Intervallarning sifat miqdori	Tovushlar orasidagi masofa
Simple interval	Oddiy interval	Bir oktava oralig'ida hosil bo'lgan interval. 8 ta oddiy interval bor.
Diatonic interval	Diatonik interval	Tabiiy major va tabiiy minorning pog'onalari orasida hosil bo'lgan interval.
Chromatic interval	Xromatik interval	Barcha orttirilgan va kamaytirilgan intervallar.
Circle of interval	Intervallarning aylanishi	Interval tovushlarining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi natijasida pastgi tovush yuqoriga va yuqoridagi tovush pastga joylashishi.
Component intervals	Tarkibli intervallar	Oralig'i bir oktavadan keng bo'lgan intervallar.
Harmonious (consonance)	Ohangdoshlik (konsonans)	Bir-biri bilan uyg'unlashgan tovushlar.
Unharmonious (dissonance)	Noohangdoshlik (dissonans)	Bir-biri bilan uyg'unlashmagan, keskin

Harmony	Lad	eshitiladigan tovushlar. Tovushlarning tonikaga nisbatan munosabatlari orqali aniqlanadigan o‘zaro aloqalari tizimi.
Function of harmony	Laddagi funksiya	Laddagi har bir tovushning roli va harakatining xarakteri.
Step	Pog‘ona	Muayyan lad tizimiga tegishli tovushlar.
Sound line of harmony	Ladning tovushqatori	Pog‘onalarning balandlik bo‘yicha izchil joylashuvi.
Constant sounds	Turg‘un tovushlar	Laddagi tayanch tovushlar.
Tonic	Tonika	Ladning birinchi bosqich tovushi.
Tonality	Tonallik	Lad o‘rnashgan pardalar yoki balandliklar.
C major tonality	Do major tonalligi	Major ladida do tovushidan tuzilgan tonallik.
Circle of fifths	Kvinta davrasi	Yuqoriga tomon sof kvinta bo‘yicha tuzilgan diyezli va pastga tomon sof kvinta bo‘yicha tuzilgan bemolli major tonalliklarining joylashuv tartibi.
Enharmonic equal tonality	Engarmonik teng tonalliklar	Balandligi bir xil, lekin yozilishi va nomi turlicha bo‘lgan tonalliklar.
Tonality	Tonallik	Lad o‘rnashgan pardalar yoki balandliklar.
C major tonality	Do major tonalligi	Major ladida do tovushidan tuzilgan tonallik.
Circle of fifths	Kvinta davrasi	Yuqoriga tomon sof kvinta bo‘yicha tuzilgan diyezli va pastga tomon sof kvinta bo‘yicha tuzilgan bemolli major tonalliklarining joylashuv tartibi.
Harmonic major	Garmonik major	Garmonik major gammasining

Melodic major	Melodik major	xarakterli xususiyatlaridan biri oltinchi va yettinchi pogʻonalar orasida orttirilgan sekundaning hosil boʻlishidir. Melodik majorda VI va VII pogʻonalar pasaytiriladi, xarakteri boʻyicha melodik major tabiiy minorga oʻxshash boʻlib eshitiladi hamda kuyning pastga tomon harakatida qoʻllaniladi.
Minor lad	Minor ladi	Turgʻun tovushlari birin-ketin yoki bir vaqtda eshitilgan hamda kichik yoki minor uchtovushligidan hosil boʻlgan ladga minor ladi deb aytiladi. Minor uchtovushligining turgʻun tovushlari tertsiya boʻyicha joylashgandir.
Harmonic minor	Garmonik minor	Garmonik minor tabiiy minordan VII pogʻonaning koʻtarilishi bilan farq qiladi. VII pogʻonaning koʻtarilishi yuqoriga boshlovchi tovush tortilishini yanada kuchaytiradi. Garmonik minor gammasining xarakterli xususiyatlaridan biri oltinchi pogʻona bilan yettinchi pogʻona oʻrtasida orttirilgan sekundaning hosil boʻlishidir.
Melodic minor	Melodik minor	Melodik minor tabiiy minordan oltinchi va yettinchi pogʻonalarining yarim tonga koʻtarilishi bilan farq qiladi. Oltinchi pogʻonaning yarim tonga koʻtarilishi gammaning yuqori qismidagi tovushlarning teng joylashuviga yordam

Parallel tonalities	Parallel tonalliklar	qiladi. Bunda birinchi pog'onaga qarab yarim ton tortilgan yuqoriga boshlovchi tovush saqlanishi lozim. Tabiiy ko'rinishdagi major va minorda bir xil nomdagi tovushlar bo'ladi. Kalit belgisi bir xil bo'lgan major va minor tonalliklari parallel tonalliklar deyiladi.
Fifths tour of the minor tonalities	Minor tonalliklarining kvinta davrasi	Yondosh minor tonalliklari bir-biridan sof kvinta oralig'ida joylashganligi uchun minor lading barcha tonalliklari mustaqil kvinta davrasini hosil qiladi, ya'ni, har bir yangi tuziladigan tonallik oldingisidan sof kvinta intervali miqdorida yuqorida joylashadi.
The same names of tonality	Nomdosh tonalliklar	Bir xil tonikadan tuzilgan, ya'ni boshlanishi bir notada amalga oshirilgan major va minor tonalliklari nomdosh tonalliklar deyiladi. Nomdosh major va minorning tabiiy gammalari bir-biridan uchta pog'ona bilan farq qiladi, bular 3, 6 va 7 – pog'onalaridir.
Basic or diatonic interval	Asosiy yoki diatonik intervallar	Bu intervallar tabiiy major va tabiiy minorning pog'onalari orasida hosil bo'lganligi uchun diatonik intervallar ham deyiladi. Barcha diatonik intervallarni istalgan asosiy pog'ona yoki hosila pog'onadan pastga hamda yuqoriga tomon tuzish mumkin.

akkord	Akkord	Bir vaqtda qo‘shilib eshitilgan hamda tertsiya bo‘yicha joylashgan uch va undan ortiq tovushlarga akkord deyiladi. Akkord berilgan pastki tovushdan yuqoriga qarab tuziladi.
Third voice	Uchtovushlik	Ucha tovushdan iborat, tertsiya bo‘yicha joylashgan akkord uchtovushlik deyiladi. Uchtovushlikning qaysi holatda bo‘lishi shu uchtovushlik tarkibiga kiradigan tertsiyalarning joylashuv tartibi va holatiga bog‘liq bo‘ladi.
Sekstakkord	Sekstakkord	Uchtovushlik birinchi aylanmasi sekstakkord deyiladi, unda prima tovushi bir oktava yuqoriga ko‘chiriladi. Sekstakkord 6 raqami bilan belgilanadi
kvartsektakkord	Kvartsektakkord	Uchtovushlikning ikkinchi aylanmasi kvartsektakkord deyiladi, bunda prima bilan tertsiya bir oktava yuqoriga ko‘chadi. Kvartsektakkord 6/4 raqamlari bilan belgilanadi.
septakkord	Septakkord	Tertsiya asosida joylashgan, to‘rt tovushli. Septakkordning ikki chetidagi tovushlar oralig‘i septima intervalini hosil qilganligi uchun bu akkord septakkord nomini olgan.
Dominantseptakkord	Dominantseptakkord	Major va garmonik minorning 5 – pog‘onasidan tuzilgan septakkord. - D ₇ .
Guidance septakkord	Yetakchi septakkord	Septakkordlar orasida dominantseptakkorddan

		tashqari yetakchi septakkordlar ham ko‘p qo‘llaniladi. Ular tabiiy va garmonik majorning, shuningdek, garmonik minorning 7 – pog‘onasida tuziladi.
Little guidance septakkord	Kichik yetakchi septakkord	Yetakchi septakkordning ikki chetidagi tovushlar tabiiy majorda kichik septima intervalini hosil qiladi. Kichik yetakchi septakkord ustki tomonidan katta tertsiya qo‘shilgan kamaytirilgan uchtovushliklardan tuziladi (kich.3, kich.3, kat.3).
Reduced guidance septakkord	Kamaytirilgan yetakchi septakkord	Yetakchi septakkordning ikki chetidagi tovushlari garmonik major va minorda kamaytirilgan septimani tashkil qiladi.
Engarmonizm of the akkord	Akkordlar engarmonizmi	Akkordlardagi engarmonik tenglikning ikki xil ko‘rinishi mavjud: 1. Akkorddagi barcha tovushlar almashtiriladi, biroq, ularning interval tuzilishi o‘zgarmaydi 2. Akkorddagi barcha yoki alohida tovushlar engarmonik jihatdan almashtiriladi, biroq, tovushlarning interval tuzilishi o‘zgarmaydi:
Interval of character	Xarakterli intervallar	Ladlardagi hosil bo‘ladigan intervallar tabiiy ko‘rinishda uchramaydi, shuning uchun bu xildagi intervallarga xromatik yoki xarakterli intervallar deyiladi. Hammasi bo‘lib to‘rtta xarakterli interval bor,

Firm interval	Turg'un interval	bular: ort.2, kam.7, ort.5, va kam.4 dan iborat. Ushbu yangi intervallar majorda 6-pog'ona o'zgarishi bilan bog'liq. Lad pog'onolari yordami bilan tuzilgan har bir interval o'zining akustik xususiyatlariga ega. Turg'un tovushlardan tuzilgan ohangdosh intervallar turg'un interval deyiladi.
Not firm interval	Noturg'un interval	Ohangdosh interval noturg'un tovushlardan tuzilsa yoki bitta noturg'un va bitta turg'un tovushlardan tuzilsa baribir noturg'un interval bo'ladi. Demak, har qanday noohangdosh interval doim noturg'un hisoblanadi.
Interval of character	Xarakterli intervallar	Ladlardagi hosil bo'ladigan intervallar tabiiy ko'rinishda uchramaydi, shuning uchun bu xildagi intervallarga xromatik yoki xarakterli intervallar deyiladi. Hammasi bo'lib to'rtta xarakterli interval bor, bular: ort.2, kam.7, ort.5, va kam.4 dan iborat. Ushbu yangi intervallar majorda 6-pog'ona o'zgarishi bilan bog'liq.
Pentatonika	Pentatonika	Dunyo xalqlari musiqasida tovushqatori katta sekundalar va kichik tertsiyalar orasida tuzilgan besh pog'onali ladlar ko'p uchraydi. Bu xildagi ladlar pentatonika deyiladi. 1. Birinchi pog'onadan (diatonik tovushqatorda, ya'ni do) major uchtovushligi tuziladigan

		pentatonika. Bu o'z xarakteri bilan major ladiga yaqin turadi, biroq u tabiiy majordan 4 va 7 – pog'onalar yo'qligi bilan farq qiladi.
		2. Birinchi pog'onadan (diatonik tovushqatorda, ya'ni la) minor uchtovushligi tuziladigan pentatonika minorni eslatadi, biroq unda 2 va 6 – pog'onalar bo'lmaydi.
Transposition	Transpozitsiya	Musiqa asarining biror tonallikdan boshqa tonallikka ko'chirilishi.
Level scale	Pog'onadosh tonalliklar	Tonika uchtovushliklari tabiiy va garmonik ko'rinishda berilgan tonalliklarning pog'onalaridan hosil bo'lgan tonalliklar.
Main tonality	Bosh tonallik	Musiqa amaliyotida har bir asardagi dastlabki (ilk) tonallik
Side tonality	Yondosh tonallik	Asar rivojlanishi jarayonida uni almashtiruvchi tonallik.
Chromatic scale	Xromatik gamma	Major yoki minor tabiiy gammalaridagi katta sekundalarning xromatik tovushlar yordami bilan to'ldirilishidan hosil bo'ladi.
Modulation	Modulyatsiya	Musiqa asari yoki qismining biror yangi tonallikka o'tishi va shu tonallikda tugallanishi.
Divergence	Og'ishma	Musiqa asari biror yangi tonallikka vaqtincha o'tsa va yana dastlabki tonallikka qaytib tugallanishi.
Melody	Kuy	Tovushlarning bir ovozli shaklda ma'lum lad, metr hamda ritm jihatidan uyushib

Period of modulation	Modulyatsiyali davriya	kelishi. Davriyaning tugallanish vaqtida modulyatsiya hosil bo‘lishi.
Motive	Motiv	Bitta asosiy metr zarbini o‘z ichiga olgan tuzilma.
Dynamic balls	Dinamik ottenkalar	Kuy harakati eshitishtirish kuchi darajasining o‘zgarishiga bog‘liqdir. Musiqada eshitishtirish kuchining turli darajalari dinamik ottenkalar deyiladi.
Decoration of music	Musiqqa bezaklari	Kuydagi milliylik xususiyatlarini yaqqol ifodalovchi, tovushning ohangdorligini ta’minlovchi tovushlar.
Short forshlag	Qisqa forshlag	Bir yoki bir necha tovushdan tuzilib, yonma-yon joylashgan tovush cho‘zimi hisobidan juda qisqa ijro etiladi.
Long forshlag	Uzun forshlag	Bir tovush yordami bilan yonma-yon turgan tovush cho‘zimi o‘lchovida ijro etiladi.
Mordent	Mordent	Yordamchi tovush asosiy tovushning ostki tomonidan chalinishi kerakligini bildiradi.
Grupetto	Gruppetto	To‘rt yoki besh tovushdan iborat kuy tuzilmasi shaklida bo‘lib, unda tovushlar quyidagicha joylashadi.
Trel	Trel’	Bir tekisda ravon almashib turadigan ikkita (asosiy va yordamchi) tovushdan tuzilgan kuy shakli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

- 1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, T., “O‘zbekiston”, 2023 yil.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni Toshkent 2020 yil 23-sentyabr, O‘RQ-637-son
- 3.O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni Toshkent. 2007-yil 9-apreldagi O‘RQ – 87-son.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va asarlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.// “Xalq so‘zi” gazetasi 2017-yil 18-noyabr soni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2018-yil 3-dekabr, 48-son, 921-modda.
3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. Asarlar. 3-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 400 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Madaniyat va san’at sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasiga bag‘ishlangan nutqi. Toshkent, 2017-yil 25-dekabr www.lex.uz
- 5.Mirziyoyev Sh.M. “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. PF-6000-son. 2020 yil. 26-may.
- 6.Mirziyoyev SH.M. “Madaniyat va san’at sohasining yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ112-sonli qarori Toshkent 02.02.2022 yil

Asosiy adabiyotlar

- 1.Bahriyev A.R. Musiqaning elementar nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. Guvohnoma № 1629. BuxDU. 2011 -125 bet.
- 2.Vaxromyev V.A. Musiqaning elementar nazariyasi. Darslik, II-nashr. -T.: O‘qituvchi, 1980. -224 b.
- 3.Вахромеева Т.А. Справочник по музыкальной грамоте и сольфеджио. М., 2004.
- 4.Виноградов, Красовская. Занимательная теория музыки. М., 1991.
- 5.Дмитриева Л.Г. Черноиваненко Н.М. Методика музыкального воспитания в школе. Учебник. - М.: Просвещение, 1989. – 207 с.
- 6.Ibrohimjonova G.A., Yuldoshev U.Yu. Musiqa nazariyasi. – Adabiyot uchqunlari. 2018.
- 7.Ismoilova M.E. Bayramjonim-bayramjon O‘quv qo‘llanma -T.: “Musiqa” nashriyoti. 2016 yil, -136 bet

8. Коленко Р.Г. Анализ музыкальных форм. Минск, 2013.
- 9.Kozimov J.J. Xor dirijyorligida oddiy va murakkab o'lvovlarni o'rganish uslublari. O'quv qo'llanma Toshkent, "Navro'z" nashriyoti -138 bet
- 10.Mark Feezell. Music Theory Fundamentals. – High-Yield Music heory, vol.1. Copyright © 2011 All Rights Reserved.
- 11.Музыкальный энциклопедический словарь. Гл. ред. Г.В.Келдиш. - М.: Советская энциклопедия. 1991. - 672 с.
12. Парсегова А.П. Анализ музыкальных произведений. Ташкент "ИЛМ ЗИЁ " - 2009
- 13.Петрушин В.И. Музыкальная психология. Учеб. пособ. для ст-тов и преподавательей. - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1997. - 384 с.
14. Rahimov Q. Musiqaning elementar nazariyasi. O'quv qo'llanma, Toshkent, "Musiq" nashriyoti, 2007.
15. Rahimov Q. Musiqaning elementar nazariyasi bo'yicha mashq va vazifalar to'plami. Toshkent, "O'zbekiston", 2006.
16. Rahimov Q. Garmoniya bo'yicha mashq va masalalar to'plami. «Aloqachi», 2005.
17. Ройтерштейн М.И. Основы теоретического музыкознания. М., «Академия», 2003.
18. Sami Aziz o'g'li Azizov N., Azizov F. Musiqaning elementar nazariyasi. O'quv qo'llanma Qarshi "Nasaf" nashriyoti 2006 yil. -184 bet.
- 19.Способин И.В. Элементарная теория музыки. Учебник для муз. училищ. 7-э изд., - М.: Музыка, 1979. - 199 с.
20. Способин И.В. Элементарная теория музыки. Москва, «Кефара», 1996 (Электрон)
- 21.Trigulova A.X. Musiq nazariyasi (Musiq asarlari tahlili). T., 2022 .
- 22.Urmanova L., Trigulova A., Ibrahimjanova G. Musiq nazariyasi. – Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

Internet saytlari

1. www.shdpi.uz
2. www.artmuzik.ru
3. www.universalia.nov.ru/instruments.
4. www.muzik.uz
5. www.classicmuzik.uz
6. <http://forum.ziyouz.com>
7. www.ziyouz.net
8. www.nota.ru
9. www.pedagog.uz
10. www.qarshidu.uz

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-mavzu. Musiqiy tizim.....	5
2-mavzu. Nota yozuvi tizimi.....	19
3-mavzu. Ritm. Metr. Oddiy metr.....	38
4-mavzu. Metrning murakkab va boshqa turlari. Temp.....	44
5-mavzu. Lad. Major ladi va tonalliklari.....	55
6-mavzu. Minor ladi va tonalliklari. Parallel, nomdosh, engarmonik teng tonalliklar. Xalq musiqasi ladlari.....	68
7- mavzu. Intervallar.....	81
8- mavzu. Tabiiy major va minor intervallari.....	92
9-mavzu. Garmonik major va minor intervallari. Xromatik intervallar yechilishi.....	99
10-mavzu. Akkord. Uchtovushlik.....	103
11-mavzu. Ladning asosiy va yondosh uchtovushliklari.....	107
12-mavzu. Septakkord va uning turlari. Dominantseptakkord.....	113
13-mavzu. Yetakchi septakkord. Subdominantseptakkord.....	116
14-mavzu. Tonalliklar qardoshligi. Al'teratsiya va xromatizm. Transpozitsiya. Modulyatsiya.....	119
15-mavzu. Kuy tuzilishi. Melizmlar va ijro etishning ayrim usullar belgilari.....	131
Mavzular yuzasidan test savollari.....	146
Glossariy.....	157
Foydalanilgan adabiyotlar.....	169

**MAXBUBA ISMOILOVA,
NURIDDIN AZIZOV**


MUSIQANING ELEMENTAR NAZARIYASI

*60111300-Musiqqa ta'limi yo'nalishi talabalari uchun
Elektron o'quv darslik*

Texnik muharrir *M.Qudratova*
Badiiy muharrir *Sh.Odilov*
Kompyuterda tayyorlovchi *B.Ashurov*

Bosishga 10.06.2024-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.
Shartli b.t. 21,5. Adadi 350 (1-zavod 50) nusxa.

“Onix print” MChJ da chop etildi.
Toshkent, Farxod ko'chasi, 21.



ISBN 978-9910-9052-2-3



9 789910 905223